

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI

FILOLOGIYA VA TILLARNI O'QITISH (O'ZBEK TILI) FAKULTETI

O'ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI



**O'QUV USLUBIY MAJMUA
TILSHUNOSLIK NAZARIYASI**

(1-qism)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha

Ta'lif sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar

Ta'lif yo'nalishi: 5120100 – Filologiya va tillarni o'qitish
(o'zbek tili)

Tuzuvchi: dots. M.Rahmatov

Toshkent – 2017

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2017-yil _____dagi ___-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi

Tuzuvchi: pof.H.Dadaboyev
dots. M.Rahmatov

Taqrizchilar: ToshDO‘TAU o‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish fakulteti dekani B.Abdushukurov
TDSHU professori Q.Sodiqov

O‘quv uslubiy majmua Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2017-yil _____dagi ___-sonli qarori bilan foydalanishga tavsiya qilingan.

Mundarija

SO‘Z BOSHI.....	6
Namunaviy dastur	7
Ishchi o‘quv dasturi	22
Ma’ruza 1. “Tilshunoslik nazariyasi” fani mazmuni, maqsadi, vazifalari.	34
Ma’ruza 2. Til va jamiyat. Sotsiolingvistika.....	38
Ma’ruza 3. Til va tafakkur. Til birliklari va mantiqiy birliklar.	44
Ma’ruza 4. Til va nutq munosabati. Nutq faoliyati, og‘zaki va yozma nutq.	50
Ma’ruza 5. Til – ramzlar tizimi. Tilning semiotik tabiat. Til birliklarining tizim sifatidagi munosabati.	56
Ma’ruza 6. Til va yozuv. Yozuvning tarixiy ahamiyati.....	62
Ma’ruza 7. Tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi.....	67
Ma’ruza 8. Tillarning shakllanishi va rivojlanishi.....	74
Ma’ruza 9. Dunyo tillari tavsifi va tasnifi.....	80
Ma’ruza 10. Tilshunoslik va boshqa fanlar.....	86
Ma’ruza 11. Lingvistik tahlil metodlari. Umumiy va xususiy metodlar	92
Amaliy mashg‘ulot 1. Tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalari.....	101
Amaliy mashg‘ulot 2.Me’yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Kreol tillar. Pijin tillari.	102
Amaliy mashg‘ulot 3.Nutqning fonetik bo‘linishi.	103
Amaliy mashg‘ulot 4.Yozuvning paydo bo‘lishi. Yozuv turlari.	105
Amaliy mashg‘ulot 5.Til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.....	106
Amaliy mashg‘ulot 6.Morfologik va geneologik tasnif.	108
Amaliy mashg‘ulot 7.Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati.....	109
Amaliy mashg‘ulot 8.Tilshunoslik va aniq fanlar munosabati.	111
Seminar mashg‘uloti 1. Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun’iy til.	112
Seminar mashg‘uloti 2.Til sistemasi va strukturası.....	112
Seminar mashg‘uloti 3.Til birliklari va nutq birliklari.....	114
Seminar mashg‘uloti 4.Til sathlari: grammatic sath.....	114
Seminar mashg‘uloti 5.Til taraqqiyotidagi fonetik o‘zgarishlar.....	115
Seminar mashg‘uloti 6.Til guruhlari. Agglyutinativ tillar. Flektiv tillar.	116
Seminar mashg‘uloti 7.Stastistik metod. Komponent tahlil metodi.	118
Seminar mashg‘uloti 8.Tilshunoslik sohasiga oid asosiy terminlar mohiyati.....	119
Test savollari.....	125
Glossariy.....	134

SO‘Z BOSHI

Mazkur o‘quv uslubiy majmua 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan bo‘lib, O‘zbek filologiyasi fakultetining O‘zbek tilshunosligi kafedrasи professor-o‘qituvchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

“Tilshunoslik nazariyasi” fani 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasiga asosan 1-8 semestrlarida mos ravishda 122 auditoriya soatlarda o‘qitiladi. Ma’ruzalar fanning asosiy masalalarini qamrab olgan bo‘lib, tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o‘rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini belgilash, tilning ijtimoiy tabiatni, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, tasnifi, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universaliyalar va til strukturasi haqida ma’lumot berish maqsadini aks ettiradi.

“Tilshunoslik nazariyasi” fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘rganiladigan masalalar doirasida bakalavr tilning ijtimoiy tabiatni, til va jamiyat munosabati, til va tafakkur munosabati, lison va nutq munosabati, asosiy lisoniy munosabatlar, til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro mutanosibligi, tilning semiotik tabiatni, tilning ramzlar tizimi sifatidagi ta’rifi, til sathlari, lisoniy paradigma asoslari, lisoniy tasnif asoslari, tilning tarixiy taraqqiyoti va o‘zgaruvchanligi, dunyo tillari va tillar tasnifi, tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligi, tilshunoslikning tabiiy fanlar bilan bog‘liqligi haqida tasavvurga ega bo‘lish barobarida, lisoniy va nutqiy birliklarning o‘zaro munosabatini tahlil qilish, tilni umumiy, nutqni xususiy hodisa sifatida izohlash, til-tafakkur-nutq munosabatini mustaqil asoslash ko‘nikmalarini egallaydi.

Ushbu o‘quv uslubiy majmua besh qismdan iborat bo‘lib, ular sillabus, ishchi o‘quv reja, namunaviy va ishchi o‘quv dastur, modulni o‘qitishda foydalilanidigan interfaol ta’lim metodlari, ma’ruza materiallari (ma’ruza matni, adabiyotlar ro‘yxati, mustaqil ta’lim mavzulari, glossariy, keyslar banki, nazorat savollari va test savollari) va amaliy mashg‘ulotlar materiallari (amaliy topshiriqlar, namuna, adabiyotlar ro‘yxati, tarqatma materiallar, keyslar banki, test savollari)dan tashkil topgan. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar materiallari semestrlarga ajratilgan holda berilgan.

MA'RUZA MATERIALLARI

1-§. “TILSHUNOSLIKKA KIRISH“ FANI PREDMETI VA MAZMUNI

Reja:

1. “Tilshunoslikka kirish“ fani predmeti va obyekti.
2. “Tilshunoslikka kirish“ fani maqsad va vazifalari.
3. “Tilshunoslikka kirish“ tilshunoslikning asosiy masalalarini o’rganuvchi fan sifarida.
4. Til kishilik jamiyatni mahsuli sifatida.
5. Til - ijtimoiy hodisa sifatida.

“Tilshunoslikka kirish” fani tilshunoslikning asosiy masalalarini, tilning paydo bo‘lishi va til taraqqiyotidagi umumiy qonuniyatlarni, til tavsifi borasigi muhim jihatlarni o’rganadi.

Til kishilar o’rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o’rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

Tilning tabiatni, mohiyati kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi, strukturasi va bu strukturani tashkil etgan elementlarning o‘zaro munosabati, uning ichki mexanizmi, ishslash principplari kabi muhim masalalarni ilmiy o’rganishni, tilni har taraflama tadqiq qilishni talab qiladi.¹

Til kishilik jamiyatni mahsulidir. Tilsiz hech bir voqelik va hodisani, insonning tabiatda, jamiyatda tutgan o‘rnini, jamiyat taraqqiyoti yo‘llarini bilish, o’rganish mumkin emas.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ushbu fanning predmeti sifatidagi ta’rifidir. Ma’lumki, tabiiy inson tili faqat tilshunoslikda emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o’rgamiladigan murakkab ob’yekt bo‘lib, har bir fanning tilga bergen ta’rifi ham turlich raqida bo‘lishi mumkin. Hattoki, tilshunoslik fanining o‘zida ham tilning yagona ta’rifi yo‘q. Tilning ta’rifi masalasi tilshunoslik fani tarixidagi eng muhim masalalardan biri bo‘lib, fan tarixida turlich raqida qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo‘lmoqda.

Darhaqiqat, tilshunoslikda mavjud bo‘lgan har bir nazariya, avvalo tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilni qanday tushunishning til haqidagi nazariyani yaratishda ahamiyati katta. Tilshunoslik fanining obyekti, predmeti va tilni ilmiy o’rganish metodlari kabi masalalar ma’lum darajada tilni qanday tushunishga bog‘liqdir. Tilshunoslik tarixida tilni turlich raqida qilingan va hozirgi kunda ham turli ilmiy maktablar va oqimlar orasida keskin bahslarga sabab bo‘ldi. Shuning uchun bu masalaning tilshunoslik

¹ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 17-24 p.

tarixi asosiy etaplarida qanday hal etilganligini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Tilshunoslik fanining predmeti, o'rganish manbai o'z ichki qonuniyatlariga ega bo'lgan murakkab tizim –tildir. Tilning o'ziga xos xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini o'rganish mazkur ijtimoiy hodisaga har tomonlama to'liq ta'rif berish imkonini yaratadi. Til umumiyligini qonuniyatga bo'ysunuvchi o'ziga xos ramzlar tizimi bo'lib, kishilik jamiyatidagi aloqa – munosabatning eng muhim quroli, fikr ifodasi hamda fikr yuritish asosi, voqelikni avloddan avlodga yetkazuvchi, insoniy kechinmalarni, his – tuyg'ularni ifoda etuvchi vositadir. Tilshunoslik tarixida tilga turlichalarda yondashuvlarni kuzatish mumkin.

XX asrdan boshlab tilshunoslik fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Hozirgi zamon tilshunoslik fanining asoschisi mashhur shveysariyalik olim F. de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F. de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchilar qatori tilning murakkab hodisa ekanligini aniqlagan holda yangi mukammal va aniq, shakllangan umumiyligini tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi.

Tilshunoslik fanining predmetini aniqlash va uni ta'riflashga intilgan F.de Sossyurning qarashlari tilshunoslik tarixidagi muhim masalalarni hal etishda sezilarli ta'sir ko'rsatdi. F.de Sossyur fikricha, til kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasiga ko'ra aloqa quroli, fikr ifodalash vositasidir; ijtimoiy tabiatni jihatidan til madaniy –tarixiy va ijtimoiy hodisa, ichki tuzilishiga ko'ra sofiy - ishoralar tizimidir.

Boshqa bir qator olimlar (A.Shleyxer, G. Paul, M. Myuller), tilshunoslik maktablari ("Yosh grammatikachilar" maktabi, Praga strukturalizmi, Kopengagen strukturalizmi, Amerika strukturalizmi) tilning asl mohiyatini ochib berish masalasiga o'z nuqtayi nazarlaridan yondashdilar. Ularning fikr - mulohazalari tilshunoslik sohasida erishilgan yutuqlardan hisoblansa-da, mazkur qarashlarning ba'zi jihatlari cheklangan edi.

Tilshunoslikning umumiyligini va xususiy tilshunoslik; nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik kabi qator bo'limlari mavjud bo'lib, tilning ayrim jihatlari asosida umumiyligini qoidalar chiqariladi.

Til - ijtimoiy hodisa. Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuzaga kelgan. Til - tabiiy, biologik hodisa emas; tilning mavjud bo'lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bo'ysunmaydi. Til butun jamiyat tarixi jarayonidagi tadrijiy davrlarning mahsuli sifatida umuminsoniy manfaatga xizmat qiladi.

Tilning mohiyati. Tilning mohiyati haqidagi qarashlar

Tilshunoslik tarixida tilning mohiyati haqida ikki qarama-qarshi fikr o'rtaSIDA kurash borgan. Bular:

1. Avgust Shleyxer (XIX asr) asos solgan tilning tabiiy hodisa ekanligi haqidagi fikr. Bu g'oyaga binoan til paydo bo'ladi, rivojlanadi, kezi kelganda yo'q bo'ladi, o'ladi. Bu fikrni olimlar quyidagicha dalillaydilar: lotin, sanskrit tillari o'lik tillar hisoblanadi, bu tillar xuddi tabiiy hodisalar kabi paydo bo'lgan, yashagan va o'lgan.

2. Materialistik tilshunoslik til tabiiy hodisadir, degan g'oyani rad etadi. Tilning paydo bo'lishi va taraqqiyoti insoniyat jamiyat bilan uzviy bog'langan. Jamiyatdan tashqarida yashagan inson bolasi gapirmaydi. Irsiyat qonuniga tilning aloqasi yo'q. Masalan, o'zbek farzandi ruslarning qo'lida tarbiyalansa, ruscha gapiradi. Demak, til ijtimoiy xarakterga ega, Chunki u jamiyat taraqqiyotidagi mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til jamiyat bilan paydo bo'lganidek, jamiyat bilan birga o'ladi.

Til – insoniyatning eng muhim aloqa vositasi. Aloqa boshqa vositalar bilan ham o'rnatilishi mumkin: Morze alifbosi, imo-ishora va boshqalar. Masalan, Afrikada uzoq masofaga axborot berish uchun qo'llanadigan nog'ora tovushlari, Kanar orollarida ishlataladigan —xushtak - til shular jumlasidandir. Boshqa aloqa vositalari tilga nisbatan yordamchi, ikkinchi darajalidir. Til va boshqa aloqa vositalarini birlashtiruvchi xususiyatlar quyidagilar:

- fikr va hissiyotni ifodalashi;
- ijtimoiy, chunki jamiyat tomonidan yaratilib, unga xizmat qilishi;
- moddiylik (tovush to'lqinlari, grafik chizmalar...);
- ob'ektiv borliqni aks ettirishi.

Ular orasidagi farqlar quyidagilar:

- til fikr va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita. Inson uni barcha faoliyatida qo'llaydi. Boshqa aloqa vositalarining ishlatalish ko'lami cheklangan, masalan, ko'cha harakati belgilari faqat haydovchilarga xizmat qiladi;
- til quruq axborotning o'zinigina bir shaxsdan ikkinchi shaxsga etkazmasdan, balki gapiruvchining bu axborotga munosabatini, uning xohish - istagi va bahosi, ruhiy holatini aks ettiradi.

- tildan boshqa hamma signal sistemalari sun'iydir, ular inson tomonidan yaratiladi va sharoitga ko'ra o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarni yaratishda hamma odamlar emas, mazkur sohani yaxshi biluvchi kichik bir guruh ishtirok etadi. Til odamlarning istak – xohishiga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari o'zgartirmaydi. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi. Til va jamiyat doimo bir – birini taqozo etadi. Boshqa signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Til o'ziga xos semiologik sistema (ishoralar sistemasi) bo'lib, jamiyatda asosiy va eng muhim fikr almashish quroli, jamiyat tafakkurining rivojlanishini ta'minlovchi, avloddan–avlodga madaniy–tarixiy an'analarni yetkazuvchi vosita xizmatini o'taydi.

Til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalash sira mumkin bo'limganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi. Fikr va so'z munosabati juda murakkab bo'lib, fikr so'zlarda o'z ifodasini topmaguncha, ya'ni so'zlardan tarkib topgan ifoda qolipiga tushmaguncha yuzaga chiqmaydi. Fikrning mohiyatini tashkil etadigan har qanday idrok ham faqat so'zlar vositasi bilangina namoyon bo'ladi. Til va tafakkur faqat kishilargagina xos bo'lib, bosh miyaning moddiyligi bilan bog'liqdir. Til va tafakkur bir narsa emas. Tafakkur tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni fikrning ma'lum bir shakliga solib, so'zlar, so'z birikmalari va jumlalar orqali ifodalaydi.

Til grammatikaning o'rganish manbai, tafakkur mantiqning o'rganish manbaidir. Til barcha uchun birday xizmat qiladi. Bir tilda gaplashuvchi jamiyat a'zolarining fikrlashlari bir xil bo'lmaydi.

Savol va topshiriqlar.

1. "Tilshunoslikka kirish" fani nimani o'rganadi?
2. Tilshunoslik bo'limlari haqida nima bilasiz?
3. F. de Sossyurning tilshunoslik fanda oldidagi asosiy xizmati namadan iborat.
4. Tilshunoslik faniga hissa qo'shgan qaysi olimlarni bilasiz?
5. O'rta osiyolik tilshunos olimlarining tilshunoslik faniga qo'shgan hissasi nimadan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

2-§. TIL VA JAMIYAT. SOTSIOLINGVISTIKA

Reja

1. Til va jamiyat. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq ekanligi.
2. O'zbek tili-ko'p dialektli til ekanligi.
3. Til taraqqiyotida differensiatsiya hodisasi.
4. Til taraqqiyotida integratsiya hodisasi.
5. Tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog'liqligi.
6. Sotsiolingvistka (ijtimoiy tilshunoslik) til fani sifatida.²

Til va jamiyatning o'zaro uzviy munosabatini sotsiolingvistika fani o'rghanadi. Tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi insoniyat jamiyati bilan mustahkam bog'liq. Til insoniyat tarixi qadar qadimiydir.

Umumiy til tushunchasining shevadan farqi bor: til butun bir xalqqa xizmat qiladi, sheva esa xalqning bir guruhi gagina taalluqlidir. Til ko'p vazifali, hamma uchun umumiy bo'lgan aloqa-munosabat vositasidir; sheva esa, vazifa nuqtai nazaridan chegaralangan bo'lib, tilning nutqiy ko'rinishini tashkil etadi.

Masalan, o'zbek tiliga qarluq-chigil-uyg'ur dialekti asos bo'lgan. Bu sheva Farg'ona, Toshkent, Samarcand-Buxoro shevalarini o'z ichiga oladi. O'zbek tili-ko'p dialektli til. Bu hol o'zbek tilining o'ziga xos murakkab tarixiy rivojlanish sharoiti va o'zbek millatining o'tmishdagi xilma-xil etnik tarkibi bilan izohlanadi.

Ta'kidlanganidek, til jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi, tilning grammatik qurilishi takomillasha boradi. Til taraqqiyoti jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog'langan. Kishilik tarixidan shu narsa ma'lumki, avval urug'dosh tili, keyin qabila tili, elat, xalq va millat tili shakllangan.

Dialektlar urug'chilik davridan boshlab, jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichiga qadar son jihatdan ko'payib boradi. Bu qabilalarning yashash tarzi bilan bog'liq. Avval bir qabila ittifoqiga kirgan tillar markazdan uzoqlashgan sari ulardagi dialektal farq orta boradi va bu dialektal farqlar oxir-oqibatda yangi til paydo bo'lishi uchun asos bo'ladi. Dialektlar sonining ko'payishi va ular asosida yangi-yangi tillarning vujudga kelishi til taraqqiyotining differensiatsiya jarayonini tashkil qiladi. Differensiatsiya tillarning dialektlarga parchalanishidir.

Har bir millat o'z adabiy tilining mustahkamlanishi uchun harakat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida dialektlar kamayib, adabiy tilga yaqinlasha borishi kuzatiladi. Buni adabiy til ta'sirining kengayishi bilan izohlash mumkin. Til taraqqiyotidagi bu jarayon integratsiya deb yuritiladi. Integratsiya bir tilga mansub shevalarning adabiy til me'yorlariga yaqinlashuvlidir. Bunday

² 1. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 97-p. 2. Ronald Wardhaugh. An Introduction to Sociolinguistics. Oxford: Blackwell.2006. 426 p.

jarayonlar tasodifan yuz bermaydi, balki jamiyat taraqqiyotiga, ijtimoiy hayotning taraqqiyot jarayonlariga bog‘liq tarzda sodir bo‘ladi.

Til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni, tilning falsafa, ijtimoiy psixologiya, etnografiya bilan bog‘liq jihatlarini o‘rganuvchi soha *sotsiolingvistka*³ (ijtimoiy tilshunoslik) dir. Sotsiolingvistika quyidagi masalalarni o‘rganadi:

1) jamiyat va til o‘zaro bog‘liq, mutanosib tarixiy jarayon, hodisadir.

2) jamiyat taraqqiy eta borgan sari tilning ijtimoiy vazifalari ham takomillashib boradi.

3) adabiy tilning, shevalarning lug‘at boyligi kengayadi, ortib boradi.

4) yashash muhiti yaqin, tur mush tarzi o‘xhash hamda o‘zaro iqtisodiy munosabatlari shakllangan xalqlarning tillari bir-biriga ta’sir ko‘satadi. Tillar leksik jihatdangina emas, balki grammatic jihatlariga ko‘ra ham ta’sirlashadi.

Dunyo tillarining, ma’lum ma’noda, o‘ziga xosligini yorituvchi, muayyan tilning boshqa tillardan farqli jihatlarini ko‘rsatuvchi tadqiqotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotlarning bosh masalasi til va jamiyat munosabati talqinidir. Tilning jamiyat bilan bog‘liq tomonlarini o‘rganish tilning o‘ziga xos ichki qurilishi, imkoniyatlarini yoritishda ahamiyatlidir.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti davomida aloqa-munosabat vositasi bo‘lgan tilning jamiyatga bo‘lgan nisbatini turlicha izohlashgan. Har xil fikrlar, turli nazariyalar vujudga kelgan. Ba’zi guruhlar tilni tirik organizm sifatida tushunishgan. Ba’zilari o‘zgarmas voqelik sifatida qarashgan. Bunday qarashlarni tanqidiy-tahliliy ravishda o‘rganib, quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Til tabiiy-biologik hodisa emas.

2. Tilning mavjud bo‘lishi va uning taraqqiyoti tabiat qonunlariga bog‘liq emas.

3. Til kishilarning tabiatiga, irqiga, nasliga aloqador emas.

4. Jamiyat bo‘lib uyushgan kishilargina aloqa-munosabat vositasi bo‘lgan tilga ega. Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi tarixiy-ijtimoiy tajribasi asosida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Til va jamiyat taraqqiyoti uzviy bog‘liqidir. Jamiyatda ro‘y beradigan har qanday voqelik, ma’lum ma’noda tilda o‘z ifodasini topadi. Tilning ijtimoiy tabiatini uning jamiyatda mavjud bo‘lishi hamda jamiyat manfaatlariga xizmat qilishida namoyon bo‘ladi.

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini tahlil qiluvchi asosiy soha hisoblanadi. Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda *tarixiylik, hayotiylik, me’yoriylik, hududiylik* kabi qator mezonlarga amal qiladi.

Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo‘lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichini o‘tishi kerak. Tilning paydo bo‘lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning *tarixiyligi* bilan bog‘liq.

Tilning *hayotiyligi* uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjuligidir. Til hayotiyligini yo‘qotsa, o‘lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo‘lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo‘ladi. Ba’zan o‘lik tillar qaytadan tirik tilga aylanishi mumkin, degan fikr ham mavjud va buning isboti sifatida ivrit tilini

³ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 97-p.

misol qilib keltirish mumkin. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatidagi ahamiyatini yo‘qotdimi, uni sun’iy ravishda tiklab bo‘lmaydi.

Sotsiolingvistikadagi ***me'yoriylik*** mezoni deyilganda tilning muayyan me’yorlar asosida muvofiqlashtiriluvu tushuniladi. Til grammatisiga oid qonun-qoidalarning yaratilishi me’ylashtirishning muhim omillaridan hisoblanadi. Me’ylashtirilgan til muayyan jamiyatning ehtiyoji uchun xizmat qiladigan, muayyan qonun-qoidalalar asosida muvofiqlashtirilgan milliy-adabiy tildir.

Hududiylit tilning ma’lum hudud bilan bog‘liqligini ifoda etadi. Hududiylit millat, elatga xos urf-odat, an'analar, tarixiy-etnik birlik va yagona davlat tizimining shakllanganligi bilan bog‘liq. Millatning, hududning, tarixiy-etnik asos va taraqqiyotning boshqa-boshqaligi tillar o‘rtasidagi farqlar uchun asos bo‘ladi. Millat va etnik asosning bir xil bo‘lishi hududning farq qilishidan qat’i nazar, aloqa-munosabat vositasining bir xil bo‘lishini ta’minlaydi. Masalan, o‘zbek va tojik tillarida har bir tilning o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi. Bir xil etnik asosga ega bo‘lgan o‘zbek va qirg‘iz tillari o‘rtasida fonetik, leksik, grammatic farqlar bor. Adabiy til va shevalar o‘rtasida ham tilning ichki tuzilishi bilan bog‘liq farqlar kuzatiladi.

Ijtimoiy tabiat va o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, tillarni quyidagicha guruhash mumkin.

Me’ylashtirilgan tillar adabiy til me’yoriga ega bo‘lgan tillardir. Bunday tillarga adabiy shakliga ega bo‘lgan barcha tillar kiradi. Adabiy til tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, o‘zgarib boradi.

Qadimiylit tillarning dastlabki taraqqiyoti davrida shakllangan, takomiliga yetgan, eng qadimiyl madaniy-ma’naviy yodgorliklar yaratilgan tillardir. Bu tillar keyingi davrlarda shakllangan bir qator tillar uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Qadimiyl tillar kishilik jamiyatining umumiyl taraqqiyoti uchun katta ahamiyat kasb etgan. Ma’lum davrda aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjud bo‘lib, keyingi davrlarda iste’moldan chiqa borgan. Natijada o‘lik tilga aylangan. Lotin tili qadimiyl tilning yaqqol namunasidir.

Mahalliy tillar kam sonli aholiga xizmat qiladigan tillardir. Mahalliy tillar o‘z yozuviga ega emas. Bunday tillar faqat og‘zaki shaklda mavjud bo‘lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi.

Kreol tillar Yevropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan muloqoti natijasida mahalliy aholi tillariga Yevropa tillari (fransuz, ingliz, portugal) xususiyatlarining singishidan hosil bo‘lgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida *giti-kreol*, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili bilan ispan tilining aralashuvidan *ispan-nauatal* kreol tili hosil bo‘lgan. Kreol tillarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda birdan ortiq tilning o‘ziga xos xususiyatlari yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Pijin tillar ham Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning aralashuvidan yuzaga keladi. Lekin pijin tillarida so‘zlashadigan jamiyat yo‘q (kreol til jamiyat uchun aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi). Pijin tillardan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalilanadi.

Sun’iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Polyak olimi L. Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili* sun’iy til hisoblanadi. Bu tilning lug‘aviy asosi Yevropa tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosida. Bu tilda mashhur asarlar tarjima qilingan. Radio eshittirishlar ham tashkil qilingan. Bu tilning keyingi taqdiri muayyan davr bilan bog‘liq.

Sotsiolingvistika til va jamiyat munosabatlarini tahlil qilar ekan, umumiylar xususiy qonuniyatlarga tayanadi.

XIX asrning o‘rtalarida tabiiy fanlarning rivojlanishi, Charlz Darvin ta’limotining vujudga kelishi bilan tilni tirik organizm deb tushunish kuchayadi.

Chunonchi, nemis tilshunoslari M. Myuller va A. Shleyxerlar shu nazariya tarafdoi edilar. To‘g‘ri, fiziologik jihatdan til umurtqali hayvonlarning, shu jumladan, kishilarning og‘iz bo‘shlig‘ida joylashgan harakatchan bir qismi. Lekin hayvonlar tili faqat ovqat yeyish, uning ta’mini aniqlash kabi ishlar uchun xizmat qiladi. Kishilar tili esa hayvonlarga xos xususiyatlardan tashqari, nihoyatda muhim vazifalarni, ya’ni kishilik jamiyatining aloqa vositasi—kommunikativ ijtimoiy vazifani bajaradi.

Shuni uqtirib o‘tish kerakki, insonning tabiiy-biologik xususiyatlari kishilik jamiyatidan tashqari, jamiyatga bog‘liq bo‘lmagan holda, masalan, yangi tug‘ilgan go‘dak hayotining takomili (nafas olishi, korishi, ovqat yeyishi, asta-sekin yurib ketishi va hokazolar) tabiat qonunlariga muvofiq holda taraqqiy etaveradi, o‘saveradi. Ammo til bunday tabiiy hodisa emas. So‘zlashish, fikrlash uchun kishilik jamiyatining bo‘lishi shart. Demak, aytilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkin: *birinchidan*, til tabiiy biologik hodisa emas; *ikkinchidan*, tilning mavjud bo‘lishi va uning taraqqiy qilishi tabiat qonunlariga bog‘liq emas; *uchinchidan*, til kishilarning tabiiy belgilariga (oq-qoraligi va boshqa irqiy belgilariga) bog‘liq emas; *to‘rtinchidan*, faqat jamiyat bo‘lib uyushgan insonlargina aloqa vositasi bo‘lgan tilga ega. Binobarin, til tabiiy-biologik hodisa bo‘lmay, kishilik jamiyatining eng muhim aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladigan, subyektga bog‘liq bo‘lmagan ijtimoiy hodisadir.

Dastlabki davrlarda, jamiyatning qarama-qarshi guruhlarga bo‘linishiga qaramay, til birgina guruh ehtiyojini qondirish uchun xizmat qilmadi, u jamiyat a’zolarining hammasiga bab- baravar xizmat qildi. Ishlab chiqarish jarayoni jamiyatdagi turli guruh odamlari bir-biri bilan aloqada bo‘ladilar, til esa ishlab chiqarishni uyushtirishda jamiyatning hamma sohalari rivojlanishida muhim aloqa vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Til kishilik jamiyatining asrlar davomidagi butun tarixiy jarayonida ma’lum bir guruh tomonidan emas, balki butun jamiyat va jamiyatning a’zolari tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy hodisadir. Shu bilan birga, til biror davrning, biror ijtimoiy-iqtisodiy jamiyatning mahsuli bo‘lmay, balki butun jamiyat tarixi jarayonidagi bir qancha davrlarning mahsuli bo‘lib, jamiyatdagи turli tabaqa vakillari uchun bab-baravar xizmat qiladi.

Faqat bir sinfga yoki bir guruhga xizmat qiluvchi til bo‘lmagan va bo‘lishi ham mumkin emas.

Shunday qilib, til guruh va tabaqlardan qat’i nazar, butun jamiyatga xizmat qiladi.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Tafakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o‘z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham tafakkur ham mehnat jarayonida kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari – fonema, morfema, so‘z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-tuyg‘u, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog‘liqdir.

Til alohida tizim sifatida quidagi vazifalarni bajaradi:

1. *Aloqa – munosabat vazifasi*. Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa – munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Til belgilari uni aloqa - munosabatning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Til aloqa – munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi har bir jarayon bilan muntazam bog‘liq. Kishilar o‘z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir – birlariga ta’sir ko’rsatadilar.

2. *Tilning hissiy ta’sir vazifasi*. Tilning muayyan ma’lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta’sir ko’rsatishi uning hissiy - ta’siriyl vazifasi hisoblanadi. Xabar, sezgi va hayajon, xohish ifoda qilish hissiy ta’sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bunda turli tasviriyl til vositalaridan, jumladan, modal so‘zlar, javob talab qilmaydigan so‘roq, tartibni o‘zgartirish kabilardan foydalaniadi.

3. *Tilning to‘plash vazifasi*. Til aloqa – munosabat vositasi, hissiy ta’sir ifodasi bo‘lib qolmay, to‘plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Til millatlararo aloqa - munosabat vositasi, to‘plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonidagi asosiy vositalardan hisoblanadi. Bevosita aloqa - munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo‘ladi. Mustaqil so‘zlar, qo‘shma nomlar, iboralar, atama nomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap ko‘rinishlari fikr ifodalovchi birlik hisoblanadi.

Tilning kishilik jamiyatidagi o‘rnini, madaniy – ma’naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyatini belgilash tilning asosiy vazifalarini to‘g‘ri ta’riflashga asoslanadi.

Bevosita aloqa – munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo‘ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda tarixiylik, hayotiylik, me’yoriylik, hududiylik prinsiplari.
2. Til birlklari deganda nimani tushunasiz.
3. Til tizim sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
4. M. Myuller va A. Shleyxerlarlarning til haqidagi nazariyani gapiring.
5. Tilning ijtimoiy tabiatiga ko‘ra turlariga izoh bering.
6. Til tizim sifatida qanday vazifalarni bajaradi?
7. Mahalliy til deganda nimani tushunasiz?
8. Kreol tillar nima?
9. Pijin til deganda nimani tushunasiz?
10. Sun’iy tillar, xalqaro tillar ga ta’rif bering.

11.Xalqaro esperanto tili

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
1. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
2. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
3. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
4. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent, 2002.
6. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
7. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
- 8.

3-§. TIL VA TAFAKKUR

Reja

1. Til va tafakkurning dialektik munosabati.
2. Tilshunoslik mantiq fani bilan aloqadorligi.
3. Til birlilari va mantiqiy birliliklar.
- 4.

Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadordir. Ularning aloqadorlik tamoni shundaki, har ikkisi ham tafakkur bilan bog'lanadi. Chunki tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan munosabatdadir. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vositadir. Til va tafakkur o'zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o'rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o'rtasida ham ana shunday aloqalar mavjud.

Mantiq – tafakkur shakllari qonunlari va usullarini o'rganadi. U inson fikrining aniq, ravshan, ketma-ket va asosli bo'lishini taminlaydi. Shunday ekan, mantiq tilshunoslikning grammatika bo'limi bilan bevosita munosabatdadir. Chunki tushuncha so'z va so'z birikmali orqali ifodalansa, fikr gap orqali ifodalanadi. Har bir kishi uchun grammatikani bilish qancha zarur bo'lsa, mantiqning shakl va qonunlarini o'zlashtirish ham shunchalik zarurdir.

Mantiq shakllari tushuncha, xulosalar hamma xalqlar uchun umuniy bo'lsa, ularning turli tillarda ifodalanish shakllari turli-tumandir. Shuning uchun ham har bir til boshqasidan farq qiladigan o'z grammatikasiga ega. Bu shuni ko'rsatadiki, mantiq bilan grammatika bir-biri bilan bog'liq, ular bir-birlarini to'ldiradi.

Tilshunoslikni u yoki bu fanlar sinfiga kiritishda bu fan o'rganadigan obyektining tabiatini asos qilib olinadi.

Til kishilarning eng muhim aloqa vositasi, bilimlarni saqlovchi va kelajak avlodga yetkazuvchi vositadir. Ana shu vazifalarini e'tiborga olganda, til-ijtimoiy hodisadir. Chunki u jamiyat uchun xizmat qiladi. Ikkinchidan ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan til muayyan fizik va fiziologik jarayonlar asosida moddiylashadi. Uchunchidan Til va tafakkur o'zaro ajralmasdir. Til fikrni, shakllantiruvchi va ifodalovchi moddiy vositadir. Bu jihatdan til va tafakkur muayyan shaklni o'zida namoyon etadi. Tilshunoslikni ana shu jihatdan mantiq, psixologiya fanlari tizimiga kiritish mumkin bo'ladi. To'rtinchidan til uzlusiz rivojlanib, takomillashib boruvchi hodisadir. Bu jihatdan u jonli organizmga o'xshaydi. Ana shu xususiyatlarini o'rganish jihatidan tilshunoslik biologiya fani bilan umumiyl belgilarga ega ekanligini isbotlaydi.

Kishilar odatda bir-birlari bilan til orqali munosabatda bo'ladi. Demak, til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, tilsiz fikrni ifodalab bo'limganidek, tafakkursiz til o'z ifodasini shakllantira olmaydi.

Fikr tilda voqelashadi, tilda mavjud bo‘ladi. Oningizda paydo bo‘ladigan fikrning mohiyatini, mazmunini tashkil etadigan har qanday idrok yoki tasavvur ham faqat so‘zlar vositasi orqali voqe bo‘ladi.

Til faqat kishilarga xos bo‘lganidek, tafakkur ham kishilarga xos bo‘lib, bosh miyaning moddiyligi va fiziologik vazifasi bilan bog‘liqdir. Lekin tafakkur bilan tilni aynan bir xil, bir-biriga o‘xshash narsa deb tushunish xatodir. Tafakkur – tashqi moddiy olamning kishilar miyasida aks etishining eng yuksak shaklidir. Til esa tafakkurni so‘zlar, so‘z birikmalari va jumlalar orqali ifolaydi. Til qonunlari bilan tafakkur qonunlari bir-biriga teng kelmaydi. Shuning uchun ham til grammatikaning o‘rganish obyekti hisoblansa, tafakkur mantiq ilmining o‘rganish ob’yektidir.

Til fikr ifodalashning muhim vositasidir. Taffakkur bilan tilning munosabati murakkab jarayondir. Til fikr ifodasi sifatida mavjud, o‘z navbatida fikr til asosida yuzaga keladigan murakkab jarayon. Til ham, tafakkur ham mehnat jarayonida, kishilik jamiyatida shakllangan.

Til birliklari - fonema, morfema, so‘z, gap bir butun holda, mantiqiy tushunchalar (his-sezgi, idrok, tafakkur) bilan uzviy bog‘liqdir.

Til va tafakkur. Til va tafakkurning bog‘liqligi

Insoniyat bilan birga paydo bo‘lgan til uning hayotida eng muhim rolni o‘ynab kelgan va bundan keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Til, eng avvalo, inson va uning tafakkuri shakllanishidagi zaruriy shartlardan biridir. Aniq nutqning paydo bo‘lishi insonning bilih, idrok qilish jarayonlarini tamoman o‘zgartirib yubordi. Til tufayli inson tafakkuri boyidi, moddiy dunyodagi narsa va predmetlarni ongi orqali idrok qilish, ular ustidan mulohaza yuritish, ularga oid fikrlarini so‘z bilan ifodalash imkoniga ega bo‘ldi. Til ilk boshdan e‘tiboran hech bir narsa bilan almashtirib bo‘lmaydigan xizmatni, ya‘ni inson tafakkurida umumlashtiruvchi vazifani bajarib keladi.

Psixologiyada ham insonning tafakkur faoliyati haqida aytilganda hissiy bilih bilan birga til va nutqning o‘zaro bog‘liqligi alohida ko‘rsatib o‘tiladi. Bunda inson psixikasi bilan hayvonlar psixikasi o‘rtasidagi asosiy farqlardan biri namoyon bo‘lishi ta‘kidlanadi. Hayvonlarning o‘ta oddiy, juda sodda tafakkuri hamma vaqt faqat hayoniy harakat tafakkuriligicha qoladi; ular hech qachon mavhum, bavosita bilih darajasiga etmaydi. Ularning, ya‘ni hayvonlarning tafakkuri ayni chog‘da go‘yo ko‘z o‘ngilarida turgan narsalarni bevosita idrok qilish bilan ish ko‘radi. Ana shunday jo’n tafakkur ayoniy harakat tarzidagi narsalar bilan munosabatda bo‘ladi va bunday hayoniy harakat doirasidan chetga chiqmaydi. Faqat nutq paydo bo‘lgach, bilinayotgan ob‘ektdan ma‘lum bir xususiyatni ajratib olib, uni maxsus so‘z yordamida tasavvurda yoki tushunchada mustahkamlash, qayd etish imkoniyati tug‘ildi. Tafakkur so‘zda o‘zining moddiy qobig‘iga ega bo‘ladi, tafakkur faqat so‘z orqali boshqalar uchun va o‘zimiz uchun ham bevosita reallikka aylanadi. Inson tafakkurini, u qanday shaklda amalga oshirilmasin, tilsiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Har qanday fikr nutq bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘ladi va rivojlanadi. U yoki bu fikr qanchalik chuqur va asosli suratda o‘ylangan bo‘lsa, u so‘zlarda, og‘zaki va yozma nutqda 14

shunchalik aniq hamda yaqqol ifodalangan bo'ladi. yoki, qandaydir fikrning so'z orqali ifodasi qanchalik ko'p takomillashgan, sayqallangan bo'lsa, ayni shu fikrning o'zi shunchalik yaqqol va tushunarli bo'ladi.

Kishi o'zining fikr-mulohazalarini boshqalar uchun ovoz chiqarib ifodalab berar ekan, buning bilan u shu mulohazalarni o'zi uchun ham ifodalaydi. Fikrni ana shu tarzda so'zlar orqali ifodalash, mustahkamlash, fikrni so'zlarda qayd qilish fikrni bo'lishni anglatadi, diqqatni mazkur fikrning turli o'rinalarda va qismlarida tutib turishga yordam beradi hamda fikrning qismlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon tug'diradi. Shu tufayli keng, izchil, sistemali mulohaza yuritish, ya'ni tafakkur jarayonida tug'ilgan hamma asosiy fikrlarni bir-biri bilan aniq va to'g'ri solishtirib ko'rish mumkin bo'ladi. Shunday qilib, so'zda, fikrni ifodalashda tafakkurning eng muhim zaruriy, mulohazali, mantiqiy bo'laklarga ajratilgan va anglashilgan tomonlari berilgan bo'ladi. Fikrni so'zda ifodalash va mustahkamlash orqali u yo'qolmaydi hamda paydo bo'lishi bilanoq o'chib qolmaydi. Fikr so'z iboralarida – og'zaki yoki yozma so'z iboralarida mustahkam qayd qilinadi. Shuning uchun, kerak bo'lganda, mazkur fikrga yana qaytish, uni yanada chuqurroq o'ylab, tekshirib ko'rish va qayta o'yash davomida boshqa fikrlar bilan solishtirib ko'rish imkoniyati saqlanib qoladi. Shunday qilib, inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqdir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir.

Ma'lumki dialektika kategoriyalarining uchinchi turkumiga bilish jarayonini aks ettiruvchi tushunchalar kiradi. Dunyoni bilish, idrok etish masalasi doimo falsafa fanining diqqat markazida bo'lib kelgan. Qadimgi faylasuflar ham dunyoni bilish mumkinligini e'tirof etib kelganlar. Xususan, o'rta osiyolik buyuk mutafakkirlar Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar ham o'z asarlarida dunyoni bilishning, bilish jarayonida hissiy organlar bilan aqlning roli haqida qimmatbaho fikrlarni ilgari suradilar.

Ingliz faylasufi Bekon ta'limoticha, bilish jarayoni fan va amaliyot bilan bog'liq bo'lishi va shularga bevosita xizmat qilishi kerak. Uning fikricha, ob'ektiv mavjudlik to'g'risidagi bilimlar sezgilarimiz orqali olingan dalillar tufayligina tafakkur yordamida to'ldiriladi. Fransuz faylasufi Dekart esa bilishning birdan bir manbai tafakkur deb biladi. Dekartning vatandoshlari Didro, Golbax, Gelvetsiyalar dunyonni bilish jarayonida sezgilarimiz bilan tafakkurning rolini tan olsalar-da, ularning o'zaro munosabatlarini to'la-to'kis ochib bera olmadilar. Tafakkur xususida bunday falsafiy fikrlarni ko'p keltirish mumkin. Lekin falsafada shunday fikr borki, bilish – inson tafakkuridagi voqelikning in'ikos jarayonidir. ²

Mantiq ilmida ham til va tafakkur munosabatlari alohida e'tibor berilgan. Unda tafakkurning muhim xususiyati sifatida uning til bilan bog'langanligi e'tirof etiladi. Unda ta'kilanishicha, inson tafakkuri uning tili bilan birga takomillashib rivojlangan. Tilda tafakkurning ish natijasi mustahkamlanadi. Til o'zining shu xislati bilan insonga bilim to'plashga, uni saqlashga, avloddan-avlodga uzatishga, to'plagan bilish boyliklaridan hayotiy faoliyatida unumli foydalanishiga yordam beradi. Shu bilan birga, til tafakkurni takomillashtirish, mavhumlashtirish, umumlashtirish va juz'iylashtirish qurolidir. Shuning uchun ham bizning

tafakkurimiz voqelikni bevosita aks ettirish vositasi bo'lgan sezgilardan til yordamida ifodalaniishi bilan farq qiladi.

Til va mantiq birliklarining o'zaro munosabati

Til va tafakkur reallikni bilish, boshqa insonlar bilan munosabatda bo'lish, ob'ektiv reallikka ta'sir ko'rsatish, har bir ishni oldindan o'ylab, ongli ravishda amalga oshirish kabilarda ko'rinvuvchi, umuman, inson faoliyatining ongli, maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi insongagina xos bo'lgan muhim xislatdir. Lekin amalda, hayotda, tarixiy jarayonda til va tafakkur har doim o'zaro ajralmas bo'lsa-da, ularni turli fanlar alohida o'rganadi. Masalan, tafakkur formalarini mantiq fani o'rgansa, til kategoriyalarini tilshunoslik fanlari tadqiq etadi. Tafakkur umuminsoniy bo'lsa, til, uning qonun-qoidalari milliy xarakterga ega. Dunyodagi tillar juda ko'p qonun-qoidalari ko'ra bir-biridan farq qiladilar. Tafakkur shakllari, tamoyillari esa, insonlarning millati, irqi, davridan qat'iy nazar, hammada bir xildir.¹ Demak, tafakkurning moddiy qobig'i tildir. Shunday ekan til bilan tafakkurni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Lekin ayrim tilshunoslар, xususan, N.Ya.Marr til bilan tafakkurni ajratib qo'ydi. U shunday yozadi: «Bo'lajak til tabiiy materiyadan xoli bo'lgan, texnikada o'sib borayotgan tafakkurdir». Bunda, albatta, tilning tafakkurdan ajratib qo'yilganligi ko'rinish turibdi. Go'yo kishilar kelajakda o'z qobig'idan xoli bo'lgan tafakkur bilan ish ko'ra berar emish. Albatta, bu fikrlar bundan 70-80 yil muqaddam aytilgan. Bizningcha, N.Ya.Marr texnika taraqqiyotini o'z ko'rishlariga ko'ra baholagan bo'lishi mumkin. Lekin bugungi axborot texnologiyalari o'ta taraqqiy etgan davrda ham til bilan tafakkur bir-biridan aloqasini uzgan emas, aksincha, yanada yaqin munosabatda bo'lmoqda. Buni biz ko'rib, sezib turibmiz. Tabiat va jamiyatda inson tiliday murakkab, serqirra, serqatlama, servazifa, shakl va mazmun munosabati murakkab hodisa kamdan-kam topiladi. Til dunyonи bilish, bilimlarni to'plash, saqlash, keyingi avlodlarga etkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go'zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajarishiga qaramasdan, asosiy e'tibor uning kishilar o'rtasidagi aloqani ta'minlash vazifasiga qaratib kelindi. Tilni faqat kishilar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatidagina talqin etish insonning tabiiy tilini, bu benihoya murakkab hodisani, eng kami, jo'nlashtirishdan, aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mutlaqo ayrilgan sun'iy tilga tenglashtirishdan, yo'l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli «til»ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas. Agar til faqat aloqa vositasigina bo'lganda edi, u juda oddiy, sodda va qashshoq bir narsaga aylangan bo'lardi.² Holbuki, til bemisl boy, sechu sinoatga, ruhu ruhoniyatga, ko'rku komillikka limmo-lim bir ne'matdir.

O'zaro fikr almashish va uni kelajak avlodlarga etkazuvchi vosita sifatida milliy madaniyatning shakllaridan biri bo'lgan til ong va tafakkur bilan uzviy bog'langandir. Ushbu matnda qo'llangan «fikr», «tafakkur» va «ong» terminlarini ko'p hollarda sinonim sifatida ko'ramiz. Aslida ularning har biri ma'no ifodalash doirasiga ko'ra bir-biridan farqlanadi. Xususan, ong – voqelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi. Fikr – tafakkurning aniq bir natijasi. Tafakkur - o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Demak, tafakkurni so'z boyligi vositasida ifodalashda asosiy vazifani til

bajaradi. Albatta, har bir inson tafakkuridagi fikrlarni ifodalashda shu inson nutqining naqadar takomil topganligi muhim sanaladi. Chinakam nutq madaniyati shu tilning butun boylik va go'zalliklaridan foydalana olish, uni ne'mat sifatida idrok etish asosida shakllanadi. Aniqki, nutq madaniyati jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim belgisidir. Haqiqiy ma'nodagi madaniy nutq shaxs umummadaniy saviyasining favqulotda muhim unsurlaridan biridir. Shuning uchun ham mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'naliishi deb e'lon qilingan bugungi kunda nutq madaniyati masalalari, farzandlarimizning nutqiy madaniyat ko'nikmalari va malakalarini oshirish, ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida madaniy nutq muammolarini yetarli darajada nazarda tutish har qachongidan ham dolzarblik kasb etganligi beziz emas. Respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan «Davlat tili haqida», «Ta'lim to'g'risida»gi qonunlar, «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» va boshqa juda ko'plab hujjatlarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, til masalalariga alohida e'tibor berilgan. Fikrni o'z ona tilida mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda etish uchun odamda nutqiy madaniyat yetarli darajada shakllanishi kerak, busiz, zotan, ona tiliga sohiblik degan tushuncha ham ma'noga ega emas. Chunki nutq madaniyati tildan bemalol va maqsadga o'ta muvofiq tarzda foydalana olishni ta'minlaydigan ko'nikma, malaka va bilimlarning jami demakdir.

Inson tafakkurining mahsuli yoki fikrni so'z orqali ifodalash qobiliyati, mahorati sanalgan nutqning madaniyligini ta'min etuvchi to'g'rilik, aniqlik, mantiqiylik, ifodalilik, rang-baranglik, soflik kabi bir qancha sifatlar mavjud. Ana shu kommunikativ sifatlarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan nutq madaniy hisoblanadi .

Til va tafakkur o'z birliklarining ahamiyati va qurilishi nuqtayi nazaridan farqlanadi. Tafakkurning maqsadi yangi bilimlarni olish va ularni sistemalashtirishdan iborat bo'lsa, til fikrni shakllantiradi, mustahkamlaydi va uni boshqa ob'ektga yetkazadi. Boshqacha aytganda, biz bilish va tushunish uchun fikrlaymiz, fikrimizni, istak va hissiyotlarimizni ifodalash uchun esa gapiramiz. Tilning asosini uning grammatik qurilishi, so'z yasash va gap tuzish qoidalari tashkil etib, ular fikrni aniq ifodalash hamda tushunarli tarzda yetkazishga xizmat qiladi. Bir so'z bilan aytganda, fikr tilda so'zlar vositasida shakllanadi. Ongimizda shakllanadigan har qanday fikrning mohiyati, mazmunini tashkil etuvchi idrok 17

yoki tasavvur faqat so'zlar vositasidagina voqelanadi. Demak, inson tafakkurining mahsuli til orqali namoyon bo'ladi.

Savol va topshiriqlar

1. Til fikr ifodalashning muhim vositasi sifatida.
2. Tafakkur qaysi fanda o'rganiladi?
3. Til qaysi fanlarning o'rganish ob'ekti sanaladi?
4. Til birliklarining mantiqiy birliklar bilan aloqasi haqida gapiring.
- 5.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

4-§. TIL VA NUTQ MUNOSABATI

Til va nutq hodisalarini o‘zaro farqlash ularning munosabat mohiyatini o‘rganish arab tilshunosligida VIII-IX asrlardayoq mavjud edi. Mazkur tushunchalarning munosabat shakli hozirga qadar dunyo tilshunoslaring diqqatini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Smernitskiy A. I., Panfilov V.Z., Melnichuk A.S., Solnsov V.M. kabi Praga tilshunoslari sistem tilshunoslik taraqiyotiga ulkan hissa qo‘sib, til va nutq munosabati tarixi xususida o‘z mulohazalarini bildirgan edilar. Lekin til va nutq hodisalarini va ularga xos birliklarni tom ma’noda ilmiy-nazariy hamda amaliy farqlash; «til» va «nutq» tushunchalariga batamom yangi ma’zmun berilishi F.de Sossyur va uning izdoshlari yaratgan ta’limot bilan boqliqdir. Til va nutq maslalariga munosabat dunyoning muayyan taraqqiyot darajasidagi tillarda o‘ziga xos tarzda talqin qilinmoqda. Jumladan, hozirgi o‘zbek tilshunosligida o‘zaro dialektik bog‘liq bo‘lgan til va nutq hodisalarining farqiga oid ayrim fikrlar bayon qilinayotgan bo‘lishiga qaramay, bu masalaning hal qilinishi lozim bo‘lgan jihatlari ko‘p.

Tilshunoslik boshqa fanlardan ajralib, o‘zicha a’lovida mustaqil fan deb tanilgan davrdayoq, til va nutqni fariqlashga e’tibor berilgan edi. Ammo fan taraqqiyoti tarixi davomida hamma sohada ham til va nutq bir-biridan farqlanavermaydi. Shuning uchun, ko‘pincha nutqqa xos hodisalar til hodisasi sifatida talqin qilinib keldi.

Keyingi davrlarda til bilan nutqni farqlab yondashish o‘zbek tili tadqiqotlari uchun asos qilib olina boshlagani nutq tovushi va fonema, fonetik va fonematik o‘zgarishlar, leksema, leksik va situativ nominatsiya, qurilma va ularning yuzaga chiqishi, lug‘aviy birliklarning makro va mikro tekstdagi xususiyatlarini, o‘zbek tili sintaksisi sathida mohiyat va hodisa kabi masalalarni atroflicha chuqrur tadqiq etish imkonini yaratmoqda.

Til va nutq tushunchalarining tarixiy taraqqiyotdagi madaniy xizmati cheksiz. Biroq, tilning ifoda imkoniyatlari nutq orqali, nutq jarayonida ochiladi. Nutq bo‘lmas ekan, tilning cheksiz imkoniyatlari yuzaga chiqmay qolaveradi.

Buyuk mutaffakirimiz Alisher Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida til va nutq munosabatlarini shunday ifodalaydi:

«Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir, agar nutq noma’qul bo‘lib chiqsa tilning ofatidir».

Nutqiy faoliyat natijasida nutq shakllanadi, nutq elementlardan tuziladi va til elementlariga ajralib ketadi. Til elementlari esa nutq faoliyati uchun xizmat qiladi. Lekin bu xulosa F.de Sossyurning fikrini qisman rad etadi. U «avval nutq faoliyati yuz beradi, undan til yuzaga keladi, tildan nutq hosil bo‘ladi», degan «o‘tish» tartibi haqidagi fikrini ilgari surgan hamda til va nutq dixotomiyasini shatranj o‘yini qoidalari misolida tushuntirib berishga harakat qilgan edi.

Haqiqatan ham shatranj taxtasidagi 64 katak teng holatda 2 xil rangda, 2 guruhga 32 tadan ajratilib qarama qarshi qo‘yiladi, har 2 guruhdagi donalarning vazifasi va qiymati jihatidan bir-biriga teng, donalarning o‘ziga xos joylashish tartibi va yurish qoidalari bir xil; shatranj o‘yini qoidalari o‘yinchilar uchun majburiy, avvaldan ma’lum bo‘lib, ular doim o‘yinchilar xotirasida saqlanadi. Har

ikkala o‘yinchi bir xil imkoniyatlarga ega bo‘lib shatranj o‘yini qoidalariga bir xil bo‘ysunsa ham o‘yinchilarning o‘zлari imkoniyatlaridan foydalanish mahoratiga ko‘ra biri kuchli, biri kuchsiz mavqeda bo‘ladi. Qaysi biri shatranj imkoniyatlarini o‘z maqsadi yo‘liga izchillik bilan bo‘ysundira olsa, u shu imkoniyatlardan foydalana olmagan raqibini yengadi.

Lekin Sossyur shatranjda durang holatlari ham bor ekanligini e’tiborga olmagan. Demak, u ta’riflagan harakatda kuchlar tengligiga e`tibor berilmagan. Shuning uchun bu tasavvur bugunga kelib o‘zini oqlamay qo‘ydi.

Shunday ekan til va nutq, Sossyur ta’riflaganidek, bir-biriga zid tushuncha bo‘lgani holda (Sossyur bu o‘rinda bir-birini taqozo qiluvchi zidlikni nazarda tutgan, deb hisoblansa), bir-biriga bog‘liq ravishda bir birini talab qiladi, to‘ldiradi. Hozirgi davr sistem tilshunosligida til va nutq oppozitsiyasidan kelib chiqib, nutq faoliyati quyidagi 3 tarkibiy qismidan iborat deb hisoblanadi.

1. Til;
2. So‘zlash qobiliyati (tildan foydalanish ko‘nikmasi va malakasi);
3. Nutq;

Til deganda ma’lum bir jamiyatning barcha a’zolari uchun avvaldan tayyor holga keltilrilgan, hamma uchun umumiyl, qabul qilinishi majburiy, fikri shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar va shu birliklarning o‘zaro birikishi va bog‘lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig‘indisi tushuniladi.

So‘zlash qobiliyati tushunchasi ostida ma’lum bir jamiyatga mansub shaxsning, shu jamiyatga mansub tildan ogohligi, uning imkoniyatlaridan foydalana olish ko‘nikmasi va darajasi anglashiladi.

Nutq esa yuqorida ta’riflangan tilning til qobiliyati asosida ayrim shaxs tomonidan so‘zlash qobiliyati ko‘magida ma’lum bir kommunikatsiya maqsadi uchun ishga solinish yoki qo‘llanish natijasidir. Shu nuqtayi nazardan til va nutqning bir-biriga xos bo‘lgan mavhum-konkret tarzdagi korrelyat nisbiy mustaqil birliklariga e’tibor qaratamiz.

Til birliklari	Nutq birliklari
fonema	fon
morfema	morf
leksema	leks
konstruksiya (model)	so‘z shakli; so‘z birikmasi; gap; mikrotekst, makrotekst

Bu birliklar o‘z navbatida ma’lum vazifa va funksiyaga ega, bir-biridan amaliy jihatdan farqlanadi. Ba’zan esa bir-birini to‘ldiradi.

Til va nutq orasidagi dialektik aloqa va munosabat haqida aytilgan fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Til	Nutq
Umumiyl	Xususiylik
Imkoniyat	Voqelik
Tayyorlik	Hosilalik

Majburiylik	Ixtiyorilik
Birliklari chegaralangan	Birliklari chegaralanmagan

Til va nutq munosabatlarini umumiy tarzda quyidagicha izohlash mumkin.

Til va nutq o‘zaro aloqador hodisalar sifatida e’tirof etilgan. Til ijtimoiy, nutq xususiy hodisa. Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodalanadi. Til va nutqning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi.

1. Til- munosabat asosi; nutq munosabat ifodasidir.
2. Til jamiyatda shakllangan; nutq esa har bir shaxs faoliyatida namoyon bo‘ladi.
3. Tilning mavjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan bog‘liq; nutqning mavjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud.
4. Bir shaxs ayni zamonda bir necha tilga ega bo‘la oladi; shaxsning nutqi esa faqat bitta bo‘ladi, negaki nutq ma’lum vaqtida va ma’lum makonda yuz beradi.
5. Tilning hajmi noaniq, chegaralanmagan; nutqning hajmmi aniq: u dialog, monolog, ayrim matn, kitob ifodalari bo‘ladi.
6. Til qat’iy, turg‘un hodisa; nutq o‘zgaruvchan harakatdagi hodisadir.

Nutq jarayoni va so‘zlash faoliyatini psixologik tilshunoslik o‘rganadi. Psixologik tilshunoslik ham boshqa sohalar qatorida nutqni til bilan uzviylikda talqin etadi.

Til ma’lum miqdordagi nutq tovushlarining turli kombinatsiyasi bilan kishilar bir-birlariga bildiradigan so‘zlar, grammatik vositalar va ulardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan, degan fikr XIX asrning birinchi yarmidayoq qiyosiy grammaticachilar tomonidan ilgari surildi. Hozir ham tilni shu xilda tasavvur qiladilar.

Ma’lumki, til o‘ziga xos strukturaga ega bo‘lgan sistemadir. Til bir-birining mavjudligini talab qiladigan, bir-biridan ajralmas holda ikki elementdan tashkil topgan. Bular: A. Leksika, yani lug‘at sostavi. B. Grammatika. Ularning har biri nutq tovushlaridan iborat bo‘lgan materiyaga ega.

Til va nutqiy faoliyat

Til va nutqiy faoliyat o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rib chiqishdan avval til va nutqqa qisqacha ta‘rif berib o‘tamiz. **Til - imkoniyat sifatida aloqa-aratashuv, fikr almashuv quroli. Nutq - tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish ususli, jarayoni.** Demak, bu tushunchalar bir-biridan farqli va mohiyatan o‘ziga xos tushunchalar ekan. Til o‘rnida nutqni, nutq o‘rnida tilni tushunishimiz xato hisoblanadi.

Til va nutq o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganish hozirgi zamon tilshunosligining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu masala alohida bir milliy tilni yoki umuman tillarni nazariy ta‘riflashdagi boshlang‘ich nuqtadir. Til va nutq hodisalarini farqlash aksariyat tilshunoslar tomonidan tan olinadi, ammo ularning mohiyatini, chegarasini aniqlash mezonlari haqidagi fikrlar turli-tuman.

F. de Sossyur til va nutqni nutq faoliyatining ikki ajralmas bo'lagi deb hisoblab, ularni «bir paytning o'zida fizik, fiziologik va psixik, bundan tashqari, individual va ijtimoiy munosabatlarga daxldor» jarayonlar deb ta'riflagan edi. 2 Til, Sossyurning fikricha, nutq faoliyatining ijtimoiy va psixik tomonlaridir, nutq esa uning individual va psixofizik tomonlari, yoki «odamlar nimani gapirsa, o'shalarning yig'indisidir».

«Til faoliyat mahsuli emas, balki faoliyatning o'zidir» degan g'oyani ilgari surgan V.fon Gumboldtdan farqli o'laroq, Sossyur «til faoliyat emas, balki so'zlovchi tomonidan passiv qayd qilinadigan tayyor mahsulot, nutq mahsulidir» deydi. Uning ta'kidlashicha, «tilning voqeligi, o'z tabiatiga ko'ra nutqqa nisbatan kam emas».

A.I.Smirniskiy til va nutq munosabatlarini tahlil qilar ekan, nutqiy faoliyat tushunchasini chetlab o'tadi, ammo u Sossyurga qaraganda umumiy insoniyat nutqi tushunchasiga ko'proq mazmun bag'ishlashga harakat qiladi. Jumladan, olim nutq quyidagi shakllarda mavjudligini alohida ta'kidlaydi:

- 1) tashqi tovushli belgili og'zaki nutq;
- 2) tashqi grafik belgili yozma nutq;
- 3) hech qanday real belgilarga ega bo'limgan botiniy nutq .

A.I.Smirniskiyning fikricha, nutqning og'zaki va yozma shakllarda mavjud bo'lishi uning ob'ektiv tomonini tashkil etadi va ular tashqi nutqqa tegishli bo'ladi, ichki nutq esa faqat sub'ektiv shaklda mavjud bo'ladi va tafakkurdagi fikrni ifodalaydi. Shuningdek, «inson nutqi son-sanoqsiz va cheklanmagan miqdordagi turli-tuman nutqiy harakatlar natijasidir» va uning turlicha ko'rinishida aynan bir xil komponentlar va bu komponentlarning qo'llanishidagi qonuniyatlar aniqlanadi.

Turlicha nutq bo'laklarining majmuasi va bu komponentlarning ishlatalishi to'g'risidagi qonuniyatlar va qoidalar umumiylidka muayyan bir sistemani tashkil qiladi, ya'ni o'zaro bir-birlariga bog'langan birliklar majmuasini va ular orasidagi munosabatlarni hosil qiladi. Birliklarning bunday tizimi tildir.1 Olimning fikricha, nutq umuman olganda «tadqiqot uchun xom materialdir», til esa bu «materialga asoslangan tadqiqot predmetidir».

F. de Sossyur va A.I.Smirniskiylar faqat bir masalada hamfikrdirlar, ya'ni til nutqdan hosil bo'ladigan mahsulotdir va u tilshunoslar uchun ilmiy tadqiq predmetidir.

Ayrim tadqiqotchilar til va nutq munosabatiga boshqacha yondashadilar. Ularning fikricha, nutq tildan hosil bo'ladi, ya'ni til mutaxassislarning lingvistik faoliyatining natijasi emas, balki nutqda o'z ifodasini topadigan ob'ektiv mavjud hodisadir.

Masalan, T.P.Lomtevning fikricha, «Til shunday ma'no-mazmunni anglatadiki, uning mavjud bo'lishi va ifodalanishi nutq orqali amalga oshadi». 2 O'zbek olimi Sh.Rahmatullaev ham xuddi shunday fikrni bildiradi. Uning ta'kidlashicha, til nutq uchun xomashyo bo'lganidek, nutq ham til uchun xomashyo vazifasini o'taydi. 3 Olimning fikricha, chaqaloq tug'ilganda uning til zahirasi bo'sh bo'ladi va u atrofdagilarning nutqi hisobiga boyib boradi. Biz bu fikrni ma'qullaymiz, ya'ni til va nutq o'rtasida qarama-qarshilik emas, balki o'zaro aloqadorlik mavjud deb hisoblaymiz.

O'rganilayotgan masala bo'yicha bildirilgan turli-tuman nuqtai nazarlarni umumlashtirib, shuni aytish mumkinki, til nutqiy faoliyatning ko'chmasidir, biroq turli tushunchalarni ifodalovchi bu atamalar turli ma'nolarda ishlatalib kelinmoqda. Til bir tomondan nutq hosil qilinadigan va tushuniladigan qurilma sifatida talqin qilinsa, ikkinchi tomondan, mutaxassislar nutq faktlaridan xulosa qiladigan qoidalar tizimi, birliklar majmuasidir. Bu tushunchalarning har ikkalasi ham o'zaro bir-birlariga bog'liqdir, chunki til qurilma sifatida mohiyatni anglatadi, bu mohiyatni unda mavjud bo'lgan qoida va birliklar orqali bilish mumkin.

Nutq, birinchidan, fikr-mulohaza bildirish jarayoni, ikkinchidan, u til qurilmasi faoliyati natijasidir.

Til va nutq haqida bildirilgan bunday fikrlarga asoslanib xulosa qilish mumkinki, ular o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi hodisalardir va ayni paytda, ular o'rtasida muayyan farqlar ham mavjudki, bularni alohida eslatish lozim bo'ladi. Ularni quyidagi jadvalda ko'rsatish mumkin.^{4 19}

TIL

Til potensial hodisa bo'lib, kishilar ongida bolalikdan o'zlashtirilgan gapirish qobiliyati va nutq orqali ifodalangan fikrni tushunish vositasi sifatida mavjud bo'ladi.

Til umumiyligi va ijtimoiy xususiyatiga ega

Til birliklari va qoidalar vaziyatga bog'liq emas. Ular nutqiy birliklarni tashkil qilish vositasi bo'lib xizmat qiladi va o'z navbatida so'zlovchidan muloqot vaziyatidagi ekstralivingistik shart-sharoitlarga moslashuvni talab qiladi.

Til ko'p o'lchamli hodisadir. Uning birliklari o'rtasidagi bog'liqliklar, aloqalar ham turli-tumandir. Til birliklari o'rtasida bunday munosabatlarning mavjudligi uni yaxlit bir butunlikka, sistemaga aylanishga olib kelgan.

Til – munosabat asosi

Til jamiyatda shakllangan

Tilning mavjudlik davri uzoq, ijtimoiy hayot bilan bog'liq

NUTQ

Nutq mavjud imkoniyatni voqelantirish va so'zlashuv qobiliyatini aniq muhitda amalga oshirish jarayonidir.

Nutq har bir alohida kishini individ va shaxs sifatida xarakterlovchi eng samarador vositalardan biridir. U tilga nisbatan individual munosabatdagi hodisadir.

Nutq hamma vaqt ma'lum maqsadga yo'naltirilgan va vaziyatga bog'liqdir

Nutq ketma-ketlik xususiyatiga ega, ya'ni u ma'lum zamonda (og'zaki nutq) va makonda (yo'zma matn) amalga oshirilishi mumkin. Nutq elementlari ifodalananayotgan fikr kechishiga qarab jumlalar matnda ma'lum bir tartibda ketma-ket joylashadi.

Nutq munosabat ifodasidir

Nutq har bir shaxs faoliyatida shakllanadi

Nutqning (og'zaki) mavjudlik davri qisqa, u aytilgan paytdagina mavjud

Tilning hajmi noaniq, Nutqning hajmi aniq: u dialog, chegaralanmagan monolog, ayrim matn va b. ko‘rinadi.

Savol va topshiriqlar

1. Til va nutq tushunchalariga tarif bering.
2. Til va nutq birliklarini sanang va izohlang.
3. Til va nutq tushunchalarini farqlab ilmiy izohini bergen tilshunos olim haqida gapiring.
4. Nutq faoliyatni nima?

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

5-§. TIL –RAMZLAR TIZIMI

REJA

1. Til ijtimoiy hodisa sifatida
2. Tilning ichki qurilishi.
3. Tillarning fonetik tuzilishi, grammatik qurilish va lug‘at tarkibi.
4. Fonetik-fonologik sath.
5. Lug‘at sathi.
6. Grammatik sath.

Har qanday til fonetik tuzilish, grammatik qurilish va lug‘at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o‘zaro bog‘lanib, butun bir tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog‘langan tizimni tashkil etadi. Tilning rivojlanishi, ichki qurilishi, tilning murakkab tizim ekanligi I.A. Boduen de Kurtene, H.B. Krushevskiy, F.F. Fortunatov, V.A. Bogoroditskiy, A.A. Potebnya, A.A. Shaxmatov, S.P. Obnorskiy, V.V. Vinogradov, A.M. Peshkovskiy, L.V. Sherba kabi tilshunoslarning asarlarida yoritilgan. Ichki qurilishi jihatidan til ma’lum miqdordagi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan til birliklarining yig‘indisi va ana shu birlıklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir.

Til inson hayotida muhim rol o‘ynaydigan hodisadir. Kishining butun hayoti til bilan bog‘langan bo‘lib, til yordamida kishilar o‘zaro fikr almashish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shu bilan birga, inson tili nihoyat darajada murakkab, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan sifatlarni o‘zida mujassamlashtirgan hodisadir. Til kishilik jamiyatida eng muhim aloqa quroli bo‘lib, insoniyatning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti jaroyinida yaratilgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarni saqlaydigan va avloddan-avlodga yetkazib beradigan asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Tilning tabiatni, mohiyati, kishilik jamiyatida bajaradigan vazifasi kabi muhim masalalar ilmiy o‘rganishni talab qiladi.

Tilshunoslik fanining tarixida tilning tabiatni, ijtimoiy mohiyati kabi eng muhim masalalarini o‘rganishda turli nazariyalar va oqimlar mavjud bo‘lgan. **A.Shleyxer** tilning tabiatni, tilning biologik tabiatni to‘g‘risida, **G.Paul** til faqat individga xos hodisa ekanligi haqida, **Vundt** xalq psixologiyasi bilan til o‘rtasidagi munosat to‘g‘risida ilmiy ishlar olib borishgan va bir qancha asarlar yozishgan.

Tilning belgilari uni aloqaning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida xarakterlash imkonini beradi. Umuman, til kishilik aloqa-munosabatining eng muhim vositasi sifatida jamiyat bilan uning madaniyati, turmush va mehnat faoliyatida tildan keng va har tomonlama foydalanib kelayotgan barcha a’zolari bilan uzviy aloqada bo‘lib kelmoqda. Tilning jamiyatdagi bu vazifasini uning jamiyat, kishi ongi va fikrlash qobiliyati bilan aloqasini aniqlamay turib, til sistemasi, uning birliklari va kategoriylarini chuqur anglab bo‘lmaydi. Kishilar o‘zaro aloqada o‘z fikrlarini, istaklarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir-birlariga ta’sir qiladilar, bir-birlarini tushunadilar. Tilning jamiyatda aloqa quroli vazifasini bajarishi uning kommunikativ funksiyasidir. Bundan tashqari til ekspressiv va akkumulyativ funksiya bajaradi.

Til boshqa kishilar bilan muomala qilish ehtiyoji tufayli paydo bo‘lgan. Bu ehtiyojning kishilar jamiyat sohalari va inson faoliyatida yuz beradigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi tilda, birinchi navbatda, tilning lug‘at qismida o‘z aksini topadi. Demak, til tabiiy va biologik hodisa emas, tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tabiat qonunlariga bo‘ysunmaydi.

Tilning ijtimoiy tabiatini uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning taqdiri ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liq.

Til ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy-biologik va fiziologik xususiyatlari(ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanisi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bog‘liq bo‘limgan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so‘zlashish va fikrlashish uchun kishilik jamiyatni bo‘lishi shart. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o‘laroq, kishilik jamiyatni tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Ko‘rinadiki, til o‘z tabiatiga ko‘ra ijtimoiy hodisadir.

Tilshunoslik fanining asosiy muammolaridan biri tilning ichki qurilishini o‘rganishdir. Har qanday til fonetik tuzilishi, grammatik qurilish va lug‘at tarkibidan tashkil topadi. Tilning ushbu tarkibiy qismlari muayyan qonuniyatlar asosida o‘zaro bog‘lanib, butun tilni hosil qiladi, til mazkur birikmalar negizida uzviy bog‘langan tizimni tashkil etadi. Ichki qurilishi jihatidan til ma’lum miqdordagi o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan til birliklarining yig‘indisi va ana shu birliklardan foydalanish qoidalaridan tashkil topgan murakkab tizimdir. Til tizimini tashkil etuvchi birliklarning o‘zaro munosabati va bog‘lanish qonuniyatlar murakkab hamda ko‘p qirralidir. Garchi til yaxlit tizim bo‘lsa-da, bu tizim o‘ziga xos jihatlarga ega bo‘lgan, til tizimining tarkibiy qismlari hisoblangan sathlar birligan iborat. Har bir sathning o‘z birliklari va tushunchalari bo‘lib, ular bir-biridan farqlanib turadi. Masalan, fonetik-fonologik sath lug‘at sathidan, lug‘at sathi grammatik sathdan farqlanadi. Ammo, ushbu sathlar o‘zaro bog‘liq ravishda butun til tizimini tashkil etadi. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

7. Fonetik-fonologik sath.
8. Lug‘at sathi.
9. Grammatik sath.

Fonetik-fonologik sath.

Tilning bu sathi til tizimidagi nutq tovushlarini o‘rganadi. Fikr almashish uchun foydalanimadigan so‘zlar va gaplar, albatta, tovushlar tizimida o‘z ifodasini topadi. Tilning tovush tizimini turli tomondan o‘rganish mumkin, chunki nutq tovushlari o‘z tabiatiga va til tizimida bajaradigan funksiyasiga ko‘ra murakkab hodisadir. Inson nutqining tovushlari fizik xususiyatlariga ko‘ra tabiatda paydo bo‘ladigan tovushlarning bir turidir. Shuning uchun tovushlar tizimini o‘rganishda akustik nuqtayi nazardan ham yondashiladi. Ammo, inson foydalanadigan tovushlar, tabiatdagi boshqa tovushlardan farqli o‘laroq, kishining nerv sistemasi tomonidan boshqarilib turadigan nutq organlari mahsulidir. Shuning uchun, tovushlar fiziologik nuqtayi nazardan ham o‘rganiladi. Nihoyat, tovushlarni tildagi bajaradigan funksiyasi nuqtayi nazardan ham o‘rganish mumkin, chunki tovushlar

tilda o‘z holicha mavjud bo‘lmaydi. Ular so‘zlarni yasashda va fikr almashish vositasini ta’minlab berishda muhim rol o‘ynaydi. Tovushlarning fizik va biologik xususiyatlarini fonetika fani o‘rganadi. Tovushlarning til tizimida bajaradigan funksiyalarini esa fonologiya o‘rganadi. Fonetikaning bir necha ko‘rinishlari bor: *nazariy fonetika, amaliy fonetika, segmental, supergmental fonetika va fonologiya*.

Fonetikaning to‘rtinchi asosiy sohasi hisoblanmish fonologiya alohida fan sifatida qaraladi.

Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo‘lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog‘liqdir. Nutq fonetik jihatdan *fraza, takt, bo‘g‘in va nutq tovushlariga* ajraladi. *Fraza* nutqning eng katta fonetik birligi bo‘lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi. Frazalar taktdan tashkil topgan bo‘ladi. Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg‘u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo‘g‘inning yig‘indisiga *takt* deyiladi. Frazada nechta urg‘u bo‘lsa shuncha takt bo‘ladi.

Takt bo‘g‘inlardan tashkil topadi. *Bo‘g‘in* bir yoki bir nechta tovushdan tahkil topib, bir zarb bilan talaffuz qilinadigan fonetik birligidir. Bo‘g‘in ta’rifiga aloqador bir qancha nazariya mavjud. Shulardan ikkitasi: *fonologik bo‘g‘in nazariyasi va fonetik bo‘g‘in nazariyasi* keng tarqalgan. Tovushlar fonetika birligi sifatida o‘rganilganda “nutq tovushlari” yoki “fonlar” deb yuritiladi. “Fon” hozirgi tilshunoslikda keng tarqalgan atama bo‘lib, nutqning eng kichik, ma’no anglatmaydigan birligidir.

Nutq tovushlarining o‘rganilishidagi aspektlardan biri *fonologiya* deb yuritiladi. Nutq tovushlarining vazifaviy qiymatini fonologiya o‘rganadi. Fonologiyaning o‘rganish manbai fonemadir. *Fonema* so‘z, so‘z shakllari va morfemalarni tashkil etuvchi, ma’no farqlash uchun xizmat qiluvchi eng kichik, boshqa bo‘laklarga bo‘linmaydigan til birligidir. Masalan, *tup-tub; quy-qo ‘y; sus-sud* so‘zleri fonemalar yordamida farqlanadi. Tarkibidagi birgina fonema bilan farq qiluvchi so‘zlar *kvaziomonimlar* deb yuritiladi. Tildagi barcha fonemalar bir-biriga nisbatan ma’lum ko‘lamda bo‘ladi. Fonemalarning bog‘lanishi, o‘zaro munosabati fonologik tizimni tashkil etadi.

Lug‘at sathi

Tilning lug‘at sathi tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning yig‘indisidan iborat.⁴ Lug‘at sathi tilning fonetik-fonologik va grammatik sathlaridan har doim o‘zgarib va rivojlanib turishi bilan ajralib, farqlanib turadi. Fan, texnika, madaniyatning rivojlanish jarayoni lug‘at sathining doimiy o‘zgarib turishini taqozo etadi. Shunga ko‘ra, tilning lug‘at sathi paydo bo‘lishi va qo‘llanilishi doirasi jihatdan bir-biridan farqlanadigan bir necha qatlamlardan tashkil topadi. Lug‘at sathining asosiy birligi hisoblangan so‘z yordamida kishilar predmet va hodisalarni ifodalaydilar; gapda esa so‘zlar o‘zaro birikib fikr ifodalash imkoniyatini yaratib beradi. Lug‘at sathini leksikologiya o‘rganadi. So‘zning ta’rifi, so‘z va predmet, so‘z va tushuncha, lug‘atning o‘zgarishi, so‘zlarning bir-biri bilan munosabati, lug‘atning qatlamlari

⁴ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 119-p.

kabi muammolar leksikologiya o‘rganadigan asosiy masalalar hisoblanadi. So‘zlarning boshlang‘ich ma’nosи va shaklida bo‘lgan o‘zgarishlarni ***etimologiya***, lug‘at va uning tuzilishini ***leksikografiya***, so‘zning ma’nosи va uning taraqqiyotini ***semasiologiya*** o‘rganadi. Frazeologizmlar leksikologiya bilan bog‘liq holda o‘rganiladi.

Tilning lug‘at tarkibi bir nechta nuqtayi nazaridan o‘rganilishi mumkin. Tilning lug‘at qatlamin tarixiylik nuqtayi nazaridan o‘z va o‘zlashgan so‘zlarga ajratish mumkin. Har bir tilda o‘z qatlam so‘zлari bilan bir qatorda o‘zlashgan qatlam so‘zлari ham uchraydiki, bu tilning mavqeyi, ijtimoiy-tarixiy jarayon, xalqlar va tillar o‘rtasidagi turli munosabatlar ta’siri bilan izohlanadi. Lug‘at qatlaming ma’lum qismi sheva so‘zlaridan iborat. Sheva so‘zлari asosiy aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi. Sheva so‘zlarining adabiy til lug‘atini boyitishda alohida o‘rni bor. Tilning lug‘at tarkibi iste’mol darjasи nuqtayi nazaridan ham turlichadir. Bu jihatdan faol va kam ishlatiladigan so‘zlar farqlanadi. Bu borada quyiroqda, “Tilshunoslik va uning bo‘limlari” da (o‘zbek tili misolida) batafsil to‘xtalamiz.

Tilning lug‘at boyligini oshiruvchi asosiy manba so‘z yasalishi, shevalardan so‘z olish, so‘zning ma’no taraqqiyotidagi o‘zgarishlar va ma’no ko‘chirishlar hisoblanadi.

Grammatik sath

Har bir tilning grammatik sathi so‘zlarning grammatik formasi, so‘z birikmalari va gaplardan tashkil topadi. Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham o‘z birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik ***morfema*** bo‘lib⁵, morfemalardan so‘zlar yasaladi, so‘zlar esa o‘z navbatida so‘z birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. ***Gap*** grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: ***murakkab sintakik (birlik) butunlik, abzas va matn***.

Til grammatik strukturasining o‘ziga xos xususiyatlari bor.

Birinchidan, tilning grammatik qurilishi: so‘zning strukturasi, tuslanish va turlanish qoidalari, so‘z birikmalari va grammatikaning turlari tarixiy taraqqiyotining mahsuli sifatida juda sekin o‘zgaradi.

Ikkinchidan, grammatika umumlashtirish xususiyatiga egadir. Masalan, arava, *maktab*, *tosh*, *bola* kabi so‘zlarning o‘z leksik ma’nosи bor, ammo, grammatik nuqtayi nazaridan bu so‘zlar premetlik tushunchasini ifoda qilib, ot turkumini tashkil qiladi. Bu so‘zлarni ularning leksik ma’nosи emas, grammatik ma’nosи umumlashtiradi. Tilning grammatik strukturasini morfologiya va sintaksis o‘rganadi. Morfologiya so‘zning turkumlari va ularning grammatik formalarini tekshiradi. Sintaksis esa nutqning grammatik strukturasini o‘rganadi. Bunda gap asosiy birlikdir. Gapdan katta birliklar ham sintaksisda o‘rganiladi.

Til tizimi til birliklari -fonema, morfema, so‘z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Yuqoridagilardan ko‘rinadiki, aloqa-munosat vositasi bo‘lgan

⁵ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 48-p.

tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o‘zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Tizimni tashkil qiluvchi mutanosiblik o‘ziga xos bo‘lgan alohida qoidalarda namoyon bo‘ladi. Muayyan tildagi gaplar so‘zlardan, so‘zlar bo‘g‘inlarning birikuvidan, bo‘g‘inlar nutq tovushlaridan hosil bo‘ladi. Jumlni, gapni tashkil etuvchi so‘zlar o‘zaro til qonuniyatlari asosida birikadi. Istalgan har qanday so‘zlar yig‘indisi gap bo‘la olmaydi. Tartibsiz suratda yig‘ilgan so‘zlar mazmun ifodalash uchun xizmat qilmaydi. So‘zlarning ketma-ketligi ma’lum tartib va umumiyl qoidaga muvofiq bo‘lishi talab etiladi. Shu holatning o‘ziyoq tilning tizim ekanligini ko‘rsatadi. Ma’lum bir tilga xos tovushlar shu tilning fonetik tizimini, so‘zlar leksik tizimini tashkil etadi. Bir tildan ikkinchi tilga o‘zlashgan so‘z shu tilning fonetik tizimiga-talaffuz me’yorlariga bo‘ysunadi. Masalan: o‘zbek tiliga rus tilidan kirgan ayrim so‘zlar o‘zbek tili talaffuz me’yorlariga moslashadi: *чайник-choynak, поднос-patnis*. Aksincha o‘zbek tilidan rus tiliga o‘zlashgan so‘zlar rus tilining talaffuz me’yorlariga bo‘ysungan: *qorovul-караул, karvon-караван, bozor-базар*.

Umuman, tilda tovushlar, lug‘at tarkibi, grammatik tartib birikib, tizim sifatida bir butunlikni tashkil etadi. Til tizimini tashkil etuvchi sathlar o‘zaro mutanosib holda bir-birini taqozo qiladi. Ular orasidagi bog‘liqlik tilning umumiyl qoyidalarini va qonuniyatlariga asoslangan.

Til muayyan birlıklarning tizimididan iborat murakkab tizim hisoblanadi. Til birlıklarining o‘ziga xos tabiatni professor Sh. Rahmatullayevning ”Til qurilishining asosiy birlıklari” qo‘llanmasida izchil bayon etilgan:

”Til-tabiiy yo‘sinda vujudga kelgan murrakkab ijtimoiy hodisa. Tilshunoslik ana shu murrakkab ijtimoiy hodisani o‘rganadi va o‘rgatadi. Tilshunoslik oldida turgan eng birinchi masala **til** so‘zini qanday tushunishdan boshlanadi. Til kishilar orasidagi eng muhum aloqa-aratashuv quroli deyiladi. Bu ta’rif-lingvistik ta’rif emas, falsafiy ta’rif. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan yondashilsa, **til** so‘zini ikki xil mundarija bilan ishlatish mayjudligi ko‘rinadi: 1) Ijtimoiy hodisa bir butun holda tushuniladi, 2) Ijtimoiy hodisaning nutqqa zid qo‘yiladigan holatigina tushuniladi. Demak **til** deganda butunni ham (nutqni qamrab olgan holda), qismni ham (nutqni qamrab olmagan holda) tushunish mavjud. **Til** so‘zini bunday ikki xil mundarija bilan ishlatish bir qancha milliy tilshunosliklarda mavjud va uni bartaraf qilish harakati bor. Masalan, **til** so‘zini butunning nomi sifatida saqlab, nutqqa zidlanuvchi hodisani **lison** deb atash mumkin.

Lison – kishining miyasida, miyaning til xotirasasi qismida mavjud hodisalar va ularni ishlatish qoidalari.

Nutq – miyada, til xotirasida mavjud hodisalardan va ularni ishlatish qoidalardan foydalanish jarayoni va shu jarayonning hosilasi (Nutq jarayonining hosilasi tekst – matn deb yuritiladi). Demak, til hodisalariga ikki nuqtayi nazaridan – lison nuqtayi nazaridan va nutq nuqtayi nazaridan baho beriladi, shu asosda til birlıklari lisoniy birlıklar va nutqiy birlıklar deb farqlanadi.

Lison – tilning kishi miyasidagi til xotirasni markazida mavjud birlıklardan va ulardan foydalanish qoidalardan iborat boylik. **Nutq** esa ana shu boylikdan foydalanish jarayoni va shunday jarayonning hosilasi. Lison kishi miyasida mavjud mavhum hodisa bo‘lib, uni aql bilan idrok qilamiz; nutq esa ana shu mavhum

hodisadan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan moddiy hodisa bo‘lib, uni talaffuz birliklari sifatida eshitamiz. Lisonga mansub, ya’ni til xotirasida mavjud hodisalarga ***lisoniy birliklar*** deyiladi; lisoniy birlikning nutqda moddiy shakl olgan holatiga nutqiy birlik deyiladi. Demak, har bir kishining miyasida lisoniy birliklarning ramzlaridan va ulardan foydalanish qoidalaridan iborat boylik bor, har bir kishi ehtiyojiga qarab bu boylikdan foydalanib nutq hosil qiladi. Inson tili asosini tovush tashkil qiladi: tilda bor hodisalar tovushlarda reallashadi. Tovush til birligi sifatida boshqa til birliklari uchun qurilish birligi bo‘lib xizmat qiladi. Shunga ko‘ra til tovushi til birliklarining birlamchi ifoda jihatni deyiladi. Til tovushi lisoniy birlik sifatida miyadagi til xotirasi markazida ma’lum bir ramz sifatida aks etadi. Ana shu ramzda til tovushiga xos belgi-xususiyatlar haqida axborot bo‘ladi. Masalan, **u** tovushi haqida ”ovozdan iborat”, ”og‘iz bo‘shlig‘i tor holatda”, ”tovush hosil bo‘lish oralig‘i til sathining orqa qismida”, ”lablar aktiv qatnashadi degan axborot bor. Inson faoliyatini, shu jumladan til faoliyatini ham boshqaruvchi miya markazidan **u** tovushini aytish haqida ”ko‘rsatma”(impuls) berilsa, shu tovushning ramzida mujassamlashgan axborotga binoan tovush hosil qilish a’zolari harakatga kelib, ko‘rsatmaga binoan ma’lum holat egallaydi va o‘pkadan chiqayotgan havo ma’lum nutq tovushi sifatida, nutqiy birlik sifatida namoyon bo‘ladi”.

Savol va topshiriqlar

1. Tilning ichki qurilishi deganda nimani tushunasiz?
2. Til sathlariga izoh bering.
3. Fonetik-fonologik sath.
4. Lug‘at sathi.
5. Grammatik sath.
6. Til, lison, nutq tushunchakariga izoh bering.

Adabiyyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

6-§. TIL VA YOZUV. YOZUV TURLARI

REJA

1. Nutq shakllari.
2. Yozuvning paydo bo‘lishi.
3. Yozuv turlari.
4. Yozuvning tarixiy ahamiyati.

Yozuv – muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o’rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. Ma‘lumki, insoniyat dahosi erishgan eng buyuk va muhim yutuqlardan biri yozuvning kashf etilishidir. Yozuv kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma‘nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiyalaridan biridir. Ma‘lumotlarga ko‘ra, yozuv tildan ancha keyin paydo bo’lgan, ya‘ni tovush tili taxminan 400-500 ming yillar ilgari yuzaga kelgan bo’lsa, yozuvning paydo bo’lganiga 4-5 ming yillar bo’lgan. Og’zaki nutqning zamon va makon nuqtayi nazaridan cheklanganligi va uni bartaraf etish zaruriyati yozuvning paydo bo’lishiga olib keldi.

Aytish lozimki, yozuv og’zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo’shimcha aloqa vositasi bo’lsa-da, mazkur ehtiyojlarni qondiruvchi vosita sifatida unga qaraganda juda ko‘p afzalliklarga ega. Xususan, tilning eng muhim, asosiy vazifasi kommunikatsiya – kishilar o’rtasidagi aloqani ta‘minlashdir. Ammo kishilar o’rtasidagi bevosita – «yuzma-yuz» aloqagina og’zaki til vositasida ta‘minlanishi mumkin, lekin bu aloqa bavosita bo’lsa-chi, kishilar turli masofalarda bo’lsalar-chi? Demak, tilning kommunikativ vazifasi yozuvsiz amalga oshishi mumkin emas. Har qanday tilning asosiy vazifalaridan biri bo’lgan estetik va gnoseologik (dunyoni bilish) vazifalarini ham yozuvsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, tilning insoniyat qo’lga kiritgan tajriba-bilimlarni saqlash va avlodlarga etkazishdan iborat vazifasi ham bevosita yozuv orqali bajariladi. Kishilik jamiyati yaratgan bilim va tajribalar, kashfiyotlar, so’z san‘ati durdonalari kabi qimmatli axborotlarning barcha-barchasi avlodlardan avlodlarga yozuv orqali etib boradi. Boy va ulkan o’tmish madaniyatimiz, tariximiz haqidagi bugungi tasavvurlarimizning mavjudligi, tirikligi faqat yozuv tufaylidir.

Tilning butun imkoniyatlari nutqda ifodasini topadi. Nutqning og’zaki va yozma shakli bo‘lib, yozma nutq yozuv orqali namoyon bo‘ladi. Yozuv ma‘lum bir tarixiy jarayon mobaynida aloqa-munosabatning muhim vositasi bo‘lib shakllanadi. Yozuvning tarixiy ahamiyati quyidagilarda aks etgan.

1. Yozuv ma‘lum tarixiy jarayon natijasida shaklanadi va kishilar orasidagi bavosita aloqa-munosabat vositasi sifatida ijtimoiy manfaatlar uchun xizmat qiladi.
2. Kishilik jamiyati erishgan barcha ma’naviy yutuqlar yozuv orqali avloddan avlodga yetkaziladi.
3. Yozuv uchun masofa va vaqt ahamiyatsizdir.
4. Yozuvning xabar yetkazish imkoniyati tufayli turli masofadagi axborotlar umumiyligi ma‘lumotga aylanadi.

5. Yozuv kishilik jamiyatiga taraqqiyotining muayyan bosqichlarini, xalq tarixi, etnografiyasini adabiyot va san'at tarixini, tilning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuvsiz tilning va xalqning tadrijiy taraqqiyotini o'rghanib bo'lmaydi⁶.

Piktografik yozuv. Voqealari hodisalar haqidagi tafakkur ma'lumotlari jonli va jonsiz vositalar orqali ifodalangan yozuv piktografik yozuv hisoblanadi. Bu atama "chizilgan" va "yozaman" degan ma'nolardagi so'zlardan tuzilgan. Yozuvning bu turi ma'lumotlarning dastlabki qaydlarini yetkaza oladi va mavhum tushinchalarni ifodalash imkoniyatiga ega emas.

Piktografik yozuvning takomillashib borishi natijasida **ideografik** (grekcha "idea-tushuncha", "grafo-yozaman") yozuv paydo bo'ldi. Yozuvning bu turi **logografik yozuv** deb ham yuritiladi. ("logos-so'z", "grafo- yozaman"). Negaki, bunday yozuvdagi ramzlar narsa-buyumlarni aks ettirib qolmay, tildagi so'zlarni ham ifodalaydi.

Ushbu yozuvda ma'lumot ma'nosini shakllar bilan aks ettirish qiyin bo'lgan logogrammalar orqali yetkaziladi.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan quyidagi afzalliklari bor.

a) logografik yozuv xabar qilinishi lozim bo'lgan mazmunni ancha mufassal aks ettiradi.

b) piktografik yozuvda so'z tartibi va so'zshakllari noaniq, logografik yozuvda esa aniq bo'ladi.

v) piktografik yozuvda subyektivlikka, ixtiyoriylikka yo'l qo'yiladi, logografik yozuv esa barqaror logogrammalardan tashkil topgan.

Logografik yozuvning bir oz mukammallahsgan shakli **ieroglifik yozuvdir**. Ieroglyph grekcha "ierogliv" so'zidan olingan bo'lib, "muqaddas yozuv" degan tushunchani anglatadi. Bu yozuvdan qadimgi Arabistonda keng foydalanilgan. Ushbu yozuvlar ifoda etilayotgan narsa-buyum xususiyatlarini imkon qadar aks ettiradi. Ieroglifik yozuv mavhum tushinchalarni ifodalay olishi bilan o'zidan oldingi yozuvlardan farqlanadi.

Yozuvning yuqorida qayd etilgan turlari ancha murakkab. Ularda fikr va ma'lumot ifodalash imkoniyati juda tor. Shuning natijasi o'laroq, yozuvni oson, qulay shaklga keltirish ehtiyoji tug'uladi. Yozuvni soddalashtirish quyidagi yo'llar orqali amalgam oshirildi.

1. Tushunchani yangi shakllar bilan berish o'rniga, mavjud logogrammalar yoki ierogliflar majmuasi orqali ifodash.

2. Logografik yozuvni soddalashtirishning ikkinchi yo'li so'zlarining grammatik shakllariga taalluqlidir. Masalan, logogrammalarni o'zak sifatida qoldirib, grammatik ma'nolar uchun yangi logogrammalar o'ylab topish, ularni o'zak logogrammalar ma'nosiga qarab qo'shish. 3. Yozuvni soddalashtirishning eng unumli va ma'qul usuli fonografik yozuvga o'tish edi. Bunday yozuv tilning grammatik qurilishini ifodalab qolmay, uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettiradi. **Fonetik yozuv.** Yozuvning bu turi bir necha ko'rinishlarga ega. Shulardan biri **bo'g'in yozuvidir**. Bu yozuvda ierogliflar

⁶ Peter T. Daniels. (2001) Writing and Language. In The Handbook of Linguistics. Edited by Arnoff, M., Rees-Miller, J. P. 65-68.

bo‘g‘inlarni ifodalaydi. Yozuv tarixida bo‘g‘inli yozuv muhim ahamiyat kasb etadi. Bo‘g‘inli yozuvda bir bo‘g‘inni, bir so‘zni, bir tovushni ifodalaydigan belgilar qo‘llangan. Ossuriya va Vavilon mix (qoziq) yozuvi ana shunday yozuvlardan hisoblangan. Bu yozuvda ayrim belgilar bir tovushni, butun bir bo‘g‘inni, ba’zi belgilar esa butun bir so‘zni ifodalagan. Eronliklar Vavilonni bosib olganlaridan keyin Ossuriya va Vavilon mix yozuvidan foydalanib, fonetik (tovushli) yozuvni, ya’ni har qaysi belgi bir tovushni ifodalaydigan yozuvni ixtiro etganlar. Dunyodagi aksar tillarning fonetik yozuvini ifodalovchi alifbe ya’ni fonetik yozuvlar finikiyaliklar yozuvi asosida shakllangan.

O,,rta Osiyo xalqlari, jumladan, o,,zbek xalqi foydalangan yozuvar

O’rta Osiyodagi xalqlar, jumladan, o’zbek xalqi o’tmishda turli yozuvlardan foydalangan. Bu yozuvar o’z sistemasiga ko’ra fonografik - harf-tovush yozuvidan iborat bo’lgan. Masalan, *so’g’d, pahlaviy, o’rxun-enisey (runik), uyg’ur, arab* kabi yozuvar shular jumlasidandir. Bu yozuvlarning barchasi ham oromiy yozuvi bilan qaysidir jihatlari bilan bog’liqdir.

Oromiy yozuvi finikiy yozuvi asosida eramizdan oldingi I ming yilklarning boshida paydo bo’lgan. Oromiylarning dastlabki vatanı Suriya va Mesopotamiyaning janubiy hududlarida bo’lgan. Eramizning IV asrlarida oromiylarning arablar tomonidan assimilyatsiya qilinishi natijasida oromiy yozuvi ham yo’qolgan. Bu yozuvga oid qadimgi matnlar eramizdan oldingi IX-VIII asrlarga tegishlidir. Ajdodlarimiz qo’llagan so’g’d yozuvi oromiy yozuvi asosida shakllangan harf-tovush yozuvi sanaladi. So’g’d yozuvi ham konsonant yozuv bo’lgan va dastlabki vaqtarda gorizontal holatda o’ngdan chapga qarab yozilgan. Keyinchalik, aniqrog’i, VI asrning oxirlaridan boshlab vertikal yo’nalishda chapdan o’ngga qarab yozilgan.

Pahlaviy yozuvi oromiy yozuvining ko’rinishlaridan biri sifatida eramizning III asrida Sosoniyalar sulolasi hukmronligi davrida paydo bo’lgan. Bu yozuvda faqat undoshlar va cho’ziq unlilar alohida harflar bilan ifodalangan. Unlilar esa, so’z boshidagi holatni inobatga olmaganda, ifodalanmagan. Yozuvar asosan o’ngdan chapga qarab yozilgan. Faqat VIII asrga oid ayrim yozma manbalarda vertikal (yuqoridan pastga) yozilgan holatlar kuzatiladi.

O’rxun-enisey yozuvi turkiy xalqlarning qadimgi harf-tovush yozuvidir. Bu yozuv «Yenisey-o’rxun yozuvi», «Sibir yozuvi», «Turkiy runik yozuv» kabi nomlar bilan ham yuritilgan. Bu yozuv o’z taraqqiyoti davomida uch bosqichni bosib o’tgan: 1) arxaik bosqich (Ettisoy yodgorliklari, VI - VII asrlar; Enisey yodgorliklari, VI - X asrlar); 2) klassik bosqich (ikkinchi Hoqonlik yodgorliklari, VIII asrning birinchi yarmi); 3) keyingi bosqich (uyg’ur hoqonligi davri yodgorliklari, VIII asrning ikkinchi yarmi – IX asr; Sharqiy Turkiston yodgorliklari, IX asr). O’rxun-yenisey yozuvi gorizontal holatda o’ngdan chapga qarab va vertikal holatda yuqoridan pastga qarab yozilgan, harflar chap yoniga yotqizilgan holatda bo’lgan va satrlar o’ngdan chapga qarab joylashib boradi.

O’rxun-enisey yozuvining o’ziga xos xususiyalaridan biri shuki, bu yozuv turkiy til uchun juda qulay bo’lgan va har qanday turkiy til ifodasi uchun mos bo’lgan, ayniqsa, turkiy tillarga xos bo’lgan singarmonizm qonuniyatlarini o’zida

to'liq aks ettira olgan. Shu ma'noda bu yozuv o'z o'rniga kelgan uyg'ur va arab yozuvlariga qaraganda mukammal va qulay alifbo bo'lган.

Ma'lumki, o'zbek yozuvi tarixida **uyg'ur yozuvining** o'ziga xos o'rni bor. Asosini so'g'd xatidan olgan va hozirda uyg'ur yozuvi deb atalayotgan xat o'tmishda uyg'ur xati, mo'g'ul xati kabi nomlar bilan yuritilgan. Ushbu yozuvni «Mahmud Koshg'ariy o'zining «Devonu lug'otit turk» asarida turkcha yozuv deb tilga olsa, Alisher Navoiy maktublaridan birida uni turkcha xat deb ataydi. XIII asr fors she'riyatining namoyandasi Puri Bahoi Jomiy o'z she'rlaridan birida uni uyg'ur xati (xatt-i uyg'uri), mashhur tarixchi Ibn Arabshoh «Ajoibu-l-maqdur fi navoibi Taymur» nomli asarida uyg'ur xati, «Fokihatu-l-xulafo» asarida esa mo'g'ul xati deb ataydi. Ushbu yozuv «Hibatu-l-haqoyiq»ning 1480-yili Istanbulda Abdulrazzoq baxshi ko'chirgan qo'lyozmasida mo'g'ul xati deyilgan.

Uyg'ur yozuvli matnlar bizgacha alohida varaq, o'rama qog'oz, daftar, kitob, epigrafik bitiglar, taxta, sopol va metall ashylardagi yozuvlar shaklida etib kelgan. Ayniqsa, ular orasida turklar tarixining turli davrlarida yaratilgan kitoblar salmoqli o'rinni egallaydi, kitobatchilikning ajralmas qismi sifatida turkiy elatlar madaniy, ma'rifiy yuksalishini belgilaydi. Uyg'ur yozuvli turk kitobining tarixi mazkur yozuvning tarixi bilan uzviy bog'liq. Turklar so'g'diy negizli alifboni qo'llay boshlaganlaridanoq uyg'ur xatli kitobatchilik o'z yo'lini boshlagan edi. Ushbu yozuvning kashf etilushi, o'z navbatida, turk kitobatchiligidagi yangi davrni boshlab berdi. Binobarin, keyingi kezlarda O'rxun-Yenisey xati o'rniga uyg'ur xatinining kengroq yoyila boshlaganligining sabablaridan biri ham uning kitobat ishida ancha o'ng'ayligi, paleografik imkoniyatlarining kengligi bo'lgan. Shuningdek, uyg'ur yozuvli qo'lyozmalar texnik jihatdan ancha puxta bo'lgan. Bu esa, qadimgi turk kitobatchiligidagi oldin ham o'ziga xos bosqichni o'taganligidan dalolat beradi. Ma'lumotlarga ko'ra, XVI asrga qadar shoh saroylarida uyg'ur kotiblari ham faoliyat ko'rsatib kelganlar va ular baxshi deb atalgan.

Ma'lumki, buddiylikning keng yoyilovi munosabati bilan Markaziy Osiyo xalqlari (xususan, to'xrilar hamda turklar) muayyan muddat qadimgi **hind (braxma) yozuvidan** ham foydalanganlar.

XVI asr boshlariga qadar O'rta Osiyo hukmdorlari, xususan, temuriylar saroyida uyg'ur yozuvida uyg'urcha yozuvchi kotiblar faoliyat ko'rsatgan va ularga nisbatan ham *baxshi* termini qo'llangan. V.V.Bartold baxshilarning Chig'atoy xonlari saroyida katta e'tibor sohibi bo'lganliklarini ta'kidlab, tarixiy solnomalarni yozib borishdek sharaflı ish ularning zimmasiga Yuklanganligini yozadi. Xususan, uyg'ur baxshilari uyg'ur yozuvi bilan uyg'ur tilida sohibqiron Amir Temuring harbiy yurishlari haqida «Xon tarixi» asarini she'riy usulda bitganlar. Bu asar Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Abdulloh b. Muhammad b. Ali Nasrullohning «Zubdat al-asar» nomli asarlari yozilishida asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Ilmiy adabiyotlarda temuriylar hukmronligi davrida idora hujjatlarini yuritishda hamda xorijiy davlatlar bilan olib borilgan yozishmalarda uyg'ur alifbosidan foydalanilganligi aytib o'tilgan. Xususan, bunga temuriyzodalardan Abu Said 1468-yilning 10-oktabrida Uzun Hasanga yo'llagan maktubi misol bo'la oladi. Ushbu xat bugun Istambuldag'i To'pqapi muzeyi kutubxonasida saqlanmoqda. 1940-yilda A.N.Qurat tomonidan uning asl nusxasi

transkriptsiya va tarixiy-filologik sharhlar bilan nashr etilgan. Umuman, Islom davrida, ayniqsa, XIV-XV asrlarda Mavarounnahr, Xuroson, Onado'li madaniy muhitida uyg'ur yozuvli kitobatchilik g'oyat gullab yashnadi va bu zaminda so'ng bor o'zining takomil cho'qqisiga chiqdi. O'sha kezlarda Yazd, Hirot, Samarqand, Istanbul kabi madaniyat markazlarida uyg'ur yozuvida bituvchi baxshilar (xattotlar) maktablari vujudga keldi. XIV-XV asrlarning manbalarida uyg'ur xatida ko'chiruvchi kotiblarga nisbatan bahsi so'zi qo'llangan. Manbalarda baxshilarning nomlari ham qayd etilgan.

Arab yozuvi o'zbek xalqi tarixida uzoq yillar davomida foydalanilgan yozuv sanaladi va bu yozuv asosida juda ko'plab qimmatli yozma yodgorliklar bitilgan. Xalqimiz 1929 -yilga qadar bu yozuvdan foydalanib keldi.

O'zbek xalqi XX asr davomida quyidagi yozuvlardan foydalandi:

1. Arab yozuvi 1929 -yilgacha.
2. Lotin yozuvi 1929-1940 -yillar.
3. Rus grafikasi 1940-1995- yillar.
4. Rus va lotin grafikasi 1995-2010 -yillar.

Umuman, hozirgi kunda jahonda yozuv sistemalarining quyidagi to'rt guruhi juda keng tarqalgan:

1. *Lotin yozuvi asosida shakllangan yozuv sistemalari*. Bu yozuvdan dunyo aholisining 30 % dan ortig'i foydalanadi.

2. *Slavyan-kirillitsa yozuvi*. Bu yozuv turidan foydalanuvchilar dunyo aholisining 10 % ini tashkil qiladi.

3. *Arab yozuvi*. Bu yozuvdan dunyo aholisining 10 % dan ortig'i foydalanadi.

4. *Hind bo'g'in yozuvi*. Bu yozuvdan dunyo aholisining 20 % foydalanadi.

Bulardan tashqari yana bir qancha yozuvlар bo'lib, ulardan dunyo aholisining 30 % ga yaqini foydalanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Yozuv va uning tarixi haqida gapiring.
2. Qadimgi yozuvlarga misollar keltiring.
3. Yozuv turlarini izohlang.
4. Xalqimiz qaysi yozuvlardan foydalangan?
5. O'zbekiston hududida qaysi yozuv namunalari topilgan?
6. Fonetik yozuv nima?
7. Bo'g'in yozuviga izoh bering.
- 8.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
4. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

7-§.TILNING TARIXIY TARAQQIYOTI VA O`ZGARUVCHANLIGI

Reja

1. Til tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlari.
2. Tildagi fonetik – fonologik o`zgarishlar.
3. Tilning tarixiy taraqqiyotida lug`at sathida yuz bergan o`zgarishlar.
4. O`z qatlam o`zlashma qatlam
5. Tilning tarixiy taraqqiyotida grammatick sathda yuz bergan o`zgarishlar.
- 6.

Til taraqqiyoti va rivoji ma'lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi.⁷ Til murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, undagi birliklar barcha jihatdan uzviy bog'langan.Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o'zaro bog'liq hisoblanadi.Tildagi tarixiy fonetik o`zgarishlar ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y beradi. Fonetik – fonologik o`zgarishlar tilning ichki qonuniyatlar bilan bog'liq hodisadir.Tildagi tarixiy- fonetik o`zgarishlarni o'rganuvchi qiyosiy-tarixiy tilshunoslik sohasi qiyosiy-tarixiy fonetikadir. Qardosh tillardagi(slavyan,german, roman tillari, turkiy tillar)tarixiy fonetik o`zgarishlar natijasida so'zlardagi etimologik va geneologik, ya'ni kelib chiqish jihatdan o'xshashlik va farqli tomonlarini qiyosiy –fonetika aniqlab beradi. Qardosh va qardosh bo'lмаган tillardagi tarixiy-fonetik o`zgarishlarni tahlil qilish natijasida tipologik, qiyosiy –tipologik fonetika, fonologiya sohalari shakllandı.

Til taraqqiyotidagi fonetik o`zgarishlarni tahlil etuvchi fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiyligining qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiyligining holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatlar bilan bog'liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmozm(tovushlarning uyg'unlashuvi) turkiy tillarga xos umumiyligining qonuniyatdir.

2. Xususiy qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan qonuniyatlarini ifodalaydi.Masalan, turkiy tillarga mansub o'zbek tilining keyingi taraqqiyotidagi ichki o`zgarishlar hamda yondosh tillar ta'sirida yuzaga kelgan hodisalar shu tilning o'ziga xos rivojlanish omillari bilan bog'liqdır.

Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtayı nazardan ikkiga bo'linadi.

1) tarixiy qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonologik o`zgarishlarni o'z ichiga oladi.Til tarixinining tarixiy tovush o`zgarishlarini o'rganuvchi bo'limi tarixiy fonetika va fonologiya deb yuritiladi.

2)davriy qonuniyatlar muayyan til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan fonetik o`zgarishlarni izohlaydi.

Tarixiy-fonetik va fonologik o`zgarishlar turli murakkab jarayonlarni o'z ichiga oladi.Fonetik va fonologik o`zgarishlar natijasida tildagi fonemalar soni kamayishi yoki ko'payishi mumkin, bunda ikki hodisa ro'y beradi.

⁷ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 83-p.

1.Ikki fonemaning yaxlit bir fonema sifatida birlashishi konvergensiya deyiladi. O'zbek tili tarixida ma'lum bo'lgan til oldi va til orqa, qisqa va cho'ziq fonemalar keyinchalik birlashib, o'rta cho'ziqlikka ega bo'lgan 6 ta unli fonemani hosil qilgan.

2.Bir fonemaning ikki mustaqil fonemaga ajralishi divergensiya deyiladi. Masalan, qadimgi turkiy tilda bitta a fonemasi keyinchalik ikki fonemaga ajralgan: a va o.

Fonetik qonuniyatlarga tovushlarning kombinator va pozitsion o'zgarishlari ham kiradi.

Umuman, fonetik qonuniyatlarni boshqa yondosh hodisalar ta'sirida o'rganish tilshunoslik fani uchun ilmiy qiymatga ega.

Tarixiy jarayon davomidagi o'zgarishlar lug`at sathida ham kuzatiladi. So'z ma'nosi ma'lum xususiyatlarga ko'ra ko'chadi. Lug'aviy ma'noning asosiy taraqqiyot yo'llari (ko'chish usullari) quyidagicha:
metafora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik (vazifadoshlik), kinoya.

Metafora - "o'xshashlik" asosidagi ma'no ko'chishi. Bunda ma'no ko'chishi o'xshashlik asosida ro'y beradi. Metafora ikki usulda amalga oshadi: a) ma'no o'xshashlik asosida ko'chadi: oltin kuz, kumush choyshab, fan cho'qqilar, litsey qaldirg'ochlari...b) metafora -dek, -day, kabi, singari, yanglig', xuddi, go'yo so'zlar yordamida hosil qilinadi, masalan: shishadek osmon, Adashgan it kabi Furqat, xuddi sherdek.

Metonimiya - "aloqadorlik" asosidagi ma'no ko'chishidir. Bunda narsa-buyum o'ziga aloqador boshqa nom bilan ataladi. Masalan: Qishloq chetida samovar ochildi (samovar-choyxona); Osmonga tikildi million juft ko'zlar (ko'z-odam); Fuzuliyni oldim qo'limga (Fuzuliyni-kitobini).

Sinekdoxa - butunning nomi bilan qismini atash, qismning nomini atash. masalan: Besh qo'l barobar emas (qo'l-barmoq); O'n qo'li hunar (qo'l barmoq).. Besh qo'lini og'ziga tiqdi (qo'l barmoq); Shu bitta tuyoq bilan olti bolani boqdim (tuyoq-sigir); Tirnoqqa zor o'tdi (tirnoq-farzand).

Vazifadoshlik (funksiyadoshlik) - vazifa asosida ma'no ko'chishi. Bunda so'z ma'nosi vazifaga ko'ra ko'chadi. Masalan: o'q qadimda kamon o'qi ma'nosida qo'llangan. Hozirda miltiq o'qi, pistolet o'qi ma'nolarida qo'llanadi; *kotib, pero, qalam* so'zlarida ham vazifaga ko'ra ma'no ko'chishi ro'y bergen.

Kinoya-qochiriq, kesatiq ma'nolarida aytilgan o'zgalar "gapi", "so'zi". Kinoya bilan aytilgan so'z qo'shtirnoqqa olinadi. Kinoya bilan aytilgan so'z teskari ma'noda tushuniladi.

Salima "a'lochi" qiz (ikkichi).

So`zning atash ma`nosi. So`zlarning borliqdagi narsa-hodisalar, belgi xususiyatlar, harakat-holatlarni bildirishi uning atash ma'nosi sanaladi. Faqat mustaqil so`zlargina atash ma'nosiga ega bo'ladi. Olmoshlar bundan mustasno. Ular atash ma'nosiga ega bo'lgan so`zlarga ishora qiladi. Birdan ortiq ma'no bildiradigan so'zlar *polisemiya* (ko`p ma'noli) deb atalib, ular turlichalisa shaklda bo'ladi. Bir xil ma'no bildirgan so'zlar *sinonimlar*, shakli bir xil bo'lib, turli ma'no

darajasida turli nozik ma`no qirralarini bildiradigan so`zlar *omonimlar* deyiladi.⁸ Masalan: 1. *Bosh-ishning boshi, odamning boshi, suvning boshi - polisemiya.* 2. *Ozgina, picha, sal, jindak, qitday - sinonimlar.* 3. *Ko`k-rang, o`simplik, osmon - omonim.*

Tildagi barcha so`zlar uning lug`at boyligini tashkil etadi. Tilning lug`at boyligi ikki manba-ichki va tashqi manba orqali ortib boradi. Tilning ichki imkoniyatlari orqali so`z yasash (qo'shimcha qo'shish va so'zlarni qo'shish orqali); shevalardan so`z olish ichki manba, boshqa tildan so`z olish tashqi manba hisoblanadi.

Boshqa tillardan so`z olish natijasida o'z qatlam va o'zlashgan qatlam farqlanadi. O'zbekcha, turkiycha so`zlar o'z qatlam nomi bilan, boshqa tildan olingan so`zlar o'zlashgan qatlam atamasi bilan yuritiladi.

O'z qatlam

O'z qatlamga o'zbek tiliga oid bo'lган, shuningdek, turkiy tillar uchun umumiy bo'lган so'zlar kiradi. O'zbek tili lug`at tarkibida turkiy tillar uchun umumiy bo'lган so'zlar anchagina: tosh, tog`, er, bosh, suv, til, qo'l, kishi, bola; oq, qora, qizil, ko'k, sariq, yashil, yaxshi, yomon; bir, ikki, uch, besh, olti, etti, yuz, ming: men, sen, u, biz, siz, bu, shu; kel, ol, bor, tur, qara; ildam, erta, indin, ilgari.

O'zbek tilining bevosita o'ziniki bo'lган so'zlar tilning ichki imkoniyatlari asosida hosil bo'lган so'zlardan iborat. Bunda uch holat kuzatiladi:

- 1) asli o'zbekcha so'zlardan shu tildagi affiks (qo'shimcha)lar yordamida yasalgan so'zlar: *qatnashchi, terimchi, og'machi, birlashma;*
- 2) boshqa tildan o'zlashgan so'zlarga o'zbekcha qo'shimcha qo'shilishi natijasida hosil bo'lган so'zlar o'zbekcha hisoblanadi;
 - a) arabcha so'zlardan: *rahbarlik, mehrli;*
 - b) tojikcha so'zlardan: *mardlik, go'shtli;*
 - v) ruscha so'zlardan: *limonli, sportchi;*
- 3) boshqa tildan o'zlashgan so'zga o'zlashgan qo'shimchani qo'shish natijasida hosil bo'lган so'z o'zbekcha hisoblanadi:
kitobxon, doimiy, adabiyotshunos.

Demak, yasama so'zlar asosan o'zbekcha (o'z qatlam so'zları) hisoblanadi.

O'z qatlam so'zları (o'zbekcha so'zlar) quyidagi xususiyatlarga ega.

- 1)v,z,l,g, tovushlari bilan boshlanadigan so'zlar o'zbekcha emas: lab.
- 2)f, h, ' ishtirok etgan so'zlar o'zbekcha hisoblanmaydi:
bahor, fikr.
- 3)o'zbekcha so'zlarda unlilar yonma-yon kelmaydi: (soat).
- 4)o'zbekcha so'zlar omonim xarakterda bo'ladi: soch-soch, tut-tut.
- 5)o'zbekcha so'zlarda tarixiy tovush o'zgarishlari sezilib turadi: yig'och-og'och, jil-yil: jilon-yilon-ilon.
- 6)o'zbekcha (turkiy) so'zlarda bir bo'g'in tarkibida undoshlar yonma-yon kelmaydi; g'isht, daraxt.

O'zlashgan qatlam

⁸ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 68-p.

Arabcha, forscha-tojikcha, xitoycha, mo‘g‘ulcha, grekcha, ruscha so‘zlar o‘zlashgan qatlamni tashkil etadi.

O‘zbek tilidagi o‘zlashgan qatlamning asosini arab, fors-tojik, rus tillaridan o‘tgan so‘zlar tashkil etadi.

Arabcha so‘zlar: kitob, mактаб, xalq, maорif, shoир, ma’no, ilhom, san’at, tanqid, madaniyat, kashf, a’lo, odob, xat, savod, amal, oila, inson, husn, nutq, soat, avlod, savol, sinf, millat, hikoya, maqol, hayot, shamol, qadr, dohiy, mag‘rur, xafa.

Arabcha so‘zlar diniy atamalar va turli soha nomlaridir. O‘zbek xalqi vakillariga qo‘yiladigan ismlarning ko‘pi arabcha. Arabcha so‘zlar quyidagi xususiyatlarga ega.

1.(v) f,h,’ harflari ishtirok etgan so‘zlar, asosan, arabcha: *ma’no, ta’limot, na’ra, sinf*

2. Arabcha so‘zlar siniq ko‘pligiga ega, ya’ni ko‘plik so‘z tarkibini o‘zgartirish bilan hosil qilinadi: *hol-ahvol, xabar-axbor, ruh-arvoh, xulq-axloq, she’r-ash’or*.

3. Arabcha so‘zlarda o‘zakdosh so‘z tarkibidagi undoshlar yordamida hosil qilinadi: *hukm- hokim,-hakam-mahkama-hokimiyat-mahkuma; fikr-tafakkur-mutafakkir; kitob-maktab-kutubxona-maktub; sinf-tasnif; hurmat-ehtirom-marhamat-muhtaram;*

Forscha-tojikcha so‘zlar

Forscha-tojikcha so‘zlar quyidagi xususiyatlarga ega. a) tojikcha so‘zlar o‘zbek tili lug‘ati tarkibida qadimdan mavjud bo‘lib kelgan. b) toj ch,l,g,z undoshlari bilan boshlanadigan so‘zlar asosan tojikcha hisoblanadi: lola, gul, chaman. v) -xo‘r,-noma,-do‘z,-xon,-namo,-shunos,-boz,-bon,-dor, no-, ser-qo‘shimchalari forscha-tojikchadir.

Tojikcha so‘zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, mirob, dasta, bemor, g‘isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, serob, shirin, mard, mehribon, jonajon, kamtar, kam, chala, balki, agar, ham, go‘sht, non, sozanda, sabzavot, reja, dard, ombur, tesha, bobo, dugona, do‘st, xonadon, peshona, kaft.

So‘zning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari. So‘zlar shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra 4 xil: omonim, sinonim, antonim, paronim.

Omonim. Shakli bir xil, ma’nosи har xil bo‘lgan so‘zlar *omonim* deyiladi. Bir xil shaklga ega bo‘lgan bir necha so‘z omonim hisoblanadi. Ikki yoki undan ortiq so‘zning bir xil yozilishi va bir xil talaffuz etilishi natijasida omonimlar yuzaga keladi. Omonimlar quyidagicha hosil bo‘ladi:

1. Tarixda boshqa-boshqa hisoblangan so‘zlarning hozirgi alifboda bir xil yozilishi natijasida:

üch (3)
uch

uch (harakat)
uch

2. Boshqa tillardan o‘tgan so‘zlarning o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan bir shakl hosil qilishi natijasida: atlas-atlas, etik-etik, tok-tok.

3. Ko‘p ma’noli so‘z ma’nolari o‘rtasidagi bog‘lanishning yo‘qolishi natijasida: dam (hordiq), dam (bosqon), dam (nafas); gap (til birligi), gap (yig‘in).

Omonimlik hodisasi bir turkum doirasida yoki bir necha turkum doirasida sodir bo‘ladi. Bir turkum doirasidagi omonimlarga grammatik shakllar qo‘shilganda ham omonimligini saqlab qoladi: Biz yoqqan o‘tlarimizni o‘chirdik. Biz ekkan o‘tlarimizni o‘rdik.

Sinonimlar (ma’nodosh so‘zlar).

Shakli har xil bo‘lsa ham ma’nosи bir-biriga yaqin so‘zlar sinonimlar deyiladi. Bir (xil) ma’noning bir necha so‘z shakllari orqali berilishi sinonimlarni yuzaga keltiradi. So‘zlarning o‘zaro sinonim munosabatda bo‘lishi sinonimiya hodisasi deyiladi.

Bir umumiy ma’nosи bilan o‘zaro bog‘lanuvchi so‘zlar guruhi sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qator ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topadi. Har bir sinonimik qatorda bir so‘z asosiy so‘z hisoblanadi. Bu so‘z barcha uslublarda qo‘llana oladi, shuning uchun (bosh so‘z), “neytral so‘z”, “betaraf so‘z”, “uslubiy neytral so‘z”, “dominanta” atamalari bilan nomlanadi. Masalan, nazar solmoq-boqmoq-qaramoq sinonimik qatorida bosh so‘z qaramoq; aft-bashara-chehra-oraz-yuz-turq sinonimik qatorida bosh so‘z yuzdir.

Bir so‘z, ko‘p ma’noli so‘z birdan ortiq sinonimik qatorda ishtirok etishi mumkin. Masalan, bitirmoq.

- 1) bitirmoq-tugatmoq-tugallamoq-tamomlamоq-tamom qilmoq (maktabni shu yil bitirgan);
- 2) bitirmoq-bajarmоq-ado etmoq-o‘rinlatmoq-do‘ndirmoq-o‘tamoq (aytgan topshiriqni bajardi, bitirdi);
- 3) bitirmoq-tamomlamоq--yo‘qotmoq (jinoyatchi to‘da bitirildi).

Bir ma’noli so‘z faqat bir sinonimik qatorda qatnashadi.

Sinonimlik faqat bir turkum doirasida sodir bo‘ladi: odam-inson-kishi-bashar-kimsa (ot turkumida).

Sinonimlar ikki yo‘l (usul) bilan hosil bo‘ladi: 1. Tilda yangi so‘zning paydo bo‘lishi natijasida (yangi so‘zlar a) so‘z o‘zlashtirish (boshqa tildan so‘z olish); b) so‘z yasash orqali paydo bo‘ladi;

Tilda mavjud bo‘lgan so‘zlarning yangi ma’no kasb etishi natijasida.

1. Quyidagi sinonimlar boshqa (o‘zga) tildan so‘z o‘zlashtirish natijasida yuzaga kelgan: *sevgi* (o‘zbek)- *muhabbat* (arab); *kuch* (o‘zbek) - *qudrat* (arab); *buyruq* (o‘zbek)-*amr* (arab)-*farmon* (tojik); *ot* (o‘zbek)-*ism* (arab); *yozuvchi* (o‘zbek)-*adib* (arab); *manglay* (o‘zbek)-*peshana* (tojik); *ko‘klam* (o‘zbek)-*bahor* (tojik); *qo‘sishin* (o‘zbek)-*armiya* (rus); *aldamchi* (o‘zbek)-*aferist* (rus); *yurak* (o‘zbek)- *dil* (tojik)-*qalb* (arab).

O‘zlashma so‘zlar faqat o‘zbekcha so‘zlar bilangina emas, o‘zaro ham sinonim bo‘lishi mumkin, Masalan, hujum-ataka-hamla; josus-agent; mavzu tema; muallif-avtor; sozanda-muzikant; muharrir-redaktor; aktyor-artist; shtraf-jarima.

2. Tilda bor so‘zlar yangicha ma’no kasb etib, yangi sinonimik qatorni yuzaga keltiradi: vazifa-topshiriq; xotira-yodgorlik-esdalik; farq- ayirma: maosh-moyana-oylik.

Bir o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi: *chopqir-chopag'on*; Turli o'zakdan yasalgan so'zlar ham o'zaro sinonim bo'ladi; *yugurik-uchqur*; *esli-hushyor*. O'zaro sinonim bo'lgan so'zlardan bir xil yasovchi qo'shimcha vositasida sinonimlar yuzaga keladi: *chidamli-bardoshli-to'zimli-sabrli-toqatli* (*chidam-bardosh-to'zim-sabr-toqat*).

Ba'zan, tub so'z yasama so'z bilan sinonim bo'ladi: *his-sezgi*; *savol-so'roq*.

So'z shaklidagi sinonimlar lug'aviy sinonimlar deb yuritiladi. Lug'aviy sinonimlar ma'nosiga ko'ra ikki xil:

1. To'liq (mutlaq) sinonimlar.
2. Ma'noviy sinonimlar.

To'liq sinonimlar ma'nosida va ishlatilishida farq qilmaydi. Birining o'rnida boshqasini to'liq qo'llash mumkin bo'lgan sinonimlar to'liq sinonimlar deyiladi: *tilshunoslik-lingvistika*; *respublika-jumhuriyat*; *doston-poema*; *kosmos-fazo*.

Ma'noviy sinonimlarda sinonimik qatordagi so'zlar nozik ma'nesi bilan farqlanadi. Ma'noviy sinonimlarni (har doim ham) birining o'rnida boshqasini qo'llab bo'lmaydi; *ho'l-shalabbo*; *tiqillatdi-taqillatdi*, *dukillatdi-gursillatdi*; kulmoq-jilmaymoq-irshaymoq-tirjaymoq. Ma'noviy sinonimlar quyidagi jihatlari bilan o'zaro farqlanadi:

a) emotsiyal-ekspressiv bo'yoq nuqtai nazaridan. Bu jihatdan so'zlar bo'yoqsiz (neytral) yoki bo'yoq dor bo'lishi mumkin. Emosional-ekspressiv bo'yoq dor so'zlarda so'zlovchining munosabati seziladi. Bo'yoq dor so'zlar ijobiy bo'yoqli (*chehra, jamol*) yoki salbiy bo'yoqli (*bashara, turq*) bo'ladi.

b) Ma'noviy sinonimlar uslublarda qo'llanishi jihatidan farq qiladi. Masalan: *bashar, siyna* poetik (badiiy) uslubda: *bahor, quyosh* so'zları ilmiy uslubda qo'llanadi. Bunday sinonimlar uslubiy sinonimlar deyiladi.

d) sinonimik qatordagi so'zlar ma'noni qay darajada ifodalashi jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *qiziq-g'alati-ajoyib-alomat-antiqa* sinonimik qatorida qiziq belgini neytral holda; *ajoyib-alomat-antiqa* so'zları belgini kuchli darajada; *yaxshi-durust-tuzuk* sinonimik qatorida *durust, tuzuk* so'zları belgini kuchsiz darajada ifodalaydi.

Sinonimlar uch xil bo'ladi:

- 1) lug'aviy sinonimlar;
- 2) frazeologik sinonimlar;
- 3) grammatik sinonimlar.

Lug'aviy sinonimlar- so'z holidagi sinonimlar; frazeologik sinonimlar- sinonim iboralar. Grammatik sinonimlar morfologik va sintaktik sinonimlardan iborat. Grammatik sinonimlar: *kuz shamoli-kuzgi shamol, xat yozdi-xat yozildi, ukamga oldim-ukam uchun oldim*.

Antonimlar. O'zaro qarama-qarshi(zid) ma'noli so'zlar antonimlar deyiladi. So'zlarning bunday munosabati antonimiya deyiladi. Antonimlar 3 xil belgiga ega:
1) shakli(fonetik strukturası) jihatidan har xillik; 2) ma'no jihatdan har xillik; 3) ma'nodagi o'zaro zidlik. Uchinchi belgi antonimlarni o'zaro birlashtiradi, zid ma'nolilikni yuzaga keltiruvchi asosiy belgi hisoblanadi.

Ko‘p ma’noli so‘z har bir ma’nosи bilan ayrim-ayrim so‘zlarga antonim bo‘lishi mumkin. Masalan, qattiq so‘zi bir ma’nosida yumshоq so‘ziga, boshqa bir ma’nosida saxiy so‘ziga antonim bo‘ladi. Boy o‘lgudek *qattiq* edi.

Bir so‘z o‘zaro sinonim so‘zlar bilan yoki o‘zaro sinonim so‘zlar boshqa sinonimlar bilan antonimik munosabat hosil qiladi: xursand-xushvaqt-shod-xurram-xushnud-xafa.

Sinonimiyada so‘zlarning bir xil ma’nosи asosidagi birligi sinonimlik qatorini hosil qilsa, so‘zlarning o‘zaro zid ma’nosи asosidagi birligi antonimik juftlikni yuzaga keltiradi.

Antonimlik faqat bir turkumdagи so‘zlar orasida sodir bo‘ladi: do‘s-t-dushman.

Qarama-qarshi ma’noli affikslar ham antonim bo‘ladi: odobli-bedob, kuchli-kuchsiz.

Keldi-kelmadi kabi so‘zlar antonim bo‘lmaydi, ular fe’lning bo‘lishli va bo‘lishsiz shaklidir.

Paronimlar. Aytishi (talaffuzi) bir-biriga o‘xhash, ammo yozilishi va ma’nosи har xil bo‘lgan so‘zlar paronimlar deyiladi; *yuvindi-yuvundi, fakt-pakt, abzal-afzal, yoriq-yorug’, quyulmoq-quyilmoq, arch-art, otalik-otaliq*.

Savol va topshiriqlar

1. Til sathida yuz bergen o‘zgarishlar haqida nima bilasiz?
2. Tildagi fonetik – fonologik o‘zgarishlarga misollar keltiring.
7. Tilning tarixiy taraqqiyotida lug`at sathida yuz bergen o‘zgarishlar haqida nima bilasiz?
8. Tildagi o‘z qatlam o’zlashma qatlamga misollar bwring.
9. Tilning tarixiy taraqqiyotida grammatick sathda yuz bergen o‘zgarishlar.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
1. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
2. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
3. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
4. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
5. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent, 2002.
6. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
7. I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

8-§. TILLARNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Reja

1. Tillar oilasi.
2. Qardosh tillar.
3. Tillarning tipologik va geniologik tasnifi.
4. Tillarning tasniflanishiga doir qarashlar.

Tillarni bir-biriga muqoyasa qilib, taqqoslab o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ba’zi tillardagi so‘zlarning ma’nolari, shakllari, grammatic xususiyatlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Albatta, bunday tillar bir-biriga yaqin, qardosh tillar bo‘la olmaydi. Ammo ba’zi tillarning tuzilishi, grammatic xususiyatlari, shu tillardagi so‘zlarning paydo bo‘lish manbai, so‘z shakllari va ma’nolari bir-biriga ancha yaqin bo‘ladi. Bunday tillar bir umumiy o‘zakli tildan kelib chiqqan bo‘lib, **qardosh tillar** deyiladi. Grammatic tuzilishi va boshqa xususiyatlari jihatidan bir-birlariga yaqin bo‘lgan tillar guruhi **til oilasi** deb ataladi. Chunonchi, o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz, tatar, boshqird, ozorbayjon, yoqut, turkman, qoraqalpoq, turk, chuvash tillari kabilar turkiy tillar oilasiga kiradi. Bu qardosh tillardagi o‘xshashlik, yaqinlik ularning So‘z boyligi, grammatic qurilishi va nutq tovushlarida ifodalanadi.

Shuni ham ko‘rsatib o‘tish kerakki, qardosh bo‘limgan ba’zi tillarning so‘z boyligida alohida so‘zlarning ma’no jihatidan o‘xshashlik hodisalari uchrashi mumkin. Bunday hodisa bir tilga qarindosh bo‘limgan boshqa bir tildan kirgan so‘zlarda uchraydi. **Masalan**, o‘zbek tiliga arab tilidan: *oila, mактab, lug‘at, kitob* singari, rus tilidan *sамовар, машина, стол, стул, чоynak* kabi anchagini so‘zlar o‘zlashgan. Lekin bunday so‘zlar o‘zbek tilining arab tili yoki rus tili bilan qardosh til ekanligiga asos bo‘lmaydi, chunki birinchidan, bunday tillarning qarindosh ekanligini isbot qilish uchun faqat so‘zning o‘zi asos bo‘la olmaydi. Ikkinchidan, har bir tilning so‘z boyligida boshqa tildan kirgan so‘zlar juda ozchilikni tashkil etadi va ularning grammatic xususiyatlari butunlay boshqacha bo‘ladi. Uchinchidan, tarixiy taraqqiyot jarayonida turli munosabatlar tufayli boshqa tillardan kirib qolgan bunday tasodifiy so‘zlar tillarning tarixini solishtirib, taqqoslab o‘rganishda material bo‘la olmaydi, chunki bunday tillarning tuzilishi bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi.

Rus, bulg‘or, chek, polyak tillari ham bir oiladagi qardosh tillarga qarashli bo‘lganligi uchun bu tillarda so‘z ma’nolari, grammatic tuzilishlari jihatidan birmuncha o‘xshashlik, yaqinlik bor⁹.

Bu misollar shuni ko‘rsatadiki, qardosh tillarda so‘z o‘zaklari grammatic vositalar jihatidan farq qilsa ham, ularning manbai bir bo‘lib, ular bir o‘zak tildan kelib chiqqan. Biror so‘z yoki grammatic vositalardagi tovush o‘zgarishlari ma’lum bir fonetik qonuniyat asosida yuz bergen. Bir qardosh tilga, bir tovushga ikkinchi bir qardosh tildagi shunga muvofiq tovush to‘g‘ri keladi. Masalan, o‘zbek tilidagi **g** tovushiga qozoq tilidagi **v(w)** tovushi muvofiq keladi: **bog - bav (baw)**,

⁹ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. – B. 45.

tog - tau (taw): o‘zbek tilidagi **t** tovushiga ozarbayjon tilidagi **d** tovushi muvofiq keladi: **temir-demir, til-dil;** Qardosh tillardagi tovushlarning bir-biriga muvofiq kelishi fonetik qonunga asoslangandir hamda qardosh tillardagi so‘zlarning ma’nolari va grammatik qurilishi bilan bog‘liq.

Demak, qardosh tillar oilasiga kiradigan tillarda ba’zi tovushlar bir-biridan ozmi-ko‘pmi farq qilsa ham, grammatik vositalar, so‘zlarning ma’nolari o‘zaro yaqin bo‘ladi.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog‘liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o‘zak tilidan tarqalganligini va ularning o‘zaro munosabatini, so‘z ma’nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o‘xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

Hozirgi vaqtida tarixi o‘rganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. **Hind- yevropa tillari oilasi.**
2. **Xom-som tillari oilasi.**
3. **Turk tillari oilasi.**
4. **Ugor-fin tillari oilasi.**
5. **Kavkaz tillari oilasi.**
6. **Xitoy-tibet tillari oilasi.**
7. **Dravid tillari oilasi.**
8. **Indonei tillari oilasi kabilar.**

Til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatları

Til taraqqiyoti va rivoji ma‘lum qonuniyatlar asosida yuzaga keladi. Til murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy hodisa bo‘lib, undagi birliklar barcha jihatdan o‘zaro uzviy bog‘langan. Ushbu birliklarga aloqador qonuniyatlar ham o‘zaro bog‘liq hisoblanadi. *Til taraqqiyotining ichki qonuniyatları* tilning o‘z tabiatи asosida (o‘z mohiyatidan) kelib chiqadigan taraqqiyot jarayonlarini ifodalovchi qonunlar hisoblanadi. Juda ko‘p tillar uchun umumiyl bo‘lgan qonunlar (masalan, lug’at tarkibining tez, grammatik qurilishning sekin o‘zgarishi) bilan birga ayrim tillarning o‘ziga xos ichki qonuniyatları bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida singarmonizmning yo‘qolishi, buning natijasida unlilar sonining kamayishi; -lar affiksining vazifa doirasi kengayishi, so‘z birikmalari tuzilishida yangi turkumlarning paydo bo‘lishi va b. bunga misol bo‘la oladi. Quyida fonetik o‘zgarishlar misolida til taraqqiyotining ichki qonunlarini tushuntirib berishga harakat qilamiz. Tildagi fonetik o‘zgarishlar ma‘lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida yuz beradi. Fonetik-fonologik o‘zgarishlar tilning tilning ichki qonuniyatları bilan bog‘liq hodisalardir. Til taraqqiyotidagi fonetik o‘zgarishlarni tahlil qiluvchi asosiy fonetik-fonologik qonuniyatlar quyidagilar:

1. Umumiyl fonetik qonuniyatlar barcha tillarga xos umumiyl holdagi tartib va qoidalarni tilning boshqa qonuniyatları bilan bog‘liqlikda aks ettiradi. Masalan, singarmonizm turkiy tillarga xos umumiyl qonuniyatdir. 41

2. Xususiy fonetik qonuniyatlar muayyan til uchun xos bo'lgan hodisalarni ifodalaydi.

Fonetik qonuniyatlar davriy nuqtai nazardan ikkiga bo'linadi:

1. Tarixiy fonetik qonuniyatlar tillar yoki muayyan bir tilning tarixiy taraqqiyotida yuzaga kelgan tarixiy-fonetik hamda fonologik o'zgarishlarni o'z ichiga oladi.

2. Davriy fonetik qonuniyatlar muayyan bir til doirasida hozirgi davrda sodir bo'layotgan fonetik o'zgarishlarni izohlaydi.

Umuman, til taraqqiyotining ichki qonuniyatları asosan lingvistik (lisoniy) omillar hisobiga shakllanadi. Bularga muayyan tilning strukturaviy-sistemaviy xususiyatlari - fonemalar tizimi, lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birlıklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni belgilovchi qoida-qonuniyatlar kiradi. 1

Til taraqqiyotining tashqi qonuniyatları asosan ekstraliningvistik (nolisoniy) omillarga tayanadi. Bularga tildan tashqari mavjud bo'lgan omillar kiradi: ijtimoiy tuzum shakllari, tarixiy jarayonlar, xalqlar va millatlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalar, ilm-fan rivoji, ishlab chiqarish va texnika taraqqiyoti, ijtimoiy tafakkur, inson ruhiyati, his-tuyg'ulari, til va yozuvga oid qonun va farmonlar shular jumlasidandir. 2 Masalan, O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng uning leksikasida katta o'zgarishlar sodir bo'ldi: ayrim so'zlar mutlaqo iste'moldan chiqib ketib, ko'plab neologizmlar kirib keldi.

Ko'rindaniki, til taraqqiyotining ichki va tashqi qonuniyatları lingvistik va ekstraliningvistik omillarga tayanadi.

Savol va topshiriqlar

1. Tillar oilasi deganda nima tushuniladi?
2. Tillarning tasniflanishiga doir qarashlar.
3. Turkey tillar tasnifi.
4. Qardosh tillar tasnifi.
5. Oltoychilar nazariyasi.
6. Turkey tillar va fin-ugor tillar.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birlıklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.

9-§. DUNYO TILLARI TAVSIFI VA TASNIFI

Reja

1. Tillar tasnifi va tillar oilasi.
2. Hind-evropa tillari oilasi.
3. Xom-som tillari oilasi.
4. Kavkaz tillar oilasi.
5. Ugor-fin tillari oilasi.
6. Turkiy tillar oilasi.
7. Xitoy-Tibet tillari oilasi.

I. **Hind-evropa tillari oilasiga** hindiston, eron, slavyan, boltiq, german, roman, kel't, grek (yunon), alban, arman tillari kabi til guruhlari kiradi.

I. Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *hind tili*. Bu tilda 450 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Hind tili hozirgi Hindiston Respublikasining (poytaxti Yangi Dehli) davlat tili bo‘lib, eski hind yozuvi - devonagaridan foydalanadi.

b) *urdu tili*. Bu tilda 180 millioncha kishi so‘zlashadi. U hozirgi Pokistonning (poytaxti Islomobod) davlat tili bo‘lib, arab yozuvidan Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish foydalanadi. Bundan tashqari Hindiston tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

1. *Bengal tili*. Bu tilda 100 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.
2. *Maratxi tili*. Bu tilda 40 milliondan oshiq kishi so‘zlashadi.
3. *Panjob tili*. Bu tilda 40 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.
4. *Rajastoni tili*. Bu tilda 20 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.
5. *Gujarati tili*. Bu tilda 20 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

Bu tillarda so‘zlovchilarning aksariyati Hindistonda yashaydi.

Hind tillari guruhiga lo‘li, sindxi tillari, shuningdek, o‘lik tillardan sanskrit, pali, prokrit tillari kiradi. Sanskrit tili qadimgi hind mumtoz adabiy tili bo‘lib, bu tilda “**Mahabxarata**” (“Bxaratlarning buyuk jangi haqida doston”) hamda “Xito padhesha” (“Yaxshi nasihat”) kabi bir qancha ajoyib epik asarlar yaratilgan. Bizning eramizdan oldingi IV asrda hind olimi Panini o‘zining mashhur “Sanskrit grammatikasi” asarini yaratgan.

2. Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fors tili*. Bu tilda 30 millionga yaqin kishi so‘zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo‘lib, arab yozuvidan foydalanadi;

b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. U Afg‘onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo‘lib, unda arab yozuvidan foydalaniladi;

v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo‘lgan kurd xalqi Eronda, Iroqda, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;

g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo‘lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo‘lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *baluchi tili*. Bu tilda so‘zlovchilar Pokistonda va Eronda yashaydi. Eron tillari guruhiga bulardan tashqari tolish tili, tog‘ tili, o‘lik tillardan esa qadimgi fors, pahlavi, sug‘du, xorazmiy tillari kiradi.

3. Slavyan tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *rus tili*. Bu til RSFSR ning (poytaxti Moskva) davlat tili bo‘lib, bu tilda 150 million kishi so‘zlashadi;

b) *ukrain tili*. Bu til Ukraina respublikasining (poytaxti Kiev) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi.

v) *belorus tili*. Bu til Belorussiya respublikasining (poytaxti Minsk) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

g) *bulg‘or tili*. Bu til Bulg‘oriya Respublikasining (poytaxti Sofiya) davlat tili bo‘lib, bu tilda 9 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

d) *serb-xorvat tillari*. Bu tillar Yugoslaviya Federativ Respublikasining (poytaxti Belgrad) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

e) *chex tili*. Bu til Chexoslavakiya Respublikasining (poytaxti Praga) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

j) *slovak tili*. Bu tilda 4 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu til ham Chexoslavakiya respublikasining davlat tili hisoblanadi. Bu tilda so‘zlashuvchilar Slovakiyada (poytaxti Bratislava) yashaydi;

z) *polyak tili*. Bu til Pol‘scha Respublikasining (poytaxti Varshava) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

Bundan tishqari, kashub, serboluj tillari, o‘lik tillardan qadimgi slavyan, polab, pomor tillari ham slavyan tillari guruhiga kiradi.

4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *litva tili*. Bu til Litva respublikasining (poytaxti Vil‘nyus) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2,2 million kishi so‘zlashadi;

b) *latish tili*. Bu til Latviya respublikasining (poytaxti Riga) davlat tili bo‘lib, bu tilda 1,5 million kishi so‘zlashadi.

O‘lik tillardan prus tili ham boltiq tillari guruhiga kiradi.

5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi: a) *ingliz tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 400 millionga etadi. Bu tilda so‘zlashuvchilar Buyuk Britaniya, Irlandiya, Shimoliy Amerika Shtatlari, Kanada, Janubiy Amerika Ittifoqi va boshqa joylarda yashaydi. Ingliz tili buyuk Britaniya (Poytaxti London), Shimoliy Amerika Qo‘shma Shtatlari (poytaxti Vashington), Kanada (poytaxti Ottava) kabi bir qancha mamlakatlarning davlat tilidir;

b) *nemis tili*. Nemis tili Germaniya Federativ Respublikasining (poytaxti Berlin), Avstriya Respublikasining (poytaxti Vena) davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 100 milliondan oshadi);

v) *daniya tili*. Bu til Daniyaning (poytaxti Kopengagen) davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 4 millionga yaqindir;

g) *shved tili*. Bu til Shvetsiyaning (poytaxti Stokholm) davlat tili bo‘lib, bu tilda 7 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *norveg tili*. Bu til Norvegiyaning (poytaxti Oslo) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3,5 million kishi so‘zlashadi;

e) *golland tili*. Bu til Gollandiyaning (Niderlandiyaning) (poytaxti Amsterdam) davlat tili bo‘lib, bu tilda 13 million kishi so‘zlashadi;

j) *island tili*. Bu til Islandiyaning (poytaxti Reykyavik) davlat tili bo‘lib, bu tilda 250 ming kishi so‘zlashadi.

O‘lik tillardan vesgod va ostgot tillari ham german tillari guruhiga kiradi.

6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fransuz tili*. Bu til Fransiyaning (poytaxti Parij) davlat tili bo‘lib, bu tilda 60 million kishi so‘zlashadi;

b) *italyan tili*. Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tili bo‘lib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *ispan tili*. Bu til Ispaniyaning (poytaxti Madrid) davlat tili bo‘lib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *portugal tili*. Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *rumin tili*. Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *moldava tili*. Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

j) *provansal tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 milliondan ko‘p kishi bo‘lib, ular Fransiyaning janubi-shraqida yashaydi;

z) *sardin tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo‘lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

i) *katalan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo‘lib, ular asosan, Ispaniyada yashaydi;

k) *reto-roman tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 550 ming kishi bo‘lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

O‘lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi:

a) *irland tili*. Bu til Irlandiya Respublikasining (poytaxti Dublin) davlat tilib bo‘lib, bu tilda 800 ming kishi so‘zlashadi;

b) *shotland tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 140 mingdan ko‘p kishi bo‘lib, ular Angliyada yashaydi;

v) *breton tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Fransiyaga qarashli Bretan‘ yarim orolida yashaydi;

d) *uels (valli) tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular Angliyaning g‘arbiy qismida yashaydi.

O‘lik tillardan gal va kornoul tillari ham kelt tillari guruhiga kiradi.

8.Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:

Bu til Gretsianing (poytaxti Afina) davlat tili bo‘lib, bu tilda 9 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

O‘lik tillardan qadimgi yunon, o‘rta yunon yoki Vizantiya tillari ham grek tili guruhiga kiradi.

9. Alban tili guruhiga alban tili kiradi. *Alban tili* Albaniya Xalq Respublikasining (poytaxti Tirana) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Alban tilidagi yozuv yodgorliklari XV asrdan beri ma’lumdir.

10. Arman tili guruhiga **hozirgi zamon arman tili** kiradi. Bu til **Armanistonning (poytaxti Erevan)** davlat tili bo‘lib, bu tilda 3 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi. O‘lik tillardan qadimgi arman tili ham bu guruhga kiradi.

I. Hind-Evropa tillari oilasiga, yuqorida ko‘rsatib o‘tganlarimizdan tashqari, xett, toxar tillari singari o‘li tillar guruhi ham kiradi.

11. Xom-som tillari oilasi. Bu tillar oilasi ikki katta guruhi: 1) som tillari guruhiga va 2) xom tillari guruhiga bo‘linadi.

1) Som tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

Arab tili. Bu tilda 50 milliondan ortiqroq kishi so‘zlashadi. Arab tili Birlashgan Arab Respublikasi (poytaxti Qohira), Iroq respublikasi (poytaxti Bag‘dod), Sudan (poytaxti Xartum), Marokash (poytaxti Rabat), Livan (poytaxti Bayrut), Tunis (poytaxti Tunis), Iordaniya (poytaxti Irlandiya), Liviya (poytaxti Tripoli), Jazoir Xalq respublikasi (poytaxti Jazoir), Yaman respublikasi (poytaxti Sana), Suriya arab respublikasi (poytaxti Damashq) kabi bir qancha arab mamlakatlarining davlat tilidir.

Afrika qit’asida yashovchi yana bir qancha xalqlar arab tilida so‘zlashadi. Shuningdek, janubiy arab tili, amxar tili, aysar tili hamda o‘lik tillardan assuriya, vavilon, xonaney, qadimgi yahudiy va oramiy tillari ham som tillari guruhiga kiradi.

1. Xom tillari guruhiga: shilx, tuareg, kabil, amazirt tillari, o‘lik tillardan esa liviya, numid, shtul, qadimgi misr tillari va boshqa tillar kiradi. Umuman, xom-som oilasiga kirgan tillar yaxshi tekshirilib o‘rganilmagan.

III. Kavkaz tillari oilasi. Kavkaz tillari yana bir qancha guruhlarga, chunonchi, g‘arbiy guruhga, veynax guruhiga, Dog‘iston guruhiga bo‘linadi.

1. G‘arbiy guruhga quyidagi tillar kiradi:

a) *abxaz tili*. Bu til Abxaziya Respublikasida yashovchilarning xalq tili bo‘lib, bu tilda 80 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

b) *abazin tili*. Bu til Cherkas Avtonom Respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo‘lib, bu tilda 25 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *adigey tili*. Bu til Adigey Respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 80 mingdan ortiq kishi so‘zlashadi;

g) *kabardin-cherkes tili*. Bu til Kabarda-Balkar va Cherkas Respublikalarida yashovchi xalqlarning davlat tili bo‘lib, bu tilda 250 mingdan ortiq kishi so‘zlashadi.

2. Veynax guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *chechen tili*. Bu til Chechen respublikasida yashovchi xalqlarning davlat tili bo‘lib, unda 500 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

b) *ingush tili* (bu tilda 100 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi, ular Ingush respublikasida yashaydi);

g) *basbi tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar Chechen va Ingush Respublikalarida yashaydi.

3. Dog‘iston guruhiga Dog‘iston respublikasida yashovchi xalqlarning tillari kiradi:

a) *avar tili*. Bu tilda 300 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

- b) *dargin tili*. Bu tilda 160 ming kishi so‘zlashadi;
- v) *lazgin tili*. Bu tilda 230 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;
- d) *lak tili*. Bu tilda 70 ming kishi so‘zlashadi;
- e) *tabassaran tili*. Bu tilda 34 ming kishi so‘zlashadi.

Bulardan tashqari, nufuzi kam bo‘lgan bir qancha tillar ham dog‘iston guruhiga kiradi. Bu tillarda so‘zlovchilarning aksariyati Dog‘iston Avtonom Respublikasida yashaydi.

4. Janubiy guruhga gruzin tili kiradi. Gruzin tili Gruziya respublikasining (poytaxti Tbilisi) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2,5 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi. Shuningdek, 110 ming kishi so‘zlashadigan chan tili, 290 ming kishi so‘zlashadigan migrel tili va 15 ming kishi so‘zlashadigan svan tili ham janubiy guruhga kiradi.

IV. Ugor-fin tillari oilasi 2 guruhga: 1) ugor tillari; 2) fin tillari guruhiga bo‘linadi.

1. Ugor tillariga quyidagilar kiradi:

- a) *venger (mojar) tili*. Bu til Vengriya Respublikasining (poytaxti Budapesht) davlat tili bo‘lib, bu tilda 13 milliondan ko‘p kishi so‘zlashadi;
- b) *mansi tili*. Bu til Xanti-Mansi milliy okrugida yashovchi xalqlarning davlat tili bo‘lib, bu tilda 7 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;
- v) *xanti tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 22 mingdan ko‘p bo‘lib, ular ham Xanti-Mansi milliy okrugida yashaydilar.

2. Fin tillariga quyidagilar kiradi:

a) *fin tili*. Bu til Finlandiyaning (poytaxti Xel‘sinki) davlat tili bo‘lib, bu tilda 4 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu tilda so‘zlovchilarning bir qismi Kareliya Respublikasida yashaydi;

b) *eston tili*. Bu til Estoniya respublikasining (poytaxti Tallin) davlat tili bo‘lib, bu tilda bir milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

3. Ming kishi so‘zlashadigan veps tili, 15 ming kishi so‘zlashadigan ijomat tili ham fin tillari guruhiga kiradi. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Sankt-Peterburg viloyatida yashaydilar;

v) *komi-permyak tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 180 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Rossiya Federasiyasining Komi-Permyak milliy okrugida yashaydilar;

g) *komi-ziryan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 250 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Komi Respublikasida yashaydilar;

d) *udmurd tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 580 ming kishi bo‘lib, ular Udmurd Respublikasida yashaydilar.

e) *mari tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 500 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular asosan, Mari Respublikasida yashaydilar.

Bulardan tashqari, erzya va moksha-ijomat tillari ham fin tillari guruhiga kiradi.

V. Turkiy tillar oilasiga quyidagi tillar kiradi:

a) *ozarbayjon tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilarning soni 15 milliondan oshadi. Bulardan 9 milliondan ko‘prog‘i Eronda, 6 milliondan ko‘prog‘i esa Ozarbayjonda yashaydi. Bu til Ozarbayjon Respublikasining (poytaxti Boku) davlat tilidir;

b) *turk (usmonli turk) tili*. Bu til Turkiyaning (poytaxti Anqara) davlat tili bo‘lib, bu tilda 40 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

v) *turkman tili*. Bu til Turkmaniston Respublikasi (poytaxti Ashxobod) davlat tili bo‘lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

g) *o‘zbek tili*. Bu til O‘zbekiston Respublikasining (poytaxti Toshkent) davlat tili bo‘lib, bu tilda 16 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

d) *qozoq tili*. Bu til Qozog‘iston respublikasining (poytaxti Olma Ota) davlat tili bo‘lib, bu tilda 10 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *qirg‘iz tili*. Bu til Qirg‘iziston Respublikasining (poytaxti Bishkek) davlat tili bo‘lib, bu tilda 1,5 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

j) *tatar (Qozon tatarlari) tili*. Bu til Tatariston Respublikasining asosiy davlat tili bo‘lib, bu tilda so‘zlashuvchilar 6,5 milliondan ortiqdir;

z) *uyg‘ur tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 5 milliondan ortiqroq bo‘lib, ular asosan Xitoy Xalq Respublikasining Sin szan-uyg‘ur avtonom tumanida yashaydilar;

i) *chuvashtili*. Bu til Chuvash Respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 1,5 milliondan ko‘proq kishi so‘zlashadi;

k) *boshqird tili*. Bu til Boshqirdiston respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 1 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

l) *yoqut tili*. Bu til Yoqutiston respublikasida yashovchi xalqning tili bo‘lib, 300 mingdan ko‘p kishi so‘zlashadi;

m) *qoraqalpoq tili*. Qoraqalpog‘istonda yashovchi xalqlarning tili bo‘lib, bu tilda 200 mingdan ortiq kishi so‘zlashadi;

i) *tuva tili*. Tuva respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 150 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi.

Shuningdek, qumiq tili (310 ming kishi so‘zlashadi), qorachoy tili (100 mingcha kishi so‘zlashadi), balqar tili (50 ming kishi so‘zlashadi), xakas tili (60 ming kishi so‘zlashdi) va yana bir qancha boshqa tillar hamda o‘lik tillardan o‘rxo‘n, pechena, qipchoq, qadimgi uyg‘ur, bulg‘or va xazar tillari ham turkiy tillar oilasiga kiradi.

VI. Mo‘g‘ul tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xalxa-mo‘g‘ul tili*. Mo‘g‘uliston Respublikasining (poytaxti Ulan-Bator) davlat tili bo‘lib, bu tilda 3,5 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Bu tilda so‘zlashuvchilarning bir qanchasi Xitoy Xalq Respublikasida (Ichki Mo‘g‘uliston ham Sinszanda) yashaydi;

b) *buryat tili*. Buryat respublikasida yashovchi asosiy xalqning tili bo‘lib, bu tilda 270 mingdan ko‘proq kishi so‘zlashadi;

v) *qalmiq tili*. Qalmiq respublikasida yashovchi xalqlarning tili bo‘lib, bu tilda 105 dan ko‘proq kishi so‘zlashadi.

VII. Tungus-manjur tillari.

I). Tungus guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *evenk tili*. Rossiya Federatsiyasining Evenk milliy okrugida hamda mamlakatimizning shimoli-sharqiy tumanlarida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 20 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

b) *even tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 10 mingcha kishi bo‘lib, ular asosan Rossiya Federasiyasining Even, Oxot, Chukotka, Koryak milliy okruglarida yashaydi.

3. Manjur guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *manjur tili*. Xitoy Xalq Respublikasining Shimoli-Sharqiy qismida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu til hozir o‘lik tillar qatoriga o‘tyapti;

b) *nanay tili*. Rossiya Federasiyasining Quyi Amur milliy okrugida yashovchi xalqning tili bo‘lib, bu tilda 8 ming kishi so‘zlashadi.

Udey, ulq, oroch tillari ham manjur guruhidagi tillarga kiradi.

VIII. Xitoy-Tibet tillari oilasiga tay-xitoy va tibet tillari guruhlari kiradi.

1. Tay-xitoy guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *xitoy tili*. Xitoy Xalq Respublikasining (poytaxti Pekin) davlat tili bo‘lib, bu tilda bir milliarddan ko‘p kishi so‘zlashadi. Xitoy tili bir necha mustaqil dialektlarga bo‘linadi. U juda qadimgi (eramizdan ikki yarim ming yil burungi) tillardan biri bo‘lib, boy yozuv-yodgorliklariga egadir;

b) *dungan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchi xalqning soni 3,5 million kishidan ortiq bo‘lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasida so‘zlashadi;

g) *vietnam tili*. Vietnam Xalq demokratik Respublikasining (poytaxti Xanoy) davlat tili bo‘lib, bu tilda 30 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

d) *tay (siam) tili*. Taylandning (poytaxti Bangkok) davlat tili bo‘lib, bu tilda 46 millionga yaqin kishi so‘zlashadi.

2. *Tibet tillari*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 4 milliondan ortiq kishi bo‘lib, ular asosan, Xitoy Xalq Respublikasining Tibet avtonom tumanida va Hindistonda yashaydi;

b) *birma tili*. Birma Ittifoqining (poytaxti Rangun) davlat tili bo‘lib, bu tilda 33 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. Assam tillari ham tibet tillari guruhiga kiradi.

IX. Dravid tillariga quyidagi tillar kiradi:

a) *tamil tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 3,5 millionga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida va Seylon orolining shimolida yashaydi;

b) *malayalam tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 13 milliondan ko‘proq kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-g‘arbida yashaydi;

v) *kannara tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 14,5 million kishi bo‘lib, ular G‘arbiy Hindistonda yashaydi;

g) *telugu tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 31 million kishi bo‘lib, ular Hindistonning Janubi-sharqida yashaydi;

d) *braxun tili* (260 mingga yaqin kishi so‘zlashadi) va boshqa bir qancha kichik tillar dravid tillar oilasiga kiradi.

X. **Malay-polineziya tillari**. Bu tillarga malay yoki indoneziya tili kiradi. Indoneziya Respublikasining (poytaxti Jakarta) davlat tili. Shuningdek, madura tili, bali tili, yavan tili, tagalog tili, maori tili, samoa tili va uvea tili kabi bir qancha tillar ham shunga kiradi. Bu tillarda so‘zlashuvchi kishilar soni hali yaxshi aniqlanmagan. Umuman, malay-polineziya tillarida 90 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

XI. **Avstraliya guruhi tillari**. Bu tillar oilasiga juda ko‘p tillar kiradi, lekin ular ham yaxshi o‘rganilmagan.

XII. **Papua tillari**. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Yangi Gvineya orolida yashaydi. Bu tillar ham hali yaxshi o‘rganilmagan.

XIII. Sudan tillari. Sudan tillarida so‘zlashuvchilar Afrikada yashaydi. Bu tillar bir necha guruhlarga bo‘linadi: chunonchi: nil-chad, nil-abissan, nil-ekvator, kardofan, nil-kongo, ubang, shor niger-chad, niger-kamerun, quyi-niger, dagomey, niger-latgal, liberi va senegal gviney guruhlari kabi.

XIV. Bantu tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar markaziy va Janubiy Afrikada yashaydi. Bu tillar: teke, songo, suaxeln, konde, makua va sotko kabi bir necha guruhlarga bo‘linadi.

XV. Paleoafrika tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar ham Afrikada yashaydi. Ular ikki guruhga ya’ni bushmen va gottentog tillari guruhiga bo‘linadi.

XVI. Paleoosyo tillari. Bu tillarda so‘zlashuvchilar Rossiya Federasiyasining Shimoli-Sharqida yashaydi. *Paleoosyo tillari ikki guruhga:*

1. Chukot guruhi va 2) Sibir‘ guruhiga bo‘linadi. Chukot guruhiga chukot tili (1,5 ming kishi so‘zlashadi), koryak tili (7 ming kishi so‘zlashadi), kamchadal tili (2,5 ming kishi so‘zlashadi) kiradi. Sibir guruhiga odul tili (ming kishi so‘zlashadi), nivx tili (4 ming kishi so‘zlashadi), ket tili (2 ming kishi so‘zlashadi) kiradi.

XVII. Eskimos tillari guruhi. Bu tillar guruhiga: eskimos tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Chukotka yarim orolida, Vrangel‘ orolida, alyaskaning shimolida, Kanadada. Grenlandiyada yashaydi) va aleut tili (bu tilda so‘zlashuvchilar Komandor va Aleut orollarida yashaydi) kiradi.

XVIII. Amerika hindularining tillari. Amerika hindularining tillari 200 dan oshiq bo‘lib, ular uch guruhga:

1) Shimoliy Amerika; 2) Markaziy Amerika; 3) Janubiy Amerika guruhlariga bo‘linadi.

XIX. Austr-Osiyo tillari. Bu tillarga: mon-kxmer (6 millionga yaqin kishi so‘zlashadi), bunda (6 milliondan ko‘p kishi so‘zlashadi), malakk, markaziy va janubi-sharqiy tillar guruhi kiradi.

XX. Hech qanday tillar guruhiga kirmagan Uzoq Sharq tillari:

1) *yapon tili.* Yaponianing (poytaxti Tokio) davlat tili bo‘lib, bu tilda 100 millionga yaqin kishi so‘zlashadi;

2) *ryukyu tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar Ryu-Kyu orolida yashaydi;

3) *quriya (koreya) tili.* Quriya Xalq Demokratik Respublikasining (poytaxti Pxen‘yan) davlat tili va Janubiy Quriya Respubilkasining (poytaxti Seul) davlat tili bo‘lib, bu tilda 60 milliondan ortiq kishi so‘zlashadi;

4) *ayn tili.* Bu tilda so‘zlashuvchilar 18 mingga yaqin bo‘lib, ular Yaponianing shimolidagi Xokkaydo orolida yashaydi.

XXI. Burjaski tili. Bu til ham hech qanday guruhga kirmaydi. Bu tilda so‘zlashuvchilar 30 mingga yaqin kishi bo‘lib, ular Hindistonning shimolida, Qorakorum dovonlarida yashaydi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, geneologik tasnif har bir tilning kelib chiqishini, tarixiy taraqqiyotini, tillarning o‘zaromunosabatini hozirgi ahvolini va shu kabi qator masalalarni chuqur o‘rganishni talab qiladi. Lekin anchagina tillar bu jihatdan ham chuqur tekshirilib o‘rganilmagan. Shuning uchun bu tillarning qaysi tillar bilan qardosh ekanligi, qaysi til oilasiga, qaysi til guruhiga mansub ekanligi ham hali hal qilinmagan.

Savol va topshiriqlar

1. Tillar tasnifi va tillar oilasi haqida fikringiz.
2. Hind-evropa tillari oilasi uning ichki bo‘linishi haqida gapiring.
3. Xom-som tillari oilasi.
4. Kavkaz tillar oilasi.
5. Ugor-fin tillari oilasi.
6. Turkiy tillar oilasi.
7. Xitoy-Tibet tillari oilasi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birlklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

10-§. TILSHUNOSLIK VA BOSHQA FANLAR

Reja

1. Tilshunoslikning fanlar tizimidagi o‘rni.
2. Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati.
3. Tilshunoslikning mantiq bilan munosabati.
4. Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati.¹⁰
5. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati.
6. Tilshunoslikning sotsiologiya bilan munosabati.
- 7.

Til kishilik jamiyatida yaratilgan bo‘lib, aloqa vositasi sifatida xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir. Uning ijtimoiy tabiatini ayrim shaxsga emas, balki jamiyat uchun xizmat qilishda namoyon bo‘ladi.

Til insoniyatning tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratgan barcha madaniy va ilmiy boyliklarini ifodalaydigan va avloddan avlodga meros qoladigan asosiy vositadir.

Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo‘ladi (boshqacha aytganda, «tug‘iladi », taraqqiy etadi, « o‘sadi»), bir jamiyat yo‘q bo‘lishi bilan til ham asta – sekin iste’moldan chiqqa boshlaydi va davrlar o‘tishi bilan o‘lik til bo‘lib qoladi. Masalan, lotin, sug‘d, qadimiy Xorazm tillari kabilalar bunga misol. Biroq tilninng paydo bo‘lishi (“tug‘ilishi”) taraqqiy etishi (“o‘sishi”) va iste’mol qilinmay qolishi (“o‘lishi”) biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Shuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiyot yo‘llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bog‘liq holda o‘rgangandagina masalani to‘g‘ri hal qilish mumkin.

Demak, jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lgan tilning bir butunligiga asoslanib, uni tirik organizmga o‘xshatish noto‘g‘ridir. Til o‘zining tuzilishi bilan, ayrim unsurlarining o‘zaro munosabati bilan butun bir tizimni tashkil etadi.

Tilshunoslik fani tarixida muhim o‘rin tutgan «Yosh grammatikachilar» maktabi vakillari tilning tarixiy hodisa ekanligini tilning eng asosiy xususiyati deb bildilar. Ularning fikricha, til avvalo uzoq tarixga ega bo‘lgan kishilik jamiyatni madaniyatining mahsuli bo‘lib, uni tarixiy jihatdan o‘rganish zarur. Shunga binoan, tilshunoslik tarixiy fan bo‘lib, tilning o‘ziga xos tabiatini, tilning o‘zgarish sabablarini o‘rganishi lozim. «Yosh grammatikachilar» maktabining eng yirik namoyandasini G. Paulning fikricha, tilshunoslik fani bilan til tarixi fani tushunchasi bir.«Yosh grammatikachilar» til hodisalarini ayrim (atomizm) holda o‘rganishni tavsiya qiladilar. Ular til va tafakkur, tillarning grammatik qurilishi turlicha bo‘lishi sabablari, tilning ijtimoiy tabiatini kabi masalalar bilan qiziqmadilar. Ular o‘sha davrda hukm surgan psixologik nazariyalarning ta’sirida bo‘lib, tildagi barcha hodisalarini individual psixologiya prinsiplari asosida hal qilishga intildilar.

Tilning ijtimoiy tabiatini uning ayrim shaxsda emas, balki jamiyatda mavjudligini taqozo etadi¹¹. Til jamiyat tomonidan yaratilgan bo‘lib, uning taqdiri

¹⁰ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 147-p.

¹¹ Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 181-p.

ham jamiyat taqdiri bilan chambarchas bog‘liqdir. Insonning butun hayoti til bilan bog‘liq bo‘lib, til yordamida kishilar obyektiv borliqni o‘rganadilar, o‘zaro fikr almashadilar, jamoa bo‘lib birlashadilar va mehnat qiladilar.

Til ijtimoiy hodisa sifatida tabiiy hodisalardan ajralib turadi. Masalan, kishilarning tabiiy -biologik va fiziologik xususiyatlari (ovqat yeyishi, nafas olishi, rivojlanishi va hokazo) tabiat qonunlariga muvofiq, jamiyatga bogliq bo‘lmagan holda rivojlanib boradi. Ammo tilda so‘zlashish na fikrlash uchun kishilik jamiyat (sotsial muhit) bo‘lishi shart. Chunki til kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish va fikr almashish ehtiyojlari natijasida paydo bo‘lgan. Shuning uchun ham til tabiiy hodisalardan farqli o‘laroq, kishilik jamiyat tomonidan yaratilgan va unga xizmat qiladigan ijtimoiy hodisadir.

Tilning boshqa ijtimoiy hodisalardan ajralib turadigan eng asosiy xususiyati shundan iboratki, til jamiyat faoliyatining barcha sohalariga xizmat qiladi. U kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan konkret-tarixiy norma sifatida jamiyat a’zolarining hammasiga teng xizmat qiladigan asosiy aloqa vositasidir. Shuning uchun ham til sinfiy xarakterga ega emas. So‘zlovchi insoniyat jamoasi tomonidan yaratilgan tildan foydalanadi va ushbu tilning qonun-qoidalariga rioya qiladi. Shu bilan bir qatorda, har bir so‘zlovchi ayniqsa adiblar, olimlar o‘zlarining nutq faoliyati jarayonida tilning rivoji uchun ma’lum hissalarini qo‘shadilar. Kishilar o‘zaro aloqa qilish, fikrlashishda tildan boshqa vositalardan ham foydalanadilar. Bular ovozli va grafik shaklda bo‘ladi va odatdagi so‘zlashuv nutqidan boshqa turli tovush signallari: zvonok, gudok kabilardan foydalaniladi.

Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi

Tilshunoslik yoki lingvistika muayyan tilning ijtimoiy tabiatini va jamiyatdagi vazifalari, uning ichki tuzilishi, faoliyati, tarixiy taraqqiyoti va tasnifiga oid tilshunoslikka oid fandir. Lingvistika so‘zi fransuzcha «Linguistique» so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslik demakdir. Uning asosi lotincha «Lingua» (til va nutq) bilan bog‘liqdir. Bu fan inson tilini o‘rganuvchi mustaqil fandir. Ma‘lumki, til, jo’n qilib aytganda, insonlar o‘rtasidagi asosiy muomala vositasidir. Tilsiz kishilik jamiyatni va xalq yashay olmaydi. Tilsiz insonning o‘zi ham mavjud bo‘la olmaydi. U inson uchun berilgan buyuk bir ne‘mat bo‘lib, jamiyat bilan birga taraqqiy etadi va shu jamiyat uchun xizmat qiladi. Til yo‘q ekan, inson ham, jamiyat ham bo‘lmaydi.

Fanda ta‘kidlanishicha, hozirgi zamon fani uchta asosiy bo‘limdan iborat:

- tabiatshunoslik yoki tabiiy fanlar (tabiatning mavjudligi, uning taraqqiyoti haqidagi qonuniyat va hodisalar);
- ijtimoiy fanlar, ya‘ni jamiyat haqidagi fanlar;
- falsafa tabiat, jamiyat va tafakkurning umumiyligi qonuniyatlarini o‘rganadi.

Tilshunoslik inson tili haqidagi fan sifatida ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Umuman, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning yaqinlashuvi natijasida, keng ma‘noda aytadigan bo‘lsak, texnik fanlar, xususan, qishloq xo‘jaligi va meditsina fanlari; tabiatshunoslik (tabiiy) fanlari (asosan, fizika) bilan falsafa (asosan, mantiq)ning yaqinlashuvidan matematik fanlar, xususan, matematik mantiq va

kibernetika vujudga kelgan. Umuman olib qaraganda, tilshunoslik fani hozirgi zamon fanlarining barchasi bilan ham juda yaqin aloqada bo'ladi. Chunki, inson faoliyatining barcha ko'rinishlarida, xususan, idrok qilish va o'zaro muloqot jarayonlarida til asosiy vazifani bajaradi. Bundan tashqari, tilshunoslik ham fanlar sistemasida boshqa bir qancha fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. «Bu aloqalarsiz tilshunoslikning o'rganish ob'ekti bo'lgan tilning o'ziga xos tomonlarini ochib berish mumkin emas. Masalan, tilshunoslikning fonetika bo'limida nutq tovushlarining akustik tomoni fizikaning akustika bo'limi ma'lumotlari asosida o'rganiladi. Nutq tovushlarining paydo bo'lismida ishtirok etadigan nutq organlarining vazifasini fiziologiya materialarisiz bayon qilish mumkin emas. yoki nutq patologiyasi muammolari tibbiyot tibbiyot fani bilan uzviy aloqada hal qilinadi. Tilshunoslikda lisoniy birliklarning boshqa lisoniy birliklar bilan birikish imkoniyatlari va ushbu imkoniyatning yuzaga chiqish masalalari bilan shug'ullanuvchi valentlik nazariyasining vujudga kelishi bevosita kimyo fanining ta'siri bilan bog'liqidir». Tilning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holatlar tilshunoslik fanini tarix fani bilan shunchalik zikh bog'laydiki, ikkalasini bir-biridan ajratish ancha mushkul. Shunga ko'ra aytish mumkinki, tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning bog'liqligini aniq kuzatish mumkin.

Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar

Tilshunoslik, birinchi navbatda, ijtimoiy fanlar sirasiga kiradi. Shu bois, u ijtimoiy fanlar bilan, ayniqsa, **tarix, psixologiya, pedagogika, iqtisodiy geografiya** bilan juda yaqin aloqadadir. Yuqorida ham aytib o'tganimizdek, tilshunoslikning tarix fani (ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti haqidagi fan) bilan uzviy aloqasini hech kim inkor eta olmaydi. Chunki, har qanday xalq tilining tarixi shu xalq tarixinining bir bo'lagidir. Bu holat, ayniqsa, muayyan bir tilning lug'at tarkibini tadqiq qilishda, uning shakllanishi va taraqqiyotini, yashash tarzini o'rganishda yanada yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, til urug' va qabila, elat hamda millat tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lgani uchun kishilik jamiyatining tarixi tilda bevosita o'z aksini topadi. Chunki, jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq shunday qonuniyat borki, jamiyatdagи har qanday o'zgarish, birinchi navbatda, tilda namoyon bo'ladi. Har qanday tildagi so'zlarning tarixini, tilning lug'at boyligini o'rganishda, unga tarixiy nuqtai nazardan to'g'ri baho berishda tarix fani tilshunoslikka katta yordam beradi. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida faol qo'llanishda bo'lib turgan arabcha, forscha-tojikcha va boshqa tillardan o'zlashgan so'zlarni o'rganishda tarixiy dalillar asosiy omil sanaladi.

Tilshunoslik va adabiyotshunoslik (adabiyot nazariyasi, adabiyot tarixi, adabiy tanqid) o'rtasidagi yaqin aloqa ham isbot talab qilmaydi. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik o'rtasidagi ittifoq natijasida filologiya (yunoncha: phileo - sevaman + logos - so'z) fani vujudga keldi. Tarixan bu termin qadimgi Gretsiyada bugungi ma'nosida qo'llanmagan; filologga nisbatan grammatik (grammatikos) termini qo'llangan. Bu davrlarda qadimgi Gretsiyada **grammatikachi** bilan **filolog** ikki xil ma'no uchun qo'llangan, xususan, filolog termini badiiy asarning mazmuni va uslubini o'rganish bilan shug'ullanuvchi shaxsga, grammatikachi (grammatist) termini esa grammatika, orfografiya, matn izohi kabilarni o'rganuvchi shaxsga

nisbatan qo'llangan. Keyinchalik, aniqrog'i, Uyg'onish davrida nafaqat til va adabiyot, balki tarix, huquq, din, falsafa kabi fanlarni o'rganuvchi klassik filologiya vujudga keldi. XIX asr o'rtalariga kelib filologiya o'z qamrov doirasini toraytirdi va uning ob'ektiga filologik fanlar sifatida tilshunoslik va adabiyotshunoslik kirdi.

Aytish mumkinki, poetika (yunoncha: poietike – poetik san'at, ijod, poeziya) tilshunoslik va adabiyotshunoslik fanlarining mushtarak ob'ekti sanaladi. Shuningdek, tilshunoslik va adabiyotshunoslikning o'zaro yaqin aloqalari stilistika, adabiy til tarixi, badiiy asar tili masalalari tahlilida yanada yaqqol ko'rindi. Ammo badiiy matn tahlilida har ikki fan uni o'ziga xos usullarda tadqiq etadi, o'rganadi. Adabiyotshunos tilni badiiy shakl va g'oyaviy mazmunning bir uzvi, adabiyotning asosiy elementi, so'z san'ati sifatida, tilshunos esa badiiy matnni muallifning nutqiy faoliyatini, til me'yori va uslubining aniq bir fakti sifatida tahlil qiladi. Badiiy asarda qo'llangan til vositalari tadqiqi bilan funksional stilistika shug'ullanadi.

Til shaxs nutqiy faoliyatining asosiy omili o'laroq psixologiya va tilshunoslik fanlarining predmeti sanaladi.

Tilshunoslik (psixologiya kabi) pedagogika bilan ham yaqindan aloqada bo'ladi. Ularning aloqalarini til o'qitish metodikasida to'liq kuzatish mumkin. Ayrim olimlar bu aloqani lingvovidaktika yoki lingvopedagogika deb ham atashmoqda. Ushbu so'zlarda qo'llangan **didaktika** termini ham yunoncha bo'lib, didaktikos – ibratli, namuna degan ma'nolarni anglatgan. Didaktika hozirda pedagogikaning ta'lim va mazmuni, umumiyligi metod va shakllari haqidagi bo'limidir.

Tilshunoslik va tabiiy fanlar

Tilshunoslik tabiiy fanlardan biologiya, fizika, kimyo, geografiya, geologiya, tibbiyat kabilalar bilan qaysidir jihatlari yuzasidan bog'langandir. Biz tilshunoslikni tabiiy fanlar sirasiga kiruvchi inson fiziologiyasi va antropologiyasi fanlari bilan aloqalarini ko'rib o'tamiz. Tilshunoslik uchun eng muhim jihat reflektor holatdagi inson nutqi faoliyatini nazariyasi bo'lib, uning asoschilari I.M.Sechenov hamda I.P.Pavlovdir. Inson ko'rish, eshitish, sezish orqali dunyonidagi idrok etadi, o'z hayotiy faoliyat davomida ana shu fiziologik holatlar – signallar sistemasi orqali voqeliklarni anglaydi, tafakkuri orqali ularning analiz-sintezini amalga oshiradi. Bularning barchasida fiziologik asoslar etakchilik qiladi. Fonetikaning anatomik-fiziologik aspekti fonetik birliklarning biologik asosini – inson organizmidagi ayrim a'zolarining nutq tovushlarini hosil qilishdagi rolini, ularning tuzilishi va faoliyatini o'rganadi. Nutq tovushlarining biologik asosini quyidagi turlarga bo'lish mumkin: 1) nutq a'zolarining anatomiyasini; 2) nutq a'zolarining fiziologiyasini; 3) nutq a'zolarining ijobiyetini.

Tilshunoslar va antropologlarning o'zaro qiziqish xususiyatlari ikki holatda to'qnashadi: birinchidan, tillarni tasniflashda, ikkinchidan, nutqning kelib chiqishi masalalarini o'rganishda. Qolaversa, inson nutqiga oid jihatlar bevosita fizikaning tadqiqot obyekti sanalgan akustikaga bog'lab o'rganiladi. Chunki fizikaning akustika bo'limi bilan tilshunoslikning fonetika bo'limi o'zaro bog'liqdir. Ma'lumki, akustika har qanday tovushning eshitish bilan aloqador xususiyatlarini

o'rganadi. Tilning tovush tomoni murakkab jarayon bo'lib, uning fizik-akustik tabiat, biologik asosi (nutq a'zolarining harakati), talaffuz etilishi va eshitilishi kabi xossalari bor. Tovushning sifat belgilari sanalgan tovush balandligi, tovush kuchi, tovush tembri, shuningdek, tovushning miqdor belgisi ko'rsatkichi bo'lgan tovush cho'ziqligi tilning fonetik birliklarining fizik tabiatи hisoblanadi. Shu bilan birga har qanday tovushning paydo bo'lish o'rmini, lab va burunning ishtirokini aniqlash uchun fizik asboblardan foydalaniladi. Fizikadagi magnit maydon, atomning tuzilishi singari masalalar tilshunoslikdagi leksik-semantik maydon, eng kichik til birliklarining bo'linuvchanligi singari nazariyalarning kelib chiqishiga zamin yaratdi. Bularning barchasi tilshunoslik bilan fizika fani uzviy aloqador ekanligini ko'rsatadi.

Ta'kidlash zarurki, tilshunoslik bilan aloqador fanlar tilning shu fanlar nuqtai nazaridan eng ahamiyatli aspektini o'rganadi. Masalan, sotsiolingvistika tilning ijtimoiy hodisa ekanligini, til va jamiyat munosabatlarini, ya'ni tilning kommunikativ vazifasini o'rganadi. Mantiq fani bilan tilshunoslikning o'zaro aloqadorlik tomoni til bilan tafakkur munosabatlarida yaqqol ko'rindi. Chunki tilshunoslikning o'rganish obyekti bo'lgan til tafakkur bilan bevosita bog'liqdir. Mazkur darslikning maxsus bir bo'limi til va tafakkur munosabatlariga bag'ishlanganligi ham bejiz emas.

Tilshunoslik va matematika o'rtasidagi munosabat masalasini ochib berish ancha murakkab. Shunday fikr borki, har qanday fanni «fan» deb atash uning ichiga matematikaning qanchalik kirib borganligi, unda qo'llanish darajasining qay darajada ekanligi bilan belgilangan. Bu - bejiz emas, albatta. Chunki matematika aniqlikni yoqtiradi. Matematikada har qanday masala aniq o'z echimiga, natijasiga ega. XX asrga kelib ko'pgina matematiklar hamda yaratilgan matematika maktablari matematikani nafaqat aniq fanlarda, xususan, fizika yoki texnikada, balki ijtimoiy fanlarda ham qo'llay boshladilar. Buning natijasi o'laroq tilda ekonometrika (iqtisodiyotda matematik metodlarni qo'llash), matematik mantiq, matematik lingvistika, kompyuter lingvistikasi kabi terminlar paydo bo'ldi. Aytilganidek, XX asrda matematik mantiq fani mustaqil bir fan sifatida ish ko'rdi. Umuman, matematik mantiq matematikaning o'ziga xos bir bo'limi sifatida shakllandi. Matematik lingvistika haqida ham shunday fikrlarni aytish mumkin. Lekin shuni ta'kidlash lozimki, matematik lingvistikaga maxsus yoki o'ziga xos lingvistika sifatida qaramaslik kerak. Bunda til hodisalarida matematik usullardan foydalaniladi. Eng muhimi, bu bevosita tilga emas, balki nutqqa oiddir. Masalan, ehtimollar nazariyasi yoki matematik statistikaning qo'llanishi.

Hozirgi kunga kelib kompyuter lingvistikasi keng rivoj topmoqda. U oliv o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida maxsus predmet sifatida o'qitilmoqda.

Xullas, tilshunoslik til haqidagi mustaqil fan bo'lib, uning ob'ekti til bo'lib, tilshunoslikdan tashqari yana bir necha fanlar tomonidan o'rganilishni talab qiladigan murakkab sohadir. Tilning mohiyatini o'rganish va tilshunoslik fanining predmetini aniqlash o'z navbatida tilni o'rganadigan boshqa fanlarning yutuqlarini nazarda tutishni va tilshunoslikning asosiy masalalarini hal qilishda ularni inobatga olishni taqozo etadi. Tilshunoslik boshqa fanlar bilan qanchalik aloqada bo'lmasin,

uning o‘z tadqiqot obyekti va tadqiqot chegarasi mavjud va mustaqil fan sifatida fanlar sistemasida qat‘iy o‘rniga ega.

Xullas, —Tilshunoslik asoslari fani umumiylar tilshunoslikning muammolarini tushunishga tayyorlaydi va shu bilan birga til haqidagi dastlabki ma‘lumotlarni beradi.

Savil va topshiriqlar

1. Tilshunoslikning fanlar tizimidagi o‘rni.
2. Tilshunoslikning ijtimoiy fanlar bilan munosabati.
3. Tilshunoslikning tarix bilan munosabati.
4. Tilshunoslikning matematika bilan munosabati.
5. Tilshunoslikning etnografiya bilan munosabati.
6. Tilshunoslikning kimyo bilan munosabati.
7. Tilshunoslik fanining eng qadimiy ta‘limotlari va maktablari qayerda yuzaga kelgan?
8. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslik qachon vujudga kelgan?
9. Tilshunoslik qachon alohida fan sifatida ajralib chiqdi?
10. Tilshunoslik fanining taraqqiyotiga qaysi olimlar katta hissa qo’shganlar?
11. Tilning mohiyati haqida qanday fikrlar mavjud?
12. Til va boshqa ishoralar sistemasining farqlari nimalardan iborat?
13. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlarning aloqasi qanday?
14. Tilshunoslik va tabiiy fanlarning aloqasi haqida nimalarni bilasiz?
- 15.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo‘ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

11-§. LINGVISTIK TAHLIL METODLARI

Reja

1. Metod tushunchasi.
2. Tilshunoslik fani metodlari: umumiy metodlar va lingvistik tahlil metodlari.
3. Hozirgi zamon tilshunosligida qo'llanadigan lingvistik tahlil metodiları.
 - a. tarixiy – qiyosiy metod;
 - b. substitusiya (almashtirish) metodi;
 - c. distributiv metod;
 - d. tarkibiy qismlarga ajratish metodi;
 - e. tranformatsion metod;
 - f. statistik tahlil metodi;
 - g. ma'no ko'lamenti tahlil qilish metodi.

***** Lingvistika turlari**

Muhtaram talabalar, mana Siz „Tilshunoslik asoslari“ fani bo'yicha etarli bilimlarga ega bo'ldingiz. Ishonchimiz komilki, orangizda tilshunoslik ilmiga qiziqib, kelajakda etuk tilshunos olim bo'lishi istagi uyg'onganlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Shunga ko'ra mazkur mavzu tilshunoslik ilmiga dastlabki qadam hisoblanadi. Ushbu mavzuni yaxshi o'zlashtirgan holda Siz bugungi kundanoq ilmiy-tadqiqot yo'naliishingizni tanlab olasiz. Tilshunoslik bilan shug'ullanayotgan har bir tadqiqotchi esa lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'lmay iloji yo'q. Zero bu bilimlarsiz hech qanday tadqiqot ishini olib borib bo'lmaydi. Umuman, har qanday yo'naliishdagi til ta'limida yuqoridagi ma'lumotlar muhim o'rinn tutadi. Siz yuqori kursda —Umumiy tilshunoslik fanini o'qiganda ushbu mavzular bo'yicha chuqur va batafsil bilim olasiz, albatta. Ammo ungacha lingvistika turlari va lingvistik metodlar haqida boshlang'ich ma'lumotlarga ega bo'ling.

Lingvistika termini qator Yevropa mamlakatlari: ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus va boshqa tillarda faol qo'llanilib, til haqidagi fanni anglatadi. Ushbu so'zning o'zagi *lingua* bo'lib, til degan ma'noni beradi. Binobarin, lingvistika terminining o'zbek tilidagi muqobili, ma'nodoshi tilshunoslik bo'lib, ular o'zaro sinonimik munosabatga kirishadi.

Lingvistika yoki tilshunoslik fani o'ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo'lgan aloqa qurolini – tilni sistema sifatida – bir butun ob'ekt sifatida tadqiq va tahlil qiladi. Ayni jarayonda u turli ko'rinishlarda, shakllarda kuzatiladi. Bu ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan tilning mohiyatidan, uni turli tomonidan o'rganish, tekshirish lozimligidan va bu ilmiylik nuqtai nazaridan mutlaqo to'g'ri ekanligidan kelib chiqadi.

Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi, millat boyligi bo'lgan tilni o'rganish jarayonida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Dinamik lingvistika.
2. Statik lingvistika.
3. Atomistik lingvistika.
4. Struktural lingvistika.
5. Sinxron lingvistika.
6. Diaxron lingvistika.
7. Intralingvistika.
8. Ekstralengvistika.
9. Makrolingvistika.
10. Mikrolingvistika.
11. Paralingvistika.
12. Psixolingvistika.
13. Sostiolingvistika.
14. Etnolingvistika.
- 15.

Matematik lingvistika. 16. Neyrolingvistika. 17. Kompyuter lingvistikasi. 18. Kognitiv lingvistika va b.

Lingvistika turlaridan qaysi biri Sizni qiziqtirib qo'ydi? Lingvistika turlaridan biri tanlashdan oldin Siz eng muhim yo'nalishni - jihatni tanlab olishingiz zarur, ya'ni Siz sinxron lingvistika bilan shug'ullanasisizmi yoki diaxron lingvistika bilan? Soddarot qilib tushuntirganda, Siz til tarixini tadqiq qilisizmi yoki uning hozirgi (zamonaviy) holatini, shuni aniqlashtirib olish kerak bo'ladi. Ushbu jihat aniqlashtirilganidan so'ng tadqiqotchi o'z metod va metodologiyasini belgilab olishi zarur, zero sinxron lingvistika tadqiqot metodlari bilan diaxron lingvistikating tadqiqot metodlari bir-biridan farq qiladi.

Tadqiqotchi qaysi ob'ektni va uning qaysi xususiyatlarini tekshiradi? Bunda bizga lingvistik metodlar haqidagi ma'lumotlar yordamga keladi.

Tilshunoslik fanining o'rganish sohasi bo'lgan tilni har tomonlama tahlil qilish fan taraqqiyotiga mos metodlarni taqozo etadi.

Har bir sohani tahlil etuvchi har qanday metod quyidagi talablarga javob berishi lozim.

1. Metod ob'yektiv bo'lmog'i kerak. Metodning qo'llanish vaqtি va o'rnidan qat'iy nazar, natija bir xil bo'lishi lozim. Subyektiv yondashuvlar metod qiymatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

2. Metod izchil bo'lishi, aniq tushunchalarga asoslanishi lozim.

3. Metod universal bo'lishi, ya'ni sohaning asosiy bo'limlarini (kamida to'rtta) tahlil qila olishi kerak.

4. Metod foydalanish mumkin bo'lgan darajada sodda bo'lishi lozim.

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lgan bir necha metod qo'llanadi. Bu metodlar xarakteriga ko'ra ikki xil:

- umumiyl metodlar;
- lingvistik tahlil metodlari.

Ushbu metodlar bir – biriga bog'liq holda ish ko'radi va muayyan xulosalarini bayon etadi.

Umumiyl metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir. Jumladan, umumiylidan xususiyga, xususiydan umumiyliga, analiz – sintez, oddiyidan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari deyarli barcha sohalarda amal qiladi.

Lingvistik tahlil metodlari tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi.¹²

Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistik tahlil uchun quyidagi metodlar qo'llanadi:

- gap bo'laklari metodi;
- tarixiy – qiyosiy metod;
- substitusiya (almashtirish) metodi;
- distributiv metod;

¹² Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006. 172-p.

- tarkibiy qismlarga ajratish metodi;
- transformatsion metod;
- statistik tahlil metodi;
- ma’no ko‘lamini tahlil qilish metodi.

1. Gap bo‘laklari metodi tilshunoslik taraqqiyotining dastlabki davrlaridanoq amalda bo‘lgan. Bu metodga ko‘ra gaplar bo‘laklarga ajratiladi. Bunda so‘zning gapdagi vazifasiga asoslaniladi. Gap bo‘laklari tahlili quyidagicha amalgam oshiriladi.

a) Gapning bosh bo‘laklari (ega va kesim), ikkinchi darajali bo‘laklari (to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol) ajratiladi.

b) Gap bo‘laklari vazifasida qaysi so‘z turkumi keltirilayotganligi aniqlanadi.

c) Gap bo‘lagi vazifasida kelayotgan so‘zlarning grammatik shakllari (morfologik kategoriyalar) izohlanadi.

Ushbu metod faqat sintaksis bo‘limda amal qiladi. Bu metodni qo‘llashdagi murakkabliklar deyarli barcha tillarda kuzatiladi.

3. Tarixiy-qiyosiy metod qiyosiy-tarixiy tilshunoslik asoslanadigan birlamchi metod hisoblanadi. Bu metod dunyo tillarining rang-barangligi, ular o‘rtasidagi o‘xhash va farqli jihatlarni qiyoslash asnosida shakllandi. Ushbu metod quyidagi masalalarni hal etadi:

a) Tillarning o‘ziga xos xususiyatlarini va boshqa tillar bilan o‘xhash jihatlarini qiyoslash natijasida ularni qarindosh yki qarindosh emasligini aniqlash;

b) Qarindosh deb topilgan tillarni o‘zaro qiyoslab o‘rganib, ular uchun umumiy bo‘lgan ginetik asosni aniqlash; bu taxlit o‘rganishda **retrospektiv** qiyoslash usulidan foydalanish. Bunda tillarning hozirgi holatini qiyoslashdan tarixiy ko‘rinishlariga qarab boriladi.

c) Tillarning tadrijiy taraqqiyoti o‘rganiladi, ya’ni tilning hozirgi holatigacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini qiyosan tahlil qilish mumkin. Bunday qiyoslash **prospektiv** qiyoslash deyiladi. Bunda tarixiy yozma yodgorliklar boshlang‘ich manba sifatida xizmat qiladi.

Bu usul yordamida tillar oilasi aniqlanadi. Masalan hind-yevropa tillari oilasi, turkiy tillar oilasi, mo‘g‘ul tillar oilasi va hokazo. Til oilalari ma’lum xususiyatariga ko‘ra ya’na guruhlarga ajratiladi. Jumladan, turkiy tillar o‘ttizga yaqin guruhga bo‘linadi.

4. Substitutsiya metodi, almashtirish usuliga asoslanadi. Nutqdagi ma’lum bir o‘rinda turgan til birliklari va boshqa muqobili bilan almashtirilib, hosil bo‘lgan uslubiy o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida sinonim, antonym, omonim so‘z larning lug‘aviy ma’no tizimida tutgan o‘rni belgilanadi.

5. Distributiv metod til birliklarining nutq jarayonida boshqa bir birliklar bilan birika olish imkoniyatini tahlil etadi. Distributivsiyani “sintaktik imkoniyat “ sifatida izohlash mumkin. Masalan, biror so‘z, morfema, fonemaning boshqa so‘z, morfema, fonema bilan munosabatga kirish imkoniyati shu birliklarning distributsyasi deyiladi.

Distributsiyaning morfologik, sintaktik va leksik-semantik turlari mavjud.

Morfologik distributsiya bir turkumdag'i so'zning boshqa turkumdag'i so'z bilan munosabatga kira olishidir: sifat bilan ot, ravish bilan fe'l.

6. Tarkibiy qismlarga ajratish metodi har qanday butunlikni, xususan gapni hokim va tobeklik munosabatida bo'lgan qismlardan iborat sifatida tahlil etadi. Bu metod grammatik sathda: morfologiya va sintaksisda amal qiladi.

7. Transformatsion metod zamona iy usullar ichida eng mukammali hisoblanadi. Ushbu metod tildagi sintaktik jarayonni tushuntirish imkoniga egaligi bilan xarakterlidir.

8. Statistik tahlil tilning barcha sathlarida qo'llanadi, shuning uchun universal hisoblanadi. Bu metod til birliklari va til hodisalarining nutqda ishlatalish darajasini aniq ko'rsatib beradi.

9. Ma'no ko'lamenti tahlil qilish metodi so'zning lug'aviy ma'no ko'lamenti alohida ma'no qirralariga ajratib tahlil etadi. Bu metod ko'p ma'noli so'zlarning ma'no ko'lamenti yoritishda ahamiyatlidir.

Umuman, tilshunoslik sohasiga xos eng umumiyligiga xususiy qonuniyatlarni aniqlashda lingvistik metodlarning o'rni beqiyosdir.

Lingvistik metodlar

Metod etimologik jihatdan grekcha methodos so'zidan olingan bo'lib, —tadqiqot, —o'rghanish degan ma'noni anglatadi.

Metod bilish nazariyasiga ko'ra voqelikka yondashish – tabiat, jamiyat va fikrleshish jarayonini – tafakkurni bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma'noda ob'ektiv voqelikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish, tushuntirish va talqin qilish yo'lidi. Ayni vaqtida metod umumiyligiga – falsafiy ma'noda qo'llanishdan tashqari u tor (xususiy) ma'noda ham qo'llanish imkoniyatiga ega. Bu holda u muayyan fanga oidligi bilan, ayni fanning tadqiqot ob'ektini (manbaini) tahlil qilish bilan muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Demak, metod maxsus, xususiy, sohaviy metod sifatida turlicha fanlarda turlicha bo'lishi bilan ajralib turadi. Boshqacha aytganda, metod umumiyligiga xususiy, falsafiy va sohaviy ko'rinishlarga egaligi bilan xarakterlanadi.

Metodologiya – tadqiqotchining maqsadi bilan bog'lanib, tadqiqot manbaini qanday tushunishi va unga qanday usul bilan yondashishi – shu asosda ob'ekt yuzasidan muayyan nazariy yoki amaliy, mantiqiy (ichki) yoki tavsifiy (shakliy tashqi) bilimlarni hosil qilishidir.

Yuqorida ta'kilanganidek, sinxron va diaxron tilshunoslik metodlari turlicha, shunga ko'ra tilshunoslik fanida mavjud - amaldagi metodlar ikkiga ajratiladi: 1. Diaxron tadqiqot metodlari. 2. Sinxron tadqiqot metodlari.

Diaxron tadqiqot metodlari miqdoran chegaralangan bo'lib, ular tarixan tashkil topganligi, ya'ni qo'llanishiga ko'ra uzoq davrlarga borib taqalishi – uzoq tarixga egaligi bilan ajralib turadi. Ushbu metodlar jahon tilshunosligi amaliyotida ko'p asrlardan beri tillar tabiatini, tarkibini tekshirishda, tadqiq va tahlil qilishda faol xizmat qilganligi va jahon tilshunos olimlari tomonidan to'la tan olinganligi

sababli ular an'anaviy, ya'ni tradistion metodlar deb ham yuritiladi. Diaxron tadqiqot metodlariga, asosan, quyidagilar kiradi:

1. Tasviriy metod. 2. Qiyosiy – tarixiy metod. 3. Chog'ishtirish metodi. 4. Tarixiy - qiyosiy metod. 5. Tipologik metod.

Sinxron tadqiqot metodlariga, asosan, quyidagilar kiradi:

1. Distributiv tahlil metodi. 2. Statistik tahlil metodi . 3. Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi. 4. Transformastion tahlil metodi. 5. Komponent tahlil metodi . 6. Valentlik tahlil metodi. 7.Eksperimental – fonetik tahlil metodi. 8. Avtomatik tahlil metodi .

Savil va topshiriqlar

1. Metod tushunchasini izohlang.
2. Tilshunoslikdagi umumiy va lingvistik tahlil metodlariga izoh bering.
3. Hozirgi zamон tilshunosligida qo'llanadigan lingvistik tahlil metodilarini sanang va izohlang.
4. Lingvistikaning qanday turlari mavjud?
5. Metod nima?
6. Metodning qanday ko'rinishlari mavjud?
7. Metodologiya nima?
8. Metodlar nechtaga bo'linadi?
9. Nima uchun diaxron tadqiqot metodlari deyiladi?
- 10.Diaxron tadqiqot metodlariga qanday metodlar kiradi?
- 11.Diaxron tadqiqot metodlariga qanday metodlar kiradi?

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Nurmonov A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. -Toshkent, 2001.
4. Nurmonov A. Lingvistik tadqiqot metodologiyasi va metodlari.-Toshkent, 2010.
5. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -Toshkent, 2002.
6. Hojiev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.-Toshkent, 2002.
7. Xolmanova Z. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2007.
8. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. -Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.

Mustaqil ta'lif uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi:

1. Tilning tizim sifatidagi mohiyati.
2. Tilshunoslik va semiotika.
3. Sharq mutafakkirlarining til shakllanishiga oid qarashlari.
4. Til oilalari: Hind-yevropa tillari oilasi. Roman tillari.
5. Leksemaning semantik tabiatи; leksema va semema.
6. Lug'aviy sath taraqqiyotining ichki va tashqi manbalari.

7. Lug‘aviy birliklarning qo‘llanish doirasiga ko‘ra guruhlanishi: iste’mol doirasi chegaralangan va keng iste’mol qatlami.
8. Terminlar mohiyati.
9. Frazemalarning semantik turlari: omonim, sinonim, antonim iboralar.
10. Grammatika –til gap qurilishini o‘rganuvchi soha sifatida. Morfologiya va sintaksis.
11. Grammatik ma’noni ifodalovchi vositalar.
12. Fonema nazariyasi tarixidan. Fonemalar haqida turli fonologik maktab vakillarining fikrlari (N.S. Trubetskoy, L.V. Shcherba qarashlarini o‘rganish).
13. “Umumiy tilshunoslik” kursining asosiy masalalari.
14. O‘rta asrlar Sharq va yevropa tilshunosligi.
15. Qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning vujudga kelishi va rivojlanishi.
16. Yosh grammatikachilar matabining yutuqlari va kamchiliklari.
17. F.de Sossyur ta’limoti va strukturalizm.
18. Neolingvistika.
19. Praga lingvistik maktabi ta’limotida fonologiyaning o‘rni.
20. Glossematika maktabi ta’limoti.
21. Amerika deskriptiv lingvistikasi.
22. Psixolingvistika – til va tafakkur birligini yorituvchi soha sifatida.
23. Tilshunoslik fanining zamonaviy tahlil usullari.

“Tilshunoslik nazariyasi” fanidan nazorat savollari

1. Til sathlarini ayting va ular o’rtasidagi uzviy aloqadorlikni asoslang.
2. Tilning lug‘at boyligini oshiruvchi omillar qaysilar va til taraqqiyoti uchun ulardan qaysi biri muhimroq?
3. Grammatik sath necha qismdan iborat va bu qismlarning o‘rganish ob’ekti nima?
4. Nutq fonetik jihatdan necha qismga ajratiladi? har birini ta’riflang.
5. Til taraqqiyotidagi kombinator va pozitsion tovush o‘zgarishlarini misollar asosida izohlang.
6. Morfologik qayta bo’linish sabablarini tushuntiring.
7. Yozuv va uning tarixiy ko’rinishlari haqida ma’lumot bering.
8. Lingvistik tahlil jarayonida qo‘llanadigan asosiy metodlarni tavsiflang.
9. Transformatsion metodni misollar asosida izohlang.
10. Statistik metod va uning til hodisalarida mavjud bo’lgan aniqlikni ifodalashdagi o’rnini asoslang.
11. Sinxron lingvistik metodlarni tavsiflang.
12. Qiyosiy-tarixiy metodning “Tilshunoslikka kirish” faniga doir masalalarni hal qilishdagi o’rnini ko’rsating.
13. Millatlararo tillar. Xalqro tillar. Sun’iy til.
14. Til fikr ifodasi va fikr manbai sifatida.
15. Til birliklari va nutq birliklari.
16. Til sathlari; tilning fonetik-fonologik sathi.
17. Tilning lug‘at sathi. Tilning leksik taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.

18. Til birliklarning alohida tizim sifatida o'zaro mutanosibligi.
19. Til jarayonidagi fonetik o'zgarishlar.
20. Yozuv va uning tarixiy ko'rinishlari. Gap bo'laklarini ajratish metodi.
21. Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlar
22. Tilshunoslik tarixi.
23. O'zbekistonda til ilmi tarixining asosiy bos?ichlari.
24. Tilshunoslik maktablari.
25. Tilshunoslik maktablari ta'limotlarining asosiy mohiyati.
26. Til strukturasi. Fonetika va fonologiya muammolari.
27. Grammatika va grammatick ta'limotlar.
28. Lingvistik tahlil metodlari.
29. Lisoniy tadqiqotlarga xos paradigmalar.
31. Sotsiolingvistika. Til va jamiyat munosabatlari.

Tilshunoslikka oid ayrim so'zlar izohi

Abbreviatura (ital)-qisqartma so'zlar.

Abzats (nem)-xat boshi.

Abstrakt ot (lot.)-mavhum ot.

Avtor gapi - muallif gapi.

Adabiy til-umumxalq tilining ishlangan, sayqal berilgan, ma'lum me'yorga solingan, xalqning turli madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy tilning ikki shakli bor: 1) yozma shakli. 2) og'zaki shakli.

Alfavit - alifbo (yunon alifbosidagi birinchi ikki harfning nomi: alpha va beta).

Antonim (yun.)-o'zaro zid, qarama-qarshi ma'noli til birliklari.

Argo (frans.)-yasama til. Biror ijtimoiy guruh, toifa (masalan, talabalar, sportchilar, o'g'rilar)ning o'ziga xos, boshqalar tushunmaydigan lug'aviy birlıklardan iborat yasama tili.

Arxaizm (yun.)-ma'lum davr uchun eskirgan, iste'moldan chiqa boshlagan til birligi (so'z, frazeologizm va b.).

Affiks (lot.)-qo'shimcha.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta'sir qilib o'ziga moslashtirishidir. **Progressiv assimilyatsiya** - aytdi-aytti, yurakga-yurakka. **Regressiv assimilyatsiya** – yigitcha-yigichcha, tuzsiz-tussiz.

Bog'lama fe'l bo'lмаган so'zni fe'lga xos ma'no va vazifaga moslovchi yordamchi fe'l.

Dissimilatsiya – ikki o'xhash tovushning o'rin almashinushi. **Progressiv dissimilyatsiya**: birorta-bironta. **Regressiv dissimilyatsiya** – ittifoq-intifoq

Eksperimental fonetika – nutq tovushlari artikulyatsiyasidagi havo tebranishi, tebranish miqdori sarflangan vaqt, oberton qanday yuzaga chiqishi kabilar ma'lum texnik apparatlar vositasida aniqlanadi va shu asosda fonetik qonuniyatlar bo'g'in, urg'u, intonatsion xususiyatlar aniqlanadi.

Fraza – nutqning yagona intonasiyaga ega o'zaro to'la pauza bilan ajraluvchi qismi.

Fonetik transkripsiya – talaffuzni aniq ifodalashga xizmat qiladi va xorijiy tillar lug'atida keng qo'llaniladi. Har bir talaffuz qilingan tovushni aks ettirish

fonetik transkripsiyaning asosiy vazifasidir. Transkripsiya har qanday alfavitga asoslangan bo‘lishi mumkin. Ba’zi maxsus tovushlarni belgilash uchun esa diakritik belgilardan, boshqa alifbelardan qo‘shimcha belgilar olishdan, mavjud belgilarni teskari yozish yo‘lidan foydalaniladi. Fonetik transkripsiya chet tilini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega..

Fonematik transkripsiya – Grammatika kitoblarida misollarning morfologik strukturasini ko‘rsatish uchun ko‘proq ishlataladi, chunki bunday hollarda so‘z talaffuzidan ko‘ra so‘z tarkibi ahamiyatlidir; mazkur transkripsiya asosan fonemalarni qanday o‘rinda ishlatalgan bo‘lishidan qat‘i nazar, doim bir xil belgi bilan ko‘rsatishdir.

Flektiv tillar –o‘zak morfema va affiksal morfema chegarasini ajratish qiyin bo‘lgan tillar.

Unga xos belgilar:

- bir affiks bir necha ma’noni beradi
- affiks bir vaqtida ham shaxs, zamon va sonni ko‘rsatishi mumkin.
- affiks bir necha variantga ega bo‘lishi mumkin
- o‘zak va negizga affikslar qo‘shilganda tovushlar almashinushi kuzatilishi mumkin.

- o‘zak va negiz, negiz va grammatik affikslar o‘rtasidagi chegarani belgilash qiyinchilik tug‘diradi.

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, tiplari, tovushlar o‘zgarishi, bo‘g‘inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturasi; urg‘u, urg‘u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog‘idir.

Vulgarizm (lot.)- dag‘al so‘z.

Grammatika (yun.)-tilshunoslikning so‘z shakllari (shakl yasalishi), so‘z birikmalarining turlari, gap turlari (tilning grammatik qurilishi) haqidagi bo‘limi.

Grammatik ma’no - so‘zning shakliy qismi grammatik shakli ifodalaydigan ma’no.

Grafika (yun.)-nutq tovushlarini yozib ifodalash vositalarining muayyan tuzilishi.

Dialekt (yun.)-umumxalq tilining ma’lum bir hududda qo‘llanadigan ko‘rinishi.

Dialog (yun.)- suhbatdoshlarning bevosita bir-biriga qaratilgan nutqi.

Jargon (fr.)- biror guruh vakillarining o‘z nutqi bilan ko‘pchilikdan ajralib turish maqsadida o‘zgacha ma’noda qo‘llaydigan so‘z va iboralar.

Leksema (yun.)- tilning lug‘at tarkibiga xos birlik; til qurilishining lug‘aviy ma’no anglatuvchi birligi.

Leksik ma’no- so‘zning material qismi (leksema) bildiradigan ma’no; lug‘aviy ma’no.

Lingvistika - tilshunoslik.

Morfema (yun.)- tilning ma’noli, boshqa ma’noli qismlarga bo‘linmaydigan eng kichik birligi. Morfema ikki xil bo‘ladi: 1) o‘zak (so‘z) morfema; 2) affiksal morfema (qo‘shimcha morfema).

Morfemika-morfemalarning mohiyati, tuzilishi, turlari haqidagi bo‘lim, ta’limot.

Morfologiya (yun.)-grammatik ma’no so‘z shakllari, so‘z turkumlari haqidagi grammaatik ta’limot.

Neologizm (yun.)- yangi so‘z, iboralar. Neologizmlar – taraqqiyotni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o‘zlashib ketmagan so‘zlardir.

Numerativ-hisob so‘zлари.

Nutq tovushi – o‘pkadan kelayotgan havoning nutq organiga urilishidan hosil bo‘lgan tebranish.

Olinma so‘z - o‘zlashma so‘z.

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg‘unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

Tavsifiy fonetika – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Fonetikaning sillabika, akustika, intonasiya, tovush o‘zgarishi va uning qonuniyatlari haqida ma’lumot beriladigan sohasi.

Tarixiy fonetika – nutq tovushlari taraqqiyoti o‘zgarishi bilan bog‘langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayonlar tarixiy yodgorliklar orqali yoritiladi.

Triftonglar – tarkibi uch tovushdan iborat. Masalan: [av..]

Transkripsiya – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo‘lgan tillarda ushbu yozuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o‘qish-o‘qitish ishlarida keng foydalilanildi.

Qiyosiy fonetika – qardosh tillar uchun umumiy hodisa va qonuniyatlarning holati, qo‘llanish miqdorlari, o‘ziga xosligi qiyos qilinadi.

AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlarda talabalar til birliklari, til va jamiyat, tilning ijtimoiy funksiyasi, semiotik tabiatni, til va nutq, til va tafakkur, til strukturasi masalalarini o‘rganadilar. Talabalar ma’ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim va ko‘nikmalarini amaliy tahlil orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalananish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop ettirish orqali bilimni oshirish, matn ustida ishslash, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash, test savollari tuzish tavsiya etiladi.

Amaliy mashg‘ulot soatlarining mavzular bo‘yicha taqsimlanishi

T/r	Amaliy mashg‘ulot mavzulari	Soat
1.	Tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalari.	2
2.	Me’yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Kreol tillar. Pijin tillari.	2
3.	Nutqning fonetik bo‘linishi.	2
4.	Yozuvning paydo bo‘lishi. Yozuv turlari.	2
5.	Til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar.	2
6.	Morfologik va geneologik tasnif.	2
7.	Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati.	2
8.	Tilshunoslik va aniq fanlar munosabati.	2
Jami:		16

AMALIY MASHG‘ULOTLAR ISHLANMASI.

1-amaliy mashg‘ulot.

Tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalari.

Tilning kommunikativ, emotsional-ekspressiv, akkumulyativ funksiyalari. Til kishilar o‘rtasidagi munosabatning eng muhim quroli bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va umuminsoniy manfaatlarga xizmat qiladi. Tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liq ekan, inson kamoloti haqida fikr yurituvchi barcha fanlarning o‘rganish manbai tilga aloqador hisoblanadi.

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

Tilning kommunikativ xususiyatlari haqida nimalarni bilasiz?

Tilning emotsional-ekspressiv deganda nimani tushunasiz?

Tilning akkumulyativ funksiyalari deganda nimani tushunasiz?

Tilning kommunikativ xususiyatlariga doir test tuzing.

Tilning emotsional-ekspressivga doir test tuzing.

Tilning akkumulyativ funksiyalariga doir test tuzing.

1. *Aloqa – munosabat vazifasi*. Tilning mazkur vazifasi jamiyatda aloqa – munosabat vositasi sifatida xizmat qilishdan iborat. Bu tilning asosiy ijtimoiy vazifasi hisoblanadi. Til belgilari uni aloqa - munosabatning boshqa vositalaridan farqlash, tilni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Til aloqa – munosabatning muhim vositasi sifatida jamiyat bilan, uning madaniyati, turmush tarzi va mehnat faoliyatidagi har bir jarayon bilan muntazam bog‘liq. Kishilar o‘z fikrlarini, sezgi va ruhiy kechinmalarini ifoda qilib, bir – birlariga ta’sir ko‘rsatadilar.

2. *Tilning hissiy ta’sir vazifasi*. Tilning muayyan ma’lumotni ifoda etib, tinglovchiga ta’sir ko‘rsatishi uning hissiy - ta’siriyl vazifasi hisoblanadi. Xabar, sezgi va hayajon, xohish ifoda qilish hissiy ta’sir vazifasining asosini tashkil etadi. Bunda turli tasviriyl til vositalaridan, jumladan, modal so‘zlar, javob talab qilmaydigan so‘roq, tartibni o‘zgartirish kabilardan foydalaniadi.

3. *Tilning to‘plash vazifasi*. Til aloqa – munosabat vositasi, hissiy ta’sir ifodasi bo‘lib qolmay, to‘plash vazifasini bajaruvchi muhim manba hamdir. Til millatlararo aloqa - munosabat vositasi, to‘plangan bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish vositasi hisoblanadi. Tilning ushbu vazifasi bilish jarayonidagi asosiy vositalardan hisoblanadi. Bevosita aloqa - munosabat davomida tilning nomlash va fikr ifodalash vazifalari namoyon bo‘ladi. Mustaqil so‘zlar, qo‘shma nomlar, iboralar, atama nomlovchi birliklar hisoblansa, turli gap ko‘rinishlari fikr ifodalovchi birlik hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

2-amaliy mashg‘ulot. Me’yorlashtirilgan tillar. Adabiy til va shevalar. Kreol tillar. Pijin tillari.

LAHJALAR

Qarluq lahjasi. Bu lahjaga Farg‘ona, Toshkent tipidagi shahar shevalari kiradi. Bu lahjaga kiruvchi shevalar “y-lashgan” deb ham yuritiladi.

Qipchoq lahjasi. Bu lahjaga kiruvchi shevalar “j- lashgan” ham deyiladi. Negaki, so‘z boshidagi y o‘rnida asosan j qo‘llanadi; yo‘ldosh-jo‘ldosh, yil-jil, etti-jetti.

O‘g‘uz lahjasi. Bu lahjaga Xorazm, turkman shevalari kiradi. Bu shevalarda so‘z boshidagi jarangsiz undosh jaranglilashadi: *tovush-dovush, kuch-guch*.

Kreol tillar Yevropa mustamlakachilarining afrikaliklar, Sharq mamlakatlari xalqlari va Amerika hindulari bilan muloqoti natijasida mahalliy aholi tillariga Yevropa tillari (fransuz, ingliz, portugal) xususiyatlarining singishidan hosil bo‘lgan tillardir. Masalan, Amerikadagi Gaiti oroli mahalliy aholisi tilining fransuz tili bilan aralashuvi natijasida *giti-kreol*, Lotin Amerikasidagi mahalliy aholi tili bilan ispan tilining aralashuvidan *ispan-nauatal* kreol tili hosil bo‘lgan. Kreol tillarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularda birdan ortiq tilning o‘ziga xos xususiyatlari yaxlit holda namoyon bo‘ladi.

Pijin tillar ham Yevropa tillari bilan mahalliy tillarning aralashuvidan yuzaga keladi. Lekin pijin tillarida so‘zlashadigan jamiyat yo‘q (kreol til jamiyat uchun aloqa-munosabat vositasi sifatida xizmat qiladi). Pijin tillardan port shaharlarida ikkinchi til sifatida foydalaniladi.

Sun’iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Polyak olimi L. Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili* sun’iy til hisoblanadi. Bu tilning lug‘aviy asosi Yevropa tillaridan olingan, grammatikasi agglyutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosida. Bu tilda mashhur asarlar tarjima qilingan. Radio eshittirishlar ham tashkil qilingan. Bu tilning keyingi taqdiri muayyan davr bilan bog‘liq.

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

1. Adabiy tilga ta’tif bering?
2. Sheva, lahja atamasiga tavsif bering.
3. Adabiy tilning shevadan farqini izohlang.
4. Adabiy tilning boyib borisih haqida gapirib bering.
5. Kreol tillar, Pijin tillari deganda nimani tushunasiz?

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

3-amaliy mashg‘ulot. Nutqning fonetik bo‘linishi.UNDOSH TOVUSHLAR TASNIFI

Fonetika tilning boshqa qismlari va sathlari bo‘lgan morfologiya va sintaksis, leksika va uslubiyat bilan uzviy bog‘liqidir. Nutq fonetik jihatdan *fraza*,

takt, bo‘g‘in va nutq tovushlariga ajraladi. **Fraza** nutqning eng katta fonetik birligi bo‘lib, ikki tomondan pauza bilan chegaralanib, o‘ziga xos ohangga ega bo‘ladi. Frazalar taktdan tashkil topgan bo‘ladi. Frazaning ikki kichik pauza orasiga joylashgan va yagona urg‘u bilan talaffuz qilinadigan bir yoki bir nechta bo‘g‘inning yig‘indisiga **takt** deyiladi. Frazada nechta urg‘u bo‘lsa shuncha takt bo‘ladi.

Ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra	Hosil bo‘lish usuliga ko‘ra	Hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra					
		Lab tovushlari		Til tovushlari			
		lab-lab	lab-tish	Til old i	Til o‘rt a	til orqa	
						sayoz	Chu qur
Jarangli	Portlovchilar	b		d		g	
Jarangsiz		p		t		k	q
Jarangli	Sirg‘aluvchilar	v	v	z,j	y		g‘
Jarangsiz			f	s,j			x
Jarangli	Qorishiq tovushlar			j			
Jarangsiz				ch			
Jarangli	Burun tovushlari	m		n		n(ng)	
	Yon tovush			l			
	Titroq tovush			r			

Bo‘g‘in ko`rinishlari

c-undosh; v-unli.

v: o-na, u-mid, a-ka, i-jod, o-lim, a-yoz.

vc: o‘t, el, ot, on, ur, ish, oy, ip, iz, o‘y, ol-(ma), in-(kor).

cv: bu, shu, da-da, ma-na, da-(vom), sa-na, ra-(von), sa-(bab).

cvc: ko‘k, gul, qo‘l, sol, bor, dam, tan-qid, tan-bur, rav-shan.

cvcc: go‘sht, qasd, mard, qasr, fikr, ranj, hukm, mehr.

ccvc: aql, ust, asr, ahl, art, ishq, ont.

ccvcc: sport, shrift.

Assimilyasiya - nutq tovushlarining o‘zaro ta’siri, birining ikkinchisini o‘ziga moslashtirishi: *ket-di-ketti, aytti, uch-so ‘m-usso ‘m, tuz-sin-tussin*.

Dissimilyasiya- ikkita bir xil (o‘xhash) tovushdan birining boshqa (noo‘xhash) tovushga aylanishi: *zarar-zaral; zarur-zaril, birorta-bironta; kissakista; koridor-kolidor.*

Metateza -undosh tovushlarning o‘rin almashish hodisasi: *daryo-dayro; yomg‘ir-yog‘mir; tebratmoq-terbatmoq; yamalamoq-yalmamoq; tuproq-turpoq; o‘rganmoq-o‘granmoq; to‘g‘ramoq-to‘rg‘amoq.*

Proteza- so‘z boshida bir unlining orttirilishi: *ro‘mol-o‘ramol; stol-istol; shtraf-ishtaraf.*

Epenteza-ikki undosh yonma-yon kelganda ular orasida talaffuzda i yoki u orttiriladi: *fikr-fikir; hukm-hukum.*

Prokopa-so‘z boshida undoshning tushishi: *yiroq-iroq; yigina-igna; yag‘och-ag‘och.*

Sinkopa-unlilarning qisqa talaffuz etilishi: *direktor-direktir.*

Apakopa-o‘zak oxiridagi tovush tushishi: *do‘st-do‘s; xursand-xursan.*

Eliziya-unli bilan tugagan va unli bilan boshlangan ikki so‘zning qo‘shilishi natijasida tovushlardan birining tushishi: *bora oladi-boroladi; qora ot-qorot; borar ekan-borarkan.*

Tovush moslashuvi: bir tovush boshqa tovushni o‘ziga moslashtiradi: *manba-mamba, shanba-shamba, yonbosh-yombosh, sunbula-sumbula, tanbur-tambur.*

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilning fonetik sathi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbek tilining nutq tovushlari va ularning turlari haqida gapirib bering.
3. Nutqning fonetik bo‘linishi deganda nimani tushunasiz?
4. Fonetika til fanining qaysi bo‘limlari bilan bog’liq?

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

4-amaliy mashg‘ulot. Yozuvning paydo bo‘lishi. Yozuv turlari. Yozuv qurollari va materiallari.

Amaliy mashg‘ulot maqsadi: Yozuv. Yozuvning paydo bo‘lishi. Yozuv tarixining piktografik, ideografik, fonografik bosqichlari. Yozuv qurollari va materiallari yuzasidan fikr bildirish, bu boradagi bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash.

Savol va topshiriqlar:

1. Yozuv nima?
2. Yozuvning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati nimalarda ko'rindi?
3. Yozuvning paydo bo'lishini izohlab bering.
4. Yozuv tarixining piktografik bosqichini izohlang.
5. Yozuv tarixining ideografik bosqichini izohlang.
6. Yozuv tarixining fonografik bosqichini izohlang.
7. Yozuv qurollari va materiallari.

Asosiy tushunchalar:

1. Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimidir.

2. Yozuv kishilik jamiyatining ob'ektiv zaruriy ehtiyoji asosida paydo bo'ldi, shu ehtiyoj negizida rivojlandi va takomillashib bordi. U bugun biz biladigan yozuvsiz shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi.

3. Piktografik yozuvda bildirilmoqchi bo'lgan fikrlar inson, hayvon, qayiq kabilarning sxematik tarzdagagi rasmlarini tushirish orqali ifodalangan.

4. Ideografik yozuvda so'zning grammatik va fonetik shakllari aynan berilmaydi, balki unda mazkur so'z anglatishi mumkin bo'lgan ma'no maxsus grafik belgilar orqali ifodalananadi.

5. Fonografik (grekcha phone - tovush, grapho - yozaman) yozuv tilni nafaqat grammatik tuzilishini, balki uning fonetik tuzilishini, ya'ni so'zning tovush tarkibini ham aks ettiradi.

Adabiyotlar

1. Mahmudov N. Til va yozuv. –Toshkent: O'zbekiston, 1987.
- Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo'ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

5- amaliy mashg'ulot.Til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillar. Lotin alifbosi

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Kk	Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss

10	11	12	13	14	15	16	17	18
Tt	Uu	Vv	Xx	Yy	Zz	O‘o‘	G‘g‘	Shsh
19	20	21	22	23	24	25	26	27
Chch	NGng							
28	29							

LUG`AT TURLARI

1. **Izohli lug‘atda** lug‘aviy birliklarning (so‘z yoki iboralarning) ma’nosi izohlanadi. Lug‘aviy birlik ko‘p ma’noli bo‘lsa, uning barcha ma’nolari beriladi va izohlanadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 1981 yilda 2 jild holida nashr etilgan bo‘lib, oltmisht besh mingga yaqin so‘z izohlangan.
 2. **Imlo lug‘ati** so‘zlarning imlo qoidalariiga binoan qanday yozilishini qayd etadi. Imlo lug‘ati (orfografik lug‘at) so‘zlarning to‘g‘ri yozilishini ko‘rsatadi. Katta hajmli imlo lug‘ati 1976 yilda nashr etilgan, unda 65 ming so‘zning to‘g‘ri yozilishi qayd qilingan. O‘quvchilar uchun chiqarilgan maxsus imlo lug‘atida 17 ming so‘zning to‘g‘ri yozilishi berilgan.
 3. **Orfoepik lug‘atda** so‘zlarning adabiy talaffuzi qayd etiladi.
 4. **Morfem lug‘atda** so‘zlarning morfem tuzilishi, ma’noli qismlari beriladi. Ular lingvistik maqsadlarda tuziladi.
 5. **Chastotali lug‘at** so‘zlarning qo‘llanish miqdori va foizi haqida ma’lumot beradi.
 6. **Ters** (chappa, teskari) lug‘atda so‘zlar qaysi harf bilan tugashiga qarab joylashtiriladi.
 7. **O‘zlashma so‘zlar lug‘atida** boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar izohlanadi.
 8. **O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘atida** frazeologik birliklar (iboralar) izohlanadi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati” 1978 yilda tuzilgan.
 9. **Sinonimlar** lug‘atida sinonimlar izohlanadi.
 10. **Omonimlar** lug‘atida omonimlar izohlanadi.
 11. **Antonimlar** lug‘atida antonimlar (qarama-qarshi ma’noli so‘zlar) beriladi.
 12. **Dialektal lug‘atda** o‘zbek tilining dialekt va shevalariga xos bo‘lgan so‘zlar qayd etiladi.
 13. **Terminologik lug‘atda** terminlar izohlanadi.
 14. **Etimologik lug‘atda** so‘zlarning kelib chiqishi, shakllanish tarixi yoritiladi. «O‘zbek tilining etimologik lug‘ati» 2000 yilda prof. Sh. Rahmatullayev tomonidan yaratildi.
- “O‘zbek tilining izohli etnografik lug‘ati”, “Qo‘shma so‘zlar lug‘ati” hali yaratilmagan.

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilnin taraqqiyoti nimaga bog‘liq?
2. Til taraqqiyotidagi ichki va tashqi omillarni sanab bering.
3. Tilning lug‘at boyligi deganda nimani tushunasiz?
4. O‘z va o‘zlashma qatlampga munosabatinggiz?

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo'ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

6-amaliy mashg'ulot. Morfologik va geneologik tasnif.

Tilning boyligi irqning oq yoki sariq ekanligiga bog'liq emas. Shunday qilib, geneologik tasnif qardosh tillarning tarixiy taraqqiyot jarayonida bir o'zak tilidan tarqalganligini va ularning o'zaro munosabatini, so'z ma'nolari va grammatik shakllarini, nutq tovushlarining bir-biriga yaqinligini, o'xshashligini nazarda tutib, tillarni guruhlarga ajratadi.

Hozirgi vaqtida tarixi o'r ganilib, bir-biri bilan qardosh ekanligi aniqlangan tillar oilasi quyidagilardan iborat.

1. *Hind-yevropa tillari oilasi.*
2. *Xom-som tillari oilasi.*
3. *Turk tillari oilasi.*
4. *Ugor-fin tillari oilasi.*
5. *Kavkaz tillari oilasi.*
6. *Xitoy-tibet tillari oilasi.*
7. *Dravid tillari oilasi.*
8. *Indonei tillari oilasi kabilar.*

Roman tillari guruhi:

a) *fransuz tili.* Bu til Fransianing (poytaxti Parij) davlat tili bo'lib, bu tilda 60 million kishi so'zlashadi;

b) *italyan tili.* Bu til Italiyaning (poytaxti Rim) davlat tili bo'lib, bu tilda 50 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

v) *ispan tili.* Bu til Ispanianing (poytaxti Madrid) davlat tili bo'lib, bu tilda 95 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

g) *portugal tili.* Bu til Portugaliyaning (poytaxti Lissabon) davlat tili bo'lib, bu tilda 45 milliondan ortiq kishi so'zlashadi;

d) *rumin tili.* Bu til Ruminiya Respublikasining (poytaxti Buxarest) davlat tili bo'lib, bu tilda 18 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

e) *moldava tili.* Bu til Moldaviya respublikasining (poytaxti Kishinev) davlat tili bo'lib, bu tilda 2 millionga yaqin kishi so'zlashadi;

j) *provansal tili.* Bu tilda so'zlashuvchilar 10 milliondan ko'p kishi bo'lib, ular Fransianing janubi-sharqida yashaydi;

z) *sardin tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar bir milliondan ortiq bo‘lib, ular Italiyaga qarashli Sardiniya orolida yashaydi;

i) *katalan tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar besh milliondan oshiq kishi bo‘lib, ular asosan, Ispaniyada yashaydi;

k) *reto-roman tili*. Bu tilda so‘zlashuvchilar 550 ming kishi bo‘lib, ularning aksariyati Italiyada yashaydi.

O‘lik tillardan latin, osk, umbr tillari ham roman tillari guruhiga kiradi.

Eron tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

a) *fors tili*. Bu tilda 30 millionga yaqin kishi so‘zlashadi, u Eronning (poytaxti Tehron) davlat tili bo‘lib, arab yozuvidan foydalanadi;

b) *pushtu-dari tillari*. Bu tillarda 15 millionga yaqin kishi so‘zlashadi. U Afg‘onistonning (poytaxti Kobul) davlat tili bo‘lib, unda arab yozuvidan foydalaniladi;

v) *kurd tili*. 3 milliondan ortiq bo‘lgan kurd xalqi Eronda, Iroqda, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida va Turkiyada yashaydi;

g) *tojik tili*. Bu til Tojikiston respublikasining (poytaxti Dushanbe) davlat tili bo‘lib, bu tilda ikki milliondan ortiq kishi so‘zlashadi.

d) *osetin tili*. Bu til Osetiya respublikasining davlat tili bo‘lib, bu tilda 550 mingga yaqin kishi so‘zlashadi;

e) *baluchi tili*. Bu tilda so‘zlovchilar Pokistonda va Eronda yashaydi.

Eron tillari guruhiga bulardan tashqari tolish tili, tog‘ tili, o‘lik tillardan esa qadimgi fors, pahlavi, sug‘du, xorazmiy tillari kiradi.

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

1. Tillarni tasniflash qachondan boshlangan?
2. Morfologik (tipologik) tasnif deganda nimani tushunasiz?
3. Geneologik tasnif deganda nimani tushunasiz?
4. Tillarni tasniflashda qaysi olimlarning o’rni beqiyos?
5. Turkiy tillar oilasi, roman tillar, eroniylar deb tasniflanishi qaysi tasnif turi bilan bog’liq?

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

7-amaliy mashg‘ulot. Tilshunoslik va ijtimoiy fanlar munosabati.

Til jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy hodisa sifatida paydo bo‘ladi (boshqacha aytganda, «tug‘iladi », taraqqiy etadi, « o‘sadi»), bir jamiyat yo‘q bo‘lishi bilan til ham asta – sekin iste’moldan chiqa boshlaydi va davrlar o‘tishi bilan o‘lik til bo‘lib qoladi. Masalan, lotin, sug‘d, qadimiy Xorazm tillari kabilar bunga misol. Biroq tilninng paydo bo‘lishi (“ tug‘ilishi”) taraqqiy etishi (“ o‘sishi”) va iste’mol qilinmay qolishi (“ o‘lishi”) biologik jarayon emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan bog‘liqdir. Shuning uchun til qonunlarini, uning taraqqiyot yo‘llarini jamiyat tarixi bilan va shu tilni yaratgan xalqning tarixi bilan bog‘liq holda o‘rgangandagina masalani to‘g‘ri hal qilish mumkin.

Inson doimo o‘zini qurshab turgan olamni bilishga intiladi. Kishilarning barcha faoliyati markaziy asab sistemasi yordamida boshqariladi. Olamni bilish jarayoni markaziy asab sistemasiga turli sezgi a’zolarimiz (tana, ta’m-maza, ko‘rish, eshitish kabi sezgi a’zolari) yordamida uzatilgan axborot orqali amalga oshiriladi.

Tana, ta’m-maza, ko‘rish, eshitish kabi sezgi a’zolari orqali olamni bilish vositasi barcha jonzotlarga xos xususiyatdir. Inson jonzotlarning eng oliv shakli sifatida ularga nisbatan yana bir qo‘shimcha bilish vositasiga — nutq orqali bilish qobiliyatiga ega. Birinchi bilish vositalarini mashhur ruhshunos P. Pavlov birinchi signal sistemasi, ikkinchisini esa ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan.

Ko‘rinadiki, inson ikkinchi signal sistemasiga egaligi bilan boshqa jonzotlardan ajralib turadi, shuning uchun ham hazrat Alisher Navoiy barcha maxluqotlarning zoti sharifi inson ekanligini ta’kidlaganlar.

Har bir shaxs ma’lum bir jamiyat vakili sanaladi. Jamiyat a’zolari o‘zaro doimo aloqada bo‘ladilar. Biri obyektiv olamda o‘z sezgi a’zolari orqali his etgan ma’lum narsa va hodisa haqida boshqalariga tovush to‘lqinlari (yozma nutqda esa harflar ketma-ketligi) yordamida axborotni yetkazadi. Axborot uzatuvchi — so‘zlovchi, eshituvchi esa tinglovchi sanaladi. Tinglovchi olamdagи narsa va hodisaning umumlashgan obrazini so‘zlovchi uzatgan tovush signallarini eshitish sezgi a’zosi yordamida markaziy asab sistemasida tiklaydi.

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi deganda nima tushunasiz?
2. Tilshunoslikning ijtimoiy ijtimoiy fanlar bilan aloqasi:
 - tarix;
 - sotsiologiya;
 - falsafa;
 - mantiq.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.

4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

8-amaliy mashg‘ulot. Tilshunoslik va aniq fanlar munosabati.

Kundalik hayotimizda har xil tovushlarni eshitamiz: mashinalar signali, hayvonlarning qichqirig‘i, parrandalarning sayrashi, suvning shildirashi va boshqalar. Havo to‘lqinlari orqali qulog‘imiz bilan eshitiladigan barcha hodisalarga tovush deymiz. Inson tomonidan talaffuz qilinadigan tovushlar ham ana shunday tovushlar sirasiga kiradi.

Har qanday tovush havoning tebranishi natijasida hosil bo‘ladi. Shuning uchun ularning hammasi ma’lum sifat belgisiga: balandlik, kuch (yoki tezlik), miqdor (yoki uzunlik) va tembr belgilariiga ega bo‘ladi. Tovushlarning bu tomoni akustik tomon deyiladi va u fizika fani bilan aloqada o‘rganiladi.

Talabalar uchun savol va topshiriqlar:

1. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi deganda nima tushuniladi?
2. Tilshunoslikning ijtimoiy ijtimoiy fanlar bilan aloqasi:
-matematika;
-fizika.

Adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

SEMINAR MASHG ‘ULOT MATERIALLARI

Seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg‘ulotlarida talabalar til birliklari va nutq birliklarining o‘zaro munosabati, dunyo tillari tavsifi va tasnifi, til sathlari, til taraqqiyotidagi fonetik, leksik, grammatik o‘zgarishlar, yozuv tarixi va yozuv turlari, lingvistik tahlil metodlari haqida amaliy ko‘nikma va malaka hosil qiladilar.

T/	Seminar mavzulari	Soat
-----------	--------------------------	-------------

r		
1.	Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til.	2
2.	Til sistemasi va strukturasi	2
3.	Til birliklari va nutq birliliklari.	2
4.	Til sathlari: fonetik, leksik, grammatic.	4
5.	Til taraqqiyotidagi fonetik o'zgarishlar.	2
6.	Til guruhlari. Agglyutinativ tillar. Flektiv tillar.	2
7.	Stastistik metod. Komponent tahlil metodi.	2
8.	Tilshunoslik sohasiga oid asosiy terminlar mohiyati.	2
Jami:		18

1-mavzu

Millatlararo tillar. Xalqaro tillar. Sun'iy til.

Me'yorashtirilgan tillar adabiy til me'yoriga ega bo'lgan tillardir.

Bunday tillarga adabiy shakliga ega bo'lgan barcha tillar kiradi. Adabiy til tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, o'zgarib boradi.

Mahalliy tillar kam sonli aholiga xizmat qiladigan tillardir. Mahalliy tillar o'z yozuviga ega emas. Bunday tillar faqat og'zaki shaklda mavjud bo'lib, aholining kundalik aloqa-munosabat ehtiyoji uchun xizmat qiladi.

Sun'iy tillar maxsus yaratilgan xalqaro tillardir. Polyak olimi L. Zamengof tomonidan yaratilgan *esperanto tili* sun'iy til hisoblanadi. Bu tilning lug'aviy asosi Yevropa tillaridan olingan, grammaticasi agglyutinativ xarakterda, grafikasi lotin yozuvi asosida. Bu tilda mashhur asarlar tarjima qilingan. Radio eshittirishlar ham tashkil qilingan. Bu tilning keyingi taqdiri muayyan davr bilan bog'liq.

Asosiy abdiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo'ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

2-mavzu

Til sistemasi va strukturasi

«Sistema» (tizim) so'zining tilshunoslik termini sifatidagi izohi quyidagicha:

1. O'zaro munosabatlar bilan bog'langan, bir butun bo'lib uyushgan til unsurlari majmui: Til sistemasi (tizimi). So'z yasalish sistemasi (tizimi). 2. Ma'lum bir grammatic kategoriyaga xos ichki bo'linishlarning bir butunligi: Kelishiklar sistemasi (tizimi). Mayllar sistemasi (tizimi)».

Lug'at sathining sistemali tuzilishi mohiyati so'zlar orasidagi semantik bog'liqliklarning turli-tumanligi bilan izohlanadi. ¹ Bu bog'liqliklar so'zlar vositasida ifodalananayotgan voqelik predmet-hodisalarining umumiyligi tufayli (ularning o'xshashliklari, bir turga kirishi, bajaradigan vazifalari umumiyligi va so'zlarning o'zaro munosbatda bo'lgan bir xil predmet, hodisa, xususiyat, belgini ifodalashida) namoyon bo'ladigan ichki lingvistik yaxlitligi tufayli vujudga keladi. Ammo bu holda o'zaro semantik yaxlitlikka ega bo'lgan u yoki bu predmetni ifodalash vazifasini turli lisoniy belgilar bajaradi.

Lug'aviy sathda yuzaga keladigan semantik munosabatlarning eng universal turi *paradigmatik* va *sintagmatik munosabatlardir*.

Paradigmatik munosabatlar bir so'z turkumiga mansub va ma'no jihatidan birmuncha umumiylikka ega bo'lgan so'zlar orasida vujudga keladi. Bunday so'zlar majmuasiga kiruvchi birliklar gap tarkibida bir xil pozistiyalarda bir-birlarining o'rnida ishlatilishlari mumkin. Sintagmatik munosabatlar yordamida birliklar o'zaro bog'lanadilar va nutqiy tuzilma hosil qilish uchun o'zaro birikadilar.

Paradigmatik va sintagmatik munosabatlar lug'aviy birliklarning semantik xususiyatlari bilan o'zaro uzziy bog'langan. Paradigmatik munosabatlar so'zлarni semantik sinflarga bo'lish uchun asos vazifasini bajaradi. Bir paradigmatic sinfdagi birliklarning jumla tarkibida bajarayotgan vazifalari o'zaro o'xshashdir. Sintagmatik munosabatlar asosida esa paradigmatic sinflar birliklari kommunikativ maqsadlarni bajarish uchun o'zaro birikadilar. Bu ikki xil munosabatlar asosida har bir so'z ifodalayotgan ma'noning paradigmatic va sintagmatik aspektlarini aniqlash mumkin.

Asosiy tushunchalar:

1. Sistema o'zaro bog'liqlikdagi elementlar majmuasidan iborat bo'lib, bu majmua yaxlitlikni tashkil qiladi va undagi ishtirokchilarning har biri alohida hamda o'zaro munosabatda tavsiflanadilar.

2. Strukturna ushbu sistemadagi elementlarning munosabatlari asosida yuzaga keladigan tuzilmadir.

3. Til – sistemalar sistemasi hisoblandi, chunki u ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega.

4. Til birliklarning xususiyatlari ularning boshqa birliklar bilan munosabatga kirishuvida namoyon bo'ladi. Bunday munosabatlarni umumiyoq ko'rinishda uch turga bo'lish mumkin: sintagmatik, paradigmatic va ierarxik munosabatlar.

5. Til strukturasi elementlari – til sathlari quyidagilardan iborat: *fonetik – fonologik sath*, *morfem – morfologik sath*, *so'z yasash sathi*, *leksik – semantik sath*, *sintaktik sath*.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl Tilshunoslik. -Toshkent, 2013.

4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo'ldoshev va b. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

3-mavzu Til birliklari va nutq birliklari.

1. Til birliklarini izohlang.
2. Nutq birliklarini izohlang.
3. Til birliklari va nutq birliklarining o'xhash va farqli xususiyatlarini izohlang.

Til birliklari	Nutq birliklari
fonema	fon
morfema	morf
leksema	leks
konstruksiya (model)	so'z shakli; so'z birikmasi; gap; mikrotekst, makrotekst

Bu birliklar o'z navbatida ma'lum vazifa va funksiyaga ega, bir-biridan amaliy jihatdan farqlanadi. Ba'zan esa bir-birini to'ldiradi.

Til va nutq orasidagi dialektik aloqa va munosabat haqida aytilgan fikrlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin.

Til	Nutq
Umumiylilik	Xususiylik
Imkoniyat	Voqelik
Tayyorlik	Hosilalik
Majburiylik	Ixtiyorilik
Birliklari chegaralangan	Birliklari chegaralanmagan

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo'ldoshev va b. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

4-mavzu Til sathlari

Til tizimi til birliklari -fonema, morfema, so‘z, gap va til sathlarining bir butunligidan iborat. Aloqa-munosat vositasi bo‘lgan tilning fonetik, leksik, grammatik jihatlari muayyan ichki qonuniyat asosida o‘zaro mutanosiblikni tashkil etuvchi tizimdir. Til tizimini tashkil etgan asosiy sathlar quyidagilar:

10. Fonetik-fonologik sath.

11. Lug‘at sathi.

12. Grammatik sath.

Tilning boshqa sathlari kabi grammatikaning ham o‘z birliklari bor. Eng kichik grammatik birlik **morfema** bo‘lib, morfemalardan **so‘zlar** yasaladi, so‘zlar esa o‘z navbatida so‘z birikmalari va gaplar qurilishida qatnashadi. **Gap** grammatikaning yirik va mustaqil birligidir. Gapdan katta birliklar ham mavjud: **murakkab sintakik (birlik) butunlik, abzas va matn.**

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

5-mavzu

Til taraqqiyotidagi fonetik o‘zgarishlar.

1. O‘zbek tilidiagi tovush o‘zgarishlariga misollar aytинг.

2. Singarmonizm nima? U qaysi tillarga xos?

Fonetika – tilshunoslikning nutq tovushlari, ularning hosil bo‘lishi, tiplari, tovushlar o‘zgarishi, bo‘g‘inlar, ularning tuzilishi tiplari, strukturasi; urg‘u, urg‘u tiplari va intonatsiya haqidagi tarmog‘idir.

Assimilyatsiya – qator kelgan nutq tovushlarining bir-biriga ta’sir qilib o‘ziga moslashtirishidir.

Progressiv assimilyatsiya - aytdi-aytti, yurakga-yurakka.

Regressiv assimilyatsiya – yigitcha-yigichcha, tuzsiz-tussiz.

Dissimilatsiya – ikki o‘xhash tovushning o‘rin almashinushi.

Progressiv dissimilyatsiya: birorta-bironta.

Regressiv dissimilyatsiya – ittifoq-intifoq.

Singarmonizm – unli tovushlarning moslashuvi, ohangdoshligi, uyg‘unligi demakdir. Bu hodisa faqat turkiy tillarda uchraydi.

Tavsifiy fonetika – nutq tovushlari, ularning xususiyati va xarakteri qayd etiladi. Fonetikaning sillabika, akustika, intonasiya, tovush o‘zgarishi va uning qonuniyatlari haqida ma’lumot beriladigan sohasi.

Tarixiy fonetika – nutq tovushlari taraqqiyoti o‘zgarishi bilan bog‘langan hodisalar, qonuniyatlar beriladi. Tilga xos fonetik jarayonlar tarixiy yodgorliklar orqali yoritiladi.

Triftonglar – tarkibi uch tovushdan iborat. Masalan: [av..]

Transkripsiya – tovush va harf orasida nomutanosiblik bor bo‘lgan tillarda ushbu yozuv muhim ahamiyat kasb etadi, undan o‘qish-o‘qitish ishlarida keng foydalaniladi.

Qiyosiy fonetika – qardosh tillar uchun umumiylodisa va qonuniyatlarning holati, qo‘llanish miqdorlari, o‘ziga xosligi qiyos qilinadi.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik assoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

6-mavzu

Til guruhlari. Agglyutinativ tillar. Flektiv tillar.

I. Hind-evropa tillari oilasiga:

I. Hindiston tillari guruhiqa quyidagi tillar kiradi:

- a) *hind tili.*
- b) *urdu tili.*
2. *Maratxi tili.*
3. *Panjob tili.*
4. *Rajastoni tili.*
5. *Gujarati tili.*

2. Eron tillari guruhiqa quyidagi tillar kiradi:

- a) *fors tili.*
- b) *pushtu-dari tillari.*
- v) *kurd tili.*
- g) *tojik tili.*
- d) *osetin tili.*
- e) *baluchi tili.*

3. Slavyan tillari guruhiqa quyidagi tillar kiradi:

- a) *rus tili.*
- b) *ukrain tili.*
- v) *belorus tili.*
- g) *bulg‘or tili.*
- d) *serb-xorvat tillari.*

- e) *chex tili.*
- j) *slovak tili.*
- z) *polyak tili.*

4. Boltiq tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

- a) *litva tili.*
- b) *latish tili.*

5. German tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

- a) *ingliz tili.*
- b) *nemis tili.*
- v) *daniya tili.*
- g) *shved tili.*
- d) *norveg tili.*
- e) *golland tili.*
- j) *island tili.*

6. Roman tillari guruhiga quyidagi tillar kiradi:

- a) *fransuz tili.*
- b) *italyan tili.*
- v) *ispan tili.*
- g) *portugal tili.*
- d) *rumin tili.*
- e) *moldava tili.*
- j) *provansal tili.*
- z) *sardin tili.*
- i) *katalan tili.*
- k) *reto-roman tili.*

7. Kelt tillari guruhiga quyidagilar kiradi:

- a) *irland tili.*
- b) *shotland tili.*
- v) *breton tili.*
- d) *uels (valli) tili.*

8. Grek (yunon) tili guruhiga yangi grek (yangi yunon) tili kiradi:

9. Alban tili guruhiga alban tili kiradi.

Turkiy tillar agglutinativ tillar sanaladi. Bu tillarda har qanday grammatisk ma'no alohida qo'shimcha yordamida ifodalanadi. Qo'shimchalar asosan o'zakdan keyin qo'shiladi. Masalan: lit-sey + dosh + lar + im + ga.

O'zbek tilida ko'makchi morfemalar, ya'ni qo'shimchalar yetakchi morfemadan so'ng keladi. Masalan,

zamon-dosh
zamondosh-lar
zamondoshlar-im
zamondoshlarim-ga

Asosga eng avval so'z yasovchi qo'shimcha, so'ng lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha, eng oxirida esa sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalar qo'shiladi.

Masalan, *sholi-kor, muqova-soz, kamtar-on, tadbirkor-lar, sana-moq, yaltirash, fidokorlar-ga, o'rnashdi-m, uyqusirab-man* kabi.

Asosga so'z yasovchi qo'shimcha, shakl yasovchi qo'shimchalar ikkitadan qo'shilsa, ular ketma-ket ulanadi, yuqoridaagi tartib buzilmaydi.

Masalan, *mulk-dor-lik, bil-im-li, jo'sh-qin-lik, ko'k-ish-roq, o'yna-t-di, ket-a-yotir-man, sinf-dosh-lar-im-dan, bor-a-yotgan-ingiz-ni, varaq-la-sh-ni*.

Ba'zi bir hollarda so'z yasovchi qo'shimcha asosga old tomondan kelib qo'shilishi ham mumkin (masalan, *no-o'rin*), lekin bunday old qo'shimchalar o'zbek tilida juda kam.

Shuningdek, ayrim so'zlarda umumiy tartib buzilishi ham kuzatiladi: *es-la-ganlik* kabi. Bunda asos + so'z yasovchi qo'shimcha + shakl yasovchi qo'shimcha + so'z yasovchi qo'shimcha qo'shilmoqda.

Umuman olganda, qo'shimchalarning qo'shilishida o'ng qo'l qoidasiga rioya qilinadi.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiyl Tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
6. I.Yo'ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

7-mavzu.

Stastistik metod. Komponent tahlil metodi.

Tilshunoslikda talab darajasida bo'lgan bir necha metod qo'llanadi. Bu metodlar xarakteriga ko'ra ikki xil:

- c) umumiy metodlar;
- d) lingvistik tahlil metodlari.

Ushbu metodlar bir – biriga bog'liq holda ish ko'radi va muayyan xulosalarni bayon etadi.

Umumiyl metodlar ijtimoiy sohaning barcha ko'rinishlari uchun amal qiladigan metodlardir. Jumladan, umumiyyadan xususiyga, xususiydan umumiyyaga, analiz – sintez, oddiyidan murakkabga tomon tahlil qilish metodlari deyarli barcha sohalarda amal qiladi.

Lingvistik tahlil metodlari tilshunoslikning o'zi uchungina xos bo'lib, shu fanga doir ilmiy xulosalar berishga xizmat qiladi. Hozirgi zamon tilshunosligida lingvistik tahlil uchun quyidagi metodlar qo'llanadi:

- gap bo'laklari metodi;
- tarixiy – qiyosiy metod;
- substitusiya (almashtirish) metodi;
- distributiv metod;

- tarkibiy qismlarga ajratish metodi;
- transformatsion metod;
- statistik tahlil metodi;
- ma’no ko‘lamin tahlil qilish metodi.

Statistik tahlil metodi tilning barcha sathlarida qo‘llanadi, shuning uchun universal hisoblanadi. Bu metod til birliklari va til hodisalarining nutqda ishlatalish darajasini aniq ko‘rsatib beradi.

Tarkibiy qismlarga ajratish metodi har qanday butunlikni, xususan gapni hokim va tobelik munosabatida bo‘lgan qismlardan iborat sifatida tahlil etadi. Bu metod grammatik sathda: morfologiya va sintaksisda amal qiladi.

Asosiy adabiyotlar

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. -Toshkent, 2010.
2. Irisqulov I. Tilshunoslikka kirish. -Toshkent, 2009.
3. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. -Toshkent, 2013.
4. Tilshunoslik nazariyasi va metodologiyasi. Tuzuvchi: H. Dadaboev. –Toshkent, 2004.
5. I.Yo’ldoshev va b. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2013. 307-b.
6. I.Yo’ldoshev, S.Muhamedova, U.Sharipova, R.Majidova. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent, TDPU. 2013. 306 b.
7. Borbala Richter. First steps in theoretical and applied linguistics.-Budapest, 2006.

8-mavzu. Tilshunoslik sohasiga oid asosiy terminlar mohiyati.

Talabalarga tilshunoslikka doir quyidagi terminlar beriladi va ularning izohi bilan tanishish, mohiyatini tushunish topshiriladi.

Avtomatik tahlil metodi tilni – lisoniy birliklarni muayyan bo’laklarga, formal qismlarga ajratadi. Ajratishdan hosil bo‘lgan tilning ushbu qismlari, ya’ni formal elementlari boshqa tilning shunday ma’nodagi bo’laklariga-formal elementlariga muvofiq, mos keladi, ekvivalent bo’ladi. Demak, tillararo muayyan lisoniy birliklarning (masalan, matnning, gaplarning, so’z birikmalarining) - formal qismlarning mazmuniy – fikriy mosligi, mazmunan – fikran muvofiqligi asosida ushbu tillarning biridan ikkinchisiga – bir tildan boshqa tilga kompyuter yordamida tarjima qilish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, bir tildagi – lisoniy birliklardagi mazmun boshqa bir tilga – shu til birliklari, vositalari orqali kompyuter yordamida tarjima qilinadi.

Analogiya – aynan o’xshashlik.

Anomaliya – qisman o’xshashlik.

Antonimlar - bir-biriga qarama - qarshi ma’noli so’zlar.

Atash semalari – semema tarkibidagi nomlash, atash semalaridir.

Bevosita tashkil etuvchilarga ajratib tahlil qilish metodi so’z birikmasi va gaplarning sintaktik tuzilishini, ularning qanday qismlardan tuzilganini, ular orasidagi munosabatni aniqlaydi yoki aniqlashda xizmat qiladi, yordam beradi.

Vazifadoshlik- so'z ma'lum leksik ma'nosining denotati eskirib iste'moldan chiqib ketishi va o'rniiga boshqa denotat kelib uning vazifasini olishi sababli uni ham ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga keltirilishidir.

Valentlik tahlil metodi so'z muammosi bilan shug'ullanadi, so'zning nutq faoliyatidagi-nutq birligi sifatidagi semantik-sintaktik, funksional faolligini o'rganadi, tekshiradi, uning ichki-mazmun jihatni bilan bog'liq imkoniyatlarini, xususiyatlarini ochib beradi. Aniqrog'i, valentlik tahlil metodi orqali muayyan so'zning o'z ma'nosini asosida boshqa so'zlar bilan sintaktik (semantik-sintaktik) munosabatga kirishuvi aniqlanadi, ya'ni so'zning turli ma'noga ega qator so'zlarni o'ziga biriktirish xususiyatlari yoritiladi.

Veda – bir nechta kitobdan iborat diniy to'plam.

Vokalizm – unli fonemalar tizimi.

Genealogik tasnif - tillarning kelib chiqishiga ko'ra tasnif qilish geneologik tasnif deb ataladi.

Giponimiya - lug'at boyligidagi leksemalarning pog'onali aloqasidan kelib chiqadigan semantik munosabatlaridir. Bunday munosabatlarning mohiyati shundaki, torroq tushuncha yoki ma'no ifodalayotgan leksemalar kengroq tushuncha yoki ma'no ifodalayotgan leksemalar bilan tur (giponim) va jins (giperonim) aloqasida bo'ladi.

Graduonimiya - leksemalarning ma'no guruhlari a'zolarida u yoki bu belgining darajalanishidir.

Denotat - leksema orqali nomlanuvchi (ataluvchi) voqelik, narsa-buyum. Denotat lotincha *denote* - "belgilamoq" so'zidan olingan.

Distributiv tahlil metodi muayyan til birliklari bilan bevosita bog'liq holda amalga oshadi. Ushbu jarayonda fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi va gap kabi lisoniy birliklarning distributsiyasi-joylashish o'rni (pozitsiyasi), tartibi, oldinma – keyin kelishi, qo'llanish imkoniyatlari aniqlanadi. Ayni vaqtida ushbu lisoniy birliklarning o'zaro muayyan aloqaga – semantik – sintaktik munosabatga kirishuvi, bog'lanishi-birikishi ham o'rganiladi. Boshqacha aytganda, til birliklarining distributsiyasi fonema uchun ma'lum fonemaning oldidan va ketidan keladigan fonemalardir, morfema uchun esa morfemadan oldin va keyin keladigan morfemalardir

Disfemizm- kishilarni o'z nomlari bilan atamay, haqoratlash va kamsitish maqsadida tabiatdagi salbiy xarakterda deb bilgan jonivor yoki narsa nomi bilan atashdir.

Ierarxik munosabat til birliklarining murakkablashish (pog'onaviy) munosabati.

Ieroglif – so'z, logogramma.

Intralingvistika – ichki lingvistika.

Ifoda semalari - semema tarkibidagi uslubiy ma'no qirralaridir, ular so'zda ko'chma ma'no hosil qilish uchun xizmat qiladi.

Ifoda jihatni – lisoniy birliklarning tashqi-tovush tomoni bilan belgilanadi.

Informatsiya nazariyasi – biror xabardagi ma'lumotlarning miqdorini o'lchash, aniqlash usullarini belgilaydi.

Konsonatizm – undosh fonemalar tizimi.

Komparativistika- qiyosiy-tarixiy tilshunoslik.

Komponent tahlil metodi so'zning mazmun jihatni bo'lgan ma'noni (sememani) muayyan semantik sistema sifatida tekshirishda, ayni sistemani tashkil qiluvchi tarkibiy qismlarni, ma'noviy bo'laklarni, ya'ni semalarni aniqlashda, ularning semantik sistemadagi – sememadagi mohiyatiga, o'rniga, ahamiyatiga, imkoniyatiga, o'ziga xosliklariga alohida e'tibor beradi, ularni aniqlaydi, qo'llanish doirasini belgilaydi.

Leksikologiyaning ob'ekti tilning lug'at boyligidir. Leksikologiyaning predmeti – lug'at boyligining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlarini, taraqqiyot qonuniyatlarini, tilning boshqa sathlari bilan aloqasini tadqiq etishdan iborat.

Leksikologiyaning turlari: 1) *Umumiyl eksikologiya*; 2) *xususiy eksikologiya*. Xususiy eksikologiya o'z navbatida *tavsifiy* (*sinxron*) va *tarixiy* (*dioxron*) eksikologiyaga bo'linadi. 3) *Qiyosiy eksikologiya*.

Eksikologiya quyidagi bo'limganlarni qamrab oladi: 1) semasiologiya; 2) leksikografiya; 3) onomasiologiya; 4) etimologiya; 5) frazeologiya; 6) onomastika; 7) etnonimika; 8) terminologiya.

Leksema – shakl va mazmunning barqaror birikuvidan tashkil topgan, voqelikdagi narsa, belgi, xususiyat va munosabatlarni shakllantiruvchi, jamiyat a'zolari uchun umumiy, tayyor, majburiy bo'lib, mustaqil anglanish va qo'llanish tabiatiga ega bo'lgan lisoniy birlikdir.

Leksik ma'noning semantik tarkibi atash va ifoda semalaridan iborat.

Leksik ma'noning kengayishida u ifoda etgan denotat o'z hajmini yoki xilini oshira boradi va uni bildirgan leksik ma'no doirasi ham kengaya boradi, leksik ma'noning kengayish jarayoni kechadi.

Leksik ma'noning torayishida u ifoda etgan denotatning ma'lum qismlari farqlanib, so'z leksik ma'nosida torayish kechadi.

Mantiqiy grammatika - lisoniy hodisalarni, birliklarni mantiq asosida o'rjanuvchi grammatika.

Mazmun jihatni – lisoniy birliklarning ichki- ma'no tomoni.

Metod etimologik jihatdan grekcha methodos so'zidan olingan bo'lib, "tadqiqot", "o'rjanish" degan ma'noni anglatadi. Metod bilish nazariyasiga ko'ra voqelikka yondashish – tabiat, jamiyat va fikrlash jarayonini – tafakkurni bilish usulidir. Binobarin, metod ushbu falsafiy ma'noda ob'ektiv voqelikning har qanday hodisa va jarayonlarini bilish, tushuntirish va talqin qilish yo'lidir.

Metodologiya - tadqiqotchining o'z tadqiq manbai haqida qay turdag'i bilimlarni hosil qilishga intilishi, bilishning qaysi turi bilan shug'ullanishdir.

Metafora- so'z ma'lum leksik ma'nosining denotatiga boshqa bir denotat o'xshashligi uchun ham uni ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga keltirishdir.

Metonimiya- so'z ma'lum leksik ma'nosini denotati boshqa bir denotat bilan zamon va makonda o'zaro aloqador bo'lganligi uchun uni ham ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga keltirishdir.

Naturalizm – tilni jonli organizm sifatida talqin qiluvchi ta'limot.

Nomema - leksema ikki tomonlama birlik bo'lgani sababli tilshunoslik nazariyasida leksemaning shakliy tomonidir. Nomema – *fonemalardan* tashkil topadi.

Nutq - tildan fikr almashuv maqsadida foydalanish ususli, jarayoni.

Nutq birliklari: *tovush, sýz (sýz formasi), sýz birikmasi, gap.*

Nutqning fonetik bo'laklari jumla (fraz), takt, bo'g'in, tovushdan iboratdir.

Ong – vogelikning kishi miyasida uning butun ruhiy faoliyatini o'z ichiga olgan va ma'lum maqsadga yo'nalgan holda aks etishi.

Omonimlar- o'zaro shakliy bir xil bo'lган so'zlar, ya'ni yozilishi va talaffuzi bir xil, ma'nosи har xil bo'lган so'zlar omonimlardir.

Paronimiya - so'zlarning o'zaro shakliy o'xshash bo'lishi paronimiya deyiladi.

Paronim - talaffuzi (fonetik ifodasi) o'xshash, ammo lug'aviy ma'nosи farqli o'zakdosh leksemalar.

Paradigmatik munosabat bir paradigmaga birlashuvchi til birliklarining o'zaro munosabatidir.

Paralingvistika - tilshunoslikning o'zaro aloqa – aralashuvda imo – ishora, mimika, nutq vaziyati kabi olimlarni o'rganuvchi sohasi.

Partonimiya - leksemalarning ma'no guruhlarida butun-bo'lak munosabatlarining ifodalanishidir. SHunga ko'ra partonimik munosabatda alohida olingan uzb(a'zo)ning uni tashkil qilayotgan ichki a'zolari bilan munosabati ko'rib chiqiladi.

Psixologizm – tilni inson ruhining aksi, ko'rinishi, tilni ruhiy hodisa deb talqin qiluvchi ta'limot.

Proklitika - urg'uli so'zdan oldin kelib, urg'u jihatdan unga qo'shilib ketadigan so'z.

Reduktsiya – tovush artikulyatsiyasining kuchsizlanishi natijasida tovush (ovozi)ning o'zgarishi, tovushning miqdor va sifat belgisi jihatidan pasayishi.

Sanskrit – qadimgi hind adabiy tili.

Semema - leksemaning mazmun tomoni (leksik ma'no). Semema esa *semalardan* tashkil topadi.

Sema leksik ma'no (semema)ni tashkil qiluvchi mazmuniy qismlar va ma'no qirralaridir.

Semiotika - turli-tuman belgilar sistemasining umumiyl xususiyatlarini o'rganuvchi fandir.

Sinekdoxa - so'z ma'lum leksik ma'nosining denotati bilan boshqa bir denotat biri ikkinchisiga bo'lak yoki aksincha butun bo'lish munosabatiga egaligi, uni ham ataganligi orqasida ko'chma ma'no yuzaga kelishidir.

Sinonimlar - yozilishi ham, talaffuzi ham boshqa-boshqa bo'lib, umumlashgan, bir tushunchani ifodalaydigan, lekin ma'no nozikliklari jihatidan bir-biridan birmuncha farq qiladigan so'zlardir.

Sintagmatik munosabat til birliklarining yonma-yon joylashish (qo'shnichilik) munosabatidir.

Sistema o'zaro bog'liqlikdagi elementlar majmuasidan iborat bo'lib, bu majmua yaxlitlikni tashkil qiladi va undagi ishtirokchilarning har biri alohida hamda o'zaro munosabatda tavsiflanadilar. Til – sistemalar sistemasi hisoblandi, chunki u ichki bo'linuvchanlik xususiyatiga ega.

Statistik tahlil metodi jahon tilshunosligi amaliyotda eng faol ishlataladigan metodlardan biri bo'lib, lisoniy birliklarning-til va nutq birliklarining takror va

takror qo'llanilishini, tez-tez ishlatilish darajasini, chastotasini, tarqalish doirasini belgilaydi. Ushbu metod lisoniy birliklarning, masalan, tovush, bo'g'in, qo'shimcha, so'z, so'z birikmasi, gap kabilarning ishlatilish miqdorini, arifmetik sonini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Struktura ushbu sistemadagi elementlarning munosabatlari asosida yuzaga keladigan tuzilmadir.

Substantsiya (mohiyat) – ichki, forma (shakl) – tashki tomonlar sifatida falsafadagi mohiyat va hodisaning tilda mazmun va shakl sifatida talqin qilinishi. Shakl (forma, hodisa) mazmun (mohiyat, substantsiya) bilan dialektik bog'liq.

Segment birliklar – so'z yoki morfema tarkibida gorizontal chiziq bo'ylab birin-kekin keladigan birliklar: nutq tovushi, bo'g'in, fonetik so'z, takt, fraza.

Supersegment birliklar – urg'u, ohang, melodika, pauza kabi ustama hodisalardir, ular so'zga, frazaga, gapga yoki nutqqa yaxlit holda aloqador bo'lishi bilan segment birliklardan farq qiladi.

So'z - leksik va grammatic ma'nolarning muayyan tovush yoki tovushlar birikmasi bilan barqaror munosabatidan tashkil topgan butunlik.

So'z leksik ma'nosи taraqqiyoti uch ko'rinishga ega: 1) leksik ma'noning kengayishi va torayishi; 2) so'z leksik ma'nosining ko'chma ma'no yuzaga keltirishi; 3) evfemizm va disfemizm.

Tasviriy metod muayyan sinxron aspektga tegishli lisoniy birliklarni, hodisalarni tasvirlash, tavsiflash jarayonida ularni tahlil qilib boradi, tildagi vazifasini, o'rnini, qo'llanishini, tuzilishini, o'ziga xosliklarini aniqlaydi, umumlashtiradi, xulosalar chiqaradi.

Tafakkur - o'ylash, muhokama qilish, voqelikni anglash, tasavvur qilish, unga baho berish, fikrlash qobiliyati. Inson tafakkuri til va nutq bilan chambarchas bog'liqidir. Tafakkur zaruriy tarzda moddiy so'z qobig'ida mavjuddir.

Tipologiya tilshunoslikning tillarini tipologik tasnif qilish printsipi va usullarini o'rganuvchi bo'limidir.

Tipologik metod turli qarindosh (o'zaro genetik bog'liq) va qarindosh bo'limgan (o'zaro genetik bog'lanmagan) til oilalariga tegishli bo'lgan tillarni qiyoslash asosida o'rganadi. Ushbu xususiyatiga ko'ra mazkur metod faqat bir til sistemasiga, ya'ni qarindosh tillar oilasiga kiruvchi tillarni qiyosiy tadqiq qiluvchi, «baholovchi» qiyosiy-tarixiy metoddan farq qiladi.

Tipologik tasnif - tillarning turiga ko'ra tasnif qilish tipologik tasnif deb ataladi.

Til - imkoniyat sifatida aloqa-aratashuv, fikr almashuv quroli. Til va jamiyat uzviy bog'liqidir. Til – tabiiy, ruhiy, ilohiy emas, balki ijtimoiy hodisadir.

Til birliklari: *fonema, morfema, leksema (so'z) va modellar.*

Tilning mohiyati uning ijtimoiy hodisa ekanligida ko'rindi.

Til taraqqiyotidagi ichki qonuniyatlar tilning o'z tabiatini asosida (o'z mohiyatidan) kelib chiqadigan taraqqiyot jarayonlarini ifodalovchi qonunlar hisoblanadi. Ular lingvistik omillarga tayanadilar.

